

B.To'ychiyev, I.Ergashev,
O.Muxammadiyeva, M.Xujayev

MILLIY G'OYA: O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**B.T.To'ychiyev, I.Ergashev,
O.M.Muxammadiyeva, M.I.Xo'jayev**

**MILLIY G'OYA: O'ZBEKISTONNI
RIVOJLANTIRISH
STRATEGIYASI**

O'quv qo'llanma

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.*

**Toshkent
“Innovatsiya-Ziyo”
2020**

UDK: 32C(575.1)

BBK: 66.3(5Uz)

M 69

B.T.To'ychiyev

Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi/ I.Ergashev,
O.M.Muxammadiyeva, M.I.Xo'jayev/ o'quv qo'llanma. – Toshkent:
“Innovatsiya-Ziyo”, 2020, 180 bet.

*Mazkur o'quv qo'llanma barcha oliy ta'lim muassasalarining
nomutaxassis yo'nalishida o'qiyotgan talabalar uchun mo'ljallangan.*

Unda “Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi”ning
mazmun-mohiyati, milliy g'oyaning nazariy-konseptual asoslari, jamiyat
maskurasi sifatida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, g'oyalar xilma-xilligi,
globallashuv davrida uning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri oqibatlari o'r ganilgan.
Shuningdek, konstruktiv va destruktiv g'oya ko'rinishlari, korrupsiyaga qarshi
kurashda milliy g'oyani muhim omil ekanligi, milliy g'oya targ'ibotida
samaradorlikka erishishning texnologiyalari O'zbekistonning harakatlar
strategiyasi bilan bog'liq holda yoritilgan.

O'quv qo'llanmada ilgari surilgan ijodiy fikr-mulohazalardan talabalar,
mustaqil tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar va soha mutaxassislar o'z
faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:

I.Saifnazarov

F.f.d., professor

Taqrizchilar:

N.Nazarov - s.f.d., prof.

A. Muxtarov - f.f.d., prof.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9943-6431-2-3

© B.T.To'ychiyev va boshq. 2020.


© “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.

KIRISH

Jamiyat taraqqiyotida g'oya muhim o'rinni tutadi. Chunki, g'oyada muayyan xalqning maqsadlari, orzu-umidlari huquq va manfaatlari mujassamlashgan va taraqqiyotning strategiyasi bilan uzviy bog'liq. Uzoq va istiqbolli maqsadlar – xalqning qarashlar va g'oyalari orqali mujassamlashadi, amalga oshib boradi. Milliy g'oya – O'zbekistonning rivojlantirish strategiyasi sifatida qaralishida o'ziga xos ma'no-mazmun borligini ana shu g'oyaviy maqsadlardan kelib chiqqan holda idrok etish, kursning maqsad va vazifasini to'g'ri tushunishga yordam beradi.

G'oyaviy o'zgarishlar mamlakatlar rivojiga, istiqboliga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston xalqining tarixida mamlakat hayoti, aqidalar va avlodlar maqsadlari turli xil g'oyaviy ta'sirlar tufayli o'zgarib kelganligi ma'lum. Masalan, sobiq sovet davrining mafkurasi – kommunistik g'oyadan voz kechilishi bilan O'zbekiston jamiyati taraqqiyoti o'z negizida, ya'ni milliy g'oya maqsadlariga tayangan holda amalga oshganligi tufayli mamlakat oldida turgan strategik maqsadlar uchun g'oyaviy asos bo'lib xizmat qila boshladи. O'zbekiston demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsadlarini amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

O'zbekistonning Harakatlar dasturi – rivojlanish strategiyasini, uning ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirishda milliy g'oya, uning konseptual asosi hisoblanadi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda milliy g'oyaga tayangan holda unga zid bo'lgan destruktiv g'oyaning ko'rinishlarini, konstruktiv g'oyaning milliy g'oya bilan mushtarakligini hisobga olish zarur. Jamiyat taraqqiyotiga xalaqit beruvchi korrupsiya bilan bog'liq salbiy holatlar milliy g'oyaga zid. Uning oldini olishda milliy g'oyaga-tayanish, targibot va



tashviqot texnologiyalardan foydalanish muhim. O‘zining istiqboli va kelajagini, mustaqil demokratik taraqqiyoti maqsadlariga sodiq bo‘lgan har bir fuqaro milliy g‘oyasiga bo‘lgan dahldorlikni his etadi va unga ishonchli va e’tiqodli bo‘ladi. Bu bugungi kunda milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o‘tish bosqichi bilan uzviy aloqador. Bu yoshlarni ta’lim-tarbiyasida alohida o‘rin tutadi. Ularni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Shuning uchun milliy g‘oya – O‘zbekistonning rivojlanish strategiyasini tushunishda uning g‘oyaviy konseptual asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu fan doirasida talabalar quyidagi mavzularni ilmiy-nazariy o‘zlashtirishga, o‘zlarida mafkuraviy immunitetni yanada mustahkamlash ko‘nikmasini egallashga muvafaq bo‘ladilar: Milliy g‘oyaning nazariy konseptual asosları; Jamiat mafkurasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi; G‘oyalar xilma-xilligi va mafkuraviy jarayonlarning ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri; Milliy g‘oya – O‘zbekistonning demokratik taraqqiyotining muhim omili; O‘zbekistoni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi – milliy taraqqiyot asosi; Globallashuv davrida axborot makoni va g‘oyaviy mafkuraviy kurashlar; Milliy g‘oyaga dahldorlik hissi – barqaror taraqqiyot omili; Milliy g‘oya targ‘ibotining innovatsion texnologiyalarini o‘rganish; Konstruktiv va destruktiv g‘oyalar ko‘rinishlari; Korrupsiyaning jamiyat barqarorligiga ta’siri.

1-MAVZU: “MILLIY G‘OYA: O‘ZBEKISTONNING RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI” FANINING MAZMUNI VA MOHIYATI

Reja:

1. Milliy g‘oya: O‘zbekistonning rivojlanish strategiyasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

2. Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirishning g‘oyaviy asoslari, tushunchalarini.

3. Milliy g‘oya va O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi fanining ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog‘liqligi va ahamiyati.

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardan boshlab jamiyatimizning barcha sohalari qatori ma’naviy-mafkuraviy hayotimizda ham ulkan o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari dahlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi. Yuqorida keltirilgan davlatni rivojlantirish bo‘yicha mamlakatimizda alohida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan *O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi* xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun kafolat bo‘la oladi, deb ayta olamiz.

Iqtisodiyotda ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o‘ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur’atlar bilan o‘sishini, inflyatsiyani prognoz ko‘rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta’minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish

uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi. Har bir xalq o‘z tarixining burilish nuqtalarida, avvalo, mafkura masalasini, uning o‘zagini tashkil etadigan, o‘ziga xos o‘q, birlashtiruvchi yadro vazifasini o‘taydigan ijtimoiy g‘oyani shakllantirish muammosini hal qiladi. Mamlakatimiz uchun milliy g‘oya haqidagi masalaning o‘tish davridagi amaliy ahamiyati shundaki, u xalqimizni oliy maqsad sari birlashtirib, aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qiluvchi mafkuralarning shakllanishiga sharoit yaratdi.

Sobiq ittifoq davrida barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar yakka mafkura, kommunistik mafkuraga g‘oyalariiga bo‘ysundirilib, milliy g‘oya haqida hech qanday bilim berilishiga yo‘l qo‘yilmagan.

1. Markscha ta’limot taraqqiyotning asosiy qonuniyatlarini to‘g‘ri tushuntirib beradigan yagona ta’limotdir, degan aqida mutloqlashtirilgan;

2. G‘oya to‘g‘risidagi bilimlarni egallash bu sohaning o‘z qonuniyatları va amal qilish tamoyillari borligini yaqqol ko‘rsatib qo‘ygan bo‘lur edi;

3. Sobiq sho‘ro davrida bu sohadagi mutaxassislarning ongi va dunyoqarashini umuminsoniy tamoyillar, qonun va qoidalar bilan emas, balki totalitar mafkura va mustabid tuzumning g‘arazli maqsadlari yo‘lida shakllantirishga xizmat qiladi.

Mustaqillik tufayli ahvol tubdan o‘zgardi. Milliy g‘oya O‘zbekiston rivojlanishining g‘oyaviy asosi sifatida amal qila boshladi.O‘zbekistonning ijtimoiy hayoti siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi asosida amalga oshirila boshlandi. Siyosiy va mafkuraviy plyurnalizm e’tirof etildi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mulkning xilma-xilligi tan olindi. Davlat manfaatining ustunligi, rejali iqtisoddan, davlat mafkurasidan voz kechildi.

Bugungi kunda yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash xususida Prezident Shavkat Mirziyoyev: “Barchamizga yaxshi ma’lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har

tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi”, – degan edilar.

Yangi davlat va yangi jamiyat qurish yo‘lini tanlagan ekanmiz, bizga mana shu yo‘lni oydinlashtiradigan, shu yo‘lda xalqimizga xizmat qiladigan, mamlakatimizni dunyoning taraqqiy etgan davlatlari qatoridan o‘rin olishiga imkon beradigan, jahon tajribasini o‘rganishda, uni qonuniyatlarini bilishda, dunyoning mafkuraviy manzarasini tushunishda, uning mazmun-mohiyatini ochib berishda va o‘zligimizni anglashimizda bevosita Milliy g‘oya maqsad va vazifalariga tayanishni o‘rgatadi.

Hozirda oliv ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan “Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” fanining ham o‘z predmeti, qonuni, kategoriyalari, maqsad va vazifasi mavjud. Chunki har qanday fanning muayyan bilimlar tizimi sifatida o‘ziga xos mavzulari, tushunchalari, qonun va kategoriyalari bo‘ladi. Ularning barchasi fan o‘rganadigan soha, ya’ni predmetning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq. Ushbu fanning mazmun-mohiyati birinchi Prezidentimiz I.Karimov tomonidan asoslab berilgan g‘oya – yurtimizda ozod va obod vatan, erkin va farovon hayat barpo etishga xizmat qiladigan yaxlit va izchil ta’limotni yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirish to‘g‘risidagi bilimlar tizimi, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan O‘zbekistonni 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasidan iborat.

Ayni vaqtida mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarish mazkur fanning asosiy predmetlaridan biridir.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov Milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasining maqsadi haqida fikr yuritib, uni shunday ta’riflagan: “Xalqni buyuk kelajak va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan

qat'iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariiga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish Milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir”.

Ushbu fanning asosiy maqsad va vazifalari: Milliy istiqlol g'oyasini yosh avlod qalbi va ongiga singdirish; yoshlarda milliy g'oyaning mustaqil demokratik taraqqiyotni ta'minlashning muhim sharti ekanligi to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish; ularda milliy va umumbashariy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik fazilatlarini mustahkamlash va unga yo'naltirish; milliy g'oya – O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivolantirishda asosiy strategik kuch ekanligi to'g'risida talabalarda ilmiy-nazariy qarashlarni shakllantirish. Milliy ma'naviy meros va umumbashariy qadriyatlarga tayangan holda milliy g'urur, vatanparvarlik, millatparvarlik fazilatlarini shakllantirish. Yoshlarni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishga yo'naltirishda mazkur fan

1. Yangicha dunyoqarashni shakllantirish;
2. Tarixiy xotirani shakllantirish;
3. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish;
4. Komil insonni tarbiyalash;
5. Yosh avlodni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi olivjanob g'oyalalar ruhida tarbiyalash;
6. Milliy g'oyaning O'zbekiston taraqqiyoti va mustaqillikni mustahkamlashning mafkuraviy tamoyillari to'g'risidagi yaxlit nazariya ekanligini tushuntirish;
7. Yoshlarni ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik g'oyalari ruhida kamol toptirish;
8. Yoshlarni yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashishga o'rgatish, ularda ogohlilik va hushyorlik ko'nikmalarini hosil qilish kabilalar bir qator dolzarb vazifalarni bajaradi.

Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining asosiy qonuniyatlarini bevosita jamiyatning g'oya va mafkuralar bilan bog'liqligini o'rganishda, inson va jamiyatning o'z maqsadi va taraqqiyot yo'lining mavjudligini bilishda, globallashuv jarayonining milliy g'oyada aks etishini tushunishda, inson ongi va qalbi uchun kurash xususiyatlarini va jamiyatda g'oyaviy bo'shliq bo'lmaslik, milliy g'oya har bir xalqning o'zligini saqlab qolishi va o'ziga xos rivojlanish ehtiyoji va kafolati ekanligini bilishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va uning asosida qabul qilingan Davlat dasturi ijrosini ta'minlashda siyosiy partiyalar, Oliy Majlis palatalari o'z elektorati manfaatlari, saylovoldi dasturida beigilangan ustuvor yo'nalishlar tahlili mazkur fanning rivojlanish qonuniyatlarini sifatida namoyon bo'ladi.

Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining qonuniyatlarini, asosiy tushunchalari, g'oyaning jamiyat rivoji bilan uzviy bog'liqligi va unga ta'siri "G'oya va milliy g'oya", "Milliy taraqqiyot g'oyasi", "Milliy g'oya va ijtimoiy-iqtisodiy hayot", "Fuqarolik jamiyatida g'oya va mafkuralar xilma-xilligi", "Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda bunyodkor g'oyalari", "Strategiya va harakatlar strategiyasi" kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liqdir.

Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi ijtimoiy hayat zarurati yuzasidan, ijtimoiy hodisa sifatida yuzaga kelgan ekan, birinchi navbatda, ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, ushbu fan falsafiy bilimlar tizimiga mansub bo'lganligi sababli o'ziga xos metodologik vazifani ham bajaradi. G'oyalarning tarixiy ildizlari, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy yoki salbiy ta'siri haqidagi falsafiy bilimlar bu fanning falsafa bilan bog'lashi, davr nuqtayi nazaridan mantiqiy tahlil qilish o'z navbatida tarix fani bilan munosabatga kirishiga olib keladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, g'oya va mafkuralarning shakllanishiga, odamlarning ongi va tafakkuriga singishida bevosita adabiyot,

san'at, xalq og'zaki ijodi, musiqa kabi sohalar bilan chambarchas bog'liqidir. Yana shuni ta'kidlash kerakki, g'oya va mafkuralarning globallashishi, xalqlar hayotiga tahdid solishi yoki ularni taraqqiyotga yetaklashiga yo'naltirilishida siyosiy fanlarning ham bog'liqligini e'tirof etish mumkin. Shuningdek, geografiya, demografiya, iqtisodiyot va, hatto, g'oyani hayot bilan bog'lashda va uni ezgulik sari yo'naltirishda yoki aksincha xalqning fojiali ahvolga olib kelishida tabiiy, texnik, huquqiy va boshqa fanlarning ham ta'siri bo'ladi. Shuning uchun ham bugun yurtimizda olib borilayotgan keng sohadagi islohotlarni fuqarolarimizning farovon hayotini, ularning tinchligi va barqarorligini, xavfsizligini ta'minlashda avvalambor zamонавиу axborot texnologiyalaridan samarali foydalangan holda milliy g'oyaning innovatsion targ'ibot texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, vatanimizning taraqqiyotini bevosita har bir fuqaroning qalbida va ongida milliy g'oyamizning qanchalik o'rinni olishiga bevosita bog'liq ekanligini tushuntirish.

O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida belgilangan vazifalarni tahlil qilish muhim ahamiyatga egadir. Jumladan:

aholi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda quyidagilarni nazarda tutadigan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi;

davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi

tizimini isloq qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyatni institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloq qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash;

iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institusional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;

ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat,

ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'yangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlashdir.

Yoshlarda milliy g'oyaga ishonch va e'tiqodni mustahkamlash borasida mazkur fan bevosa iqtisodiyotimizda erishilayotgan yutuqlar, ijtimoiy hayotimizda yuz berayotgan ulkan islohotlarning natijalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Milliy g'oya: O'zbekiston rivojlantirish strategiyasi barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uzviy aloqador. Ularning g'oyaviy asosini tashkil etadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning maqsadi, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ayni paytda, uni o'rghanishda O'zbekiston rivojlanishning istiqbolda milliy g'oya maqsadlari bilan mushtarak ekanligini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Milliy g'oya va O'zbekistonning rivojlanishining o'zaro bog'liqligi nimada?
2. O'zbekiston rivojlanish strategiyasining g'oyaviy asosini nima uchun milliy g'oya tashkil etadi?
3. O'zbekistonning rivojlanish strategiyasining mazmun-mohiyati nimada?

2-MAVZU: MILLIY G'OYANING NAZARIY KONSEPTUAL ASOSLARI

Reja:

- 1.Jamiyat hayoti va rivojlanishini g'oya va mafkuralar bilan bog'liqligi.
- 2.Milliy g'oya nazariy va konseptual asoslarining o'ziga xos jihatlari.
- 3.O'zbekiston jamiyatni taraqqiyotida milliy g'oyani jamiyat mafkurasi ekanligi va uning ta'siri.

Milliy g'oya va milliy mafkuraning mustaqil davlat uchun zaruriy ehtiyoj ekanligini anglab olish maqsadga muvofiqdir. Mazkur masalaning mohiyati Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan yoritib berilgan. Milliy g'oya va milliy mafkuraning mustaqil davlat uchun zaruriy ehtiyoj ekanligini quyidagilar orqali biliшимиз mumkin:

Birinchidan, o'zining kelajagini ko'rmoqchi va qurmoqchi bo'lган har qanday davlat yoxud jamiyat, albatta, o'z milliy g'oyasiga suyanishi va tayanishi zarur. Tabiiyki, davlat tizimi, uni boshqarish va olib borilayotgan siyosat, avvalo, aniq va ravshan ifodalangan mafkura asosiga qurilmog'i lozim, ya'ni oldin davlat qurilishi va undan keyin mafkura paydo bo'lishi o'zi g'ayritabiyy hol. Buni yaxshi anglab olishimiz lozim. Ya'ni oldin g'oya paydo bo'ladi, undan keyin g'oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo'ladi. O'z milliy g'oyasiga tayanmagan jamiyat inqirozga duchor bo'lishi, o'z yo'lini yo'qotib qo'yishi muqarrar. Bu masalaning yana bir jihatni shundaki, ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib, biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.

Ikkinchidan, mustaqillikni qo'lga kiritgan davlatimizning dastlabki davrida, mustabid, totalitar bir tuzumdan erkin va ozod tuzumga o'tish sharoitida xalqimiz va jamiyatimizni mana shu davrda yangi ufqlar sari boshlash, da'vat qilishda maqsadlarimiz

aniq bo‘lishi kerak edi. Bunday maqsadlarga esa, avvalo, chuqur o‘ylangan va puxta ishlangan mafkura asosida yetishish mumkin.

Uchinchidan, endi voyaga yetayotgan yoshlarimiz qanday g‘oya asosida, qanday g‘oya negizida tarbiya olishi, qanday ezgu maqsadlarga intilishi kerak? Qanday mafkura va tafakkur ular uchun quroq bo‘lib xizmat qilmog‘i lozim?

To‘rtinchidan, tarbiyaviy-axloqiy masalalarda, ma’naviy hayotda, kerak bo‘lsa, milliy manfaatlarimizga mos keladigan siyosatni izchil olib borishda o‘z yo‘limizni yo‘qotmasligimiz uchun hech qanday g‘oyaviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymasligimiz lozim.

Beshinchidan, milliy g‘oya millatimizning, xalqimizning o‘zligini anglashiga, o‘zining milliy qadriyatları, urf-odatlarini yo‘qotmasdan, ularni tiklab, avaylab, e’zozlab, yangi, o‘sib kelayotgan yosh avlodga yetkazib berish uchun xizmat qilishi kerak.

Oltinchidan, milliy g‘oya oldiga qo‘yiladigan asosiy talablar haqida gapirmoqchi bo‘lsak, avvalo, uning ikki suyangan tog‘i-tayanchi haqida fikr yurtishimiz zarur. Birinchi navbatda, milliy mafkuramiz xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga, bir so‘z bilan aytganda, o‘z milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanib, shu bilan birga, zamonaviy, umumbashariy, umuminsoniy yutuqlardan oziqlangan, ularni o‘ziga qamrab olgan holda, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati, uning farovonligi yo‘lida xizmat qilmog‘i darkor.

Yettinchidan, milliy mafkura hech qanday shaklda davlat mafkurasi maqomiga ko‘tarilmasligi, aylanmasligi kerak. U jamiyatimizdagi qarashlar rang-barangligi, g‘oyalarni xilmahilligini saqlagan holda, ularni bir-biri bilan munozara qilishiga, kurashishiga, bahslashuviga, har qanday partiya, harakat, har qaysi inson, fuqaroning o‘z fikrini erkin ifoda etishi va uni himoya qilishiga ziyon yoki tazyiq ko‘rsatmasligi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar

konsepsiyasiga ta’rif berar ekan, “Xalqni buyuk kelajak va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat‘iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas’uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an’analalarimizga munosib bo‘lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da’vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish – milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir”, - deydi.

Mafkura masalasini kun tartibiga qo‘yilishi haqida I.Karimov quyidagi fikrni bildiradi: “Oldimizga qo‘yilgan olivjanob maqsad-muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo‘lish, g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lmasligiga yo‘l qo‘ymaslik, begona va yot g‘oyalarning xurujidan himoyalananish, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zaruriyati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani taqozo etmoqda”.

Milliy mustaqillik O‘zbekistonning istiqlol mafkurasini nazariy jihatdan ishlab chiqish, uni xalq orasida keng targ‘ib va tashviq qilish, har bir fuqaro ongiga mustaqillik mafkurasining mazmun-mohiyatini singdirish , istiqlol yo‘liga mos va xos o‘zbek milliy mafkurasini ilmiy asosda yaratishni talab qilardi.

Milliy istiqlol g‘oyasini ishlab chiqish, shakllantirish masalasini Islom Karimov tomonidan qo‘yilishi katta bir jasorat va hodisa edi. Bunda u nafaqat O‘zbekistonda, balki ko‘pgina sobiq sovet respublikalari xalqni birlashtiruvchi, uyuştiruvchi omil bo‘lmish mafkurani butunlay inkor etish haqida gapirayotganda, siyosatini yuritayotganda yagona milliy g‘oyaga ega bo‘lmaslik, bo‘shliqqa yo‘l qo‘yish mafkuraviy mutaasiblikdan ko‘ra ham xavfliroq ekanligini, yangi davlatning butun tizimi, uning boshqaruvi va siyosati birinchi navbatda umumiylilik manfaatlariga javob beruvchi aniq ta’riflangan mafkura asosida qurilishini ko‘rsatib bergen edi.

Islom Karimov O‘zbekiston Oliy Kengashining 1992-yil 2-iyulda bo‘lib o‘tgan X sessiyasida xalqni yakdil qiladigan, uyuşhtiradigan mustaqillik g‘oyasi atrofiga birlashtirishga chaqirar ekan, “ ana shu maqsad, ana shu g‘oya atrofida birlashsak, aslo xor bo‘lmaymiz”, deydi. Islom Karimov Oliy Kengashning 1993-yil 6-may kuni bo‘lib o‘tgan XII sessiyasida so‘zlagan nutqida “Oldimizda turgan eng muhim masala, bu – milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizga tatbiq etish” ekanligini ko‘rsatib beradi.


Islom Karimov milliy mafkurani, mustaqillik g‘oyasini ishlab chiqish haqida yozuvchilar, ziyorolar bilan qilgan bir necha suhbatlarida kun tartibiga qo‘yadi. Ammo milliy istiqlol g‘oyasining asosiy g‘oyalari, tamoyillari, maqsad va vazifalari nimalardan iborat ekanligini Islom Karimovning o‘zi nutq, maqolalari va kitoblarida ko‘rsatib beradi. Islom Karimov dastlab, milliy istiqlol g‘oyasini “O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat” degan iborada ifodalaydi. Milliy istiqlol g‘oyasini mazkur shaklda ifodalanishi zinhor O‘zbekistonning buyuk davlatchilikka, kimlar ustidandir hukmronlik da’vo qilayotganini bildirmaydi. Balki xalqimizning ruhiyatini ko‘tarishga, unga o‘tmishda otabobolarimiz jahon ilm-fani va madaniyatiga, umuman, insoniyat sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘sghanligini ko‘rsatib, uning ongiga o‘tmishda buyuk yutuqlarni qo‘lga kiritgan xalq kelajakda ham bunga qodir, degan fikrni singdirishga va farovon, erkin turmushni yaratishga safarbar qilishga qaratilgan. Bu g‘oya xalqimizni jiqlashtirishga, birlashtirishga, o‘z kuchiga ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi va xizmat qilmoqda.

Islom Karimov shundan so‘ng milliy g‘oyani “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin” deya yanada aniq va soddalashgan ifodada ilgari surdi. Mazkur ifoda shu aziz vatan barchamizniki, uning mustaqilligini ko‘z qorachig‘iday asrash, har tomonlama rivojlantirish, jahon hamjamiyatiga teng huquqli a’zo bo‘lish, kelajak avlodga obod Vatan qoldirish lozim, degan mazmunni o‘z ichiga olgan edi.

“Bizdan ozod va obod Vatan qolsin” g‘oyasi jamiyat kuchg‘ayratini oliv maqsad sari yo‘naltirish bilan bir qatorda, mustaqillikka tahdid soluvchi ichki va tashqi xavf-xatarlarga qarshi faol kurashish, milliy jipslikni yanada kuchaytirish lozimligiga e’tiborni qaratadi. Barpo etilayotgan yangi jamiyatning insonparvarlik mohiyati, amalga oshririlayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy islohotlarning pirovard maqsadi – inson ehtiyojlarini qondirish milliy g‘oyada aks etmasligi mumkin emas edi. Shu sababli Islom Karimov “Islohotlar islohot uchun emas, balki inson uchun” g‘oyasi orqali, milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tamoyili bo‘lmish insonparvarlik tamoyilini ilgari surdi.

Milliy istiqlol g‘oyasini rivojlantirib borib Islom Karimov “Ozod va obod Vatanda – erkin va farovon yashash” fikrini ilgari surdi. Bu iborada nafaqat mamlakat, jamiyat manfaatlari, shuningdek, alohida inson manfaatlari ham aks etgan. Boshqacha aytganda, bu fikrda jamiyat va inson manfaatlari uyg‘un holda ifodalanadi.

Ijodiy izlanishlar natijasida Islom Karimov O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bu konsepsiyada o‘z yo‘limizning shart-sharoiti va zaminlari, O‘zbekiston – demokratik va ijtimoiy adolat jamiyati ekanligi, O‘zbekiston – kelajagi buyuk, mustaqil, demokratik, huquqiy davlat, bu ipsonparvarlik qoidalariga asoslangan millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e’tiqodidan qat’iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlab beradigan davlat ekanligi ilmiy- nazariy jihatdan asoslab berildi. Konsepsiyada milliy manfaatlarning ustuvorligi va teng huquqligi, hamkorlikka asoslangan tashqi siyosatning mohiyati, ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish mustaqil O‘zbekistonning ichki siyosatining negizi ekanligi, bunda inson manfaatlari qaratilgan mehnatni rag‘batlantirish, kuchli mexanizmiga ega bo‘lgan va aholining ijtimoiy nochor bo‘lgan qatlamlarini davlat yo‘li bilan himoya qilish, mamlakat rivojlanishining ma’naviy-axloqiy negizlari bo‘lgan umuminsoniy



qadriyatlariga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlik kabi bosh g'oyaviy tamoyillar ta'riflab berildi. Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish mamlakatda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasi ekanligi ko'rsatib berildi. Milliy istiqlol mafkurasining g'oyaviy va nazariy asoslarini yaratishda Birinchi Prezidentning 2000-yil 6-aprelda milliy istiqlol mafkurasi konsepsiyasi asosiy tamoyillariga bag'ishlab ilmiy va ijodiy jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvda bildirgan fikrlari g'oyat katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Konsepsianing asosiy maqsadi:

Huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatni qurishdan iborat milliy strategiyani amalga oshirish Konsepsianing asosiy maqsadini tashkil etadi. Mazkur maqsad doirasida quyidagi yo'naliishlarda keng ko'lmandagi ishlarni amalga oshirish talab etiladi:

- o'zbek xalqining boy tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy-ma'rifiy va axloqiy merosini har bir fuqaroning ma'naviy mulkiga aylantirish, milliy o'zlikni anglatish maqsadini ustuvor yo'naliish sifatida amalga oshirish, milliy g'oya va mafkurani xalqimizning ongi va qalbiga chuqr singdirish, uni ruhiy va ma'naviy kuch-qudrat manbayiga aylantirish;

- Vatan ozodligi yo'lida jasorat ko'rsatgan buyuk ajdodlarimizning ibratli hayotini keng targ'ib etib borish, siyosiy jarayonlarga, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar tahlili asosida jamiyatning har bir a'zosi qalbida milliy g'urumi kuchaytirish, hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaslik tuyg'usini kamol toptirish;

- aholining barcha qatlamlarida, xususan, yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, fidoyilik va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash, ularda dunyo va mamlakat miqyosidagi siyosiy jarayonlarga mustaqil va ongli munosabatda bo'lish hissini uyg'otish;

-- jamiyatda o'zaro insoniy munosabatlar, izzat-ehtirom, mehr-muruvvat, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik g'oyalarini shakllantirish jarayonlarini milliy g'oya va ma'naviyat tamoyillari bilan uyg'un tarzda tizimli va uzlusiz targ'ib etib borishni yo'lga qo'yish;

- turli ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida tarqatilayotgan, urf-odatlarimiz, milliy mentalitetimizga zid, odobsizlik va axloqsizlikni targ'ib etuvchi vayronkor g'oyalarning yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir o'tkazishining oldini olish;

- axloqiy, tarbiyaviy ishlarni yanada takomillashtirish, yoshlarda yuksak ma'naviy va madaniy sifatlarni shakllantirish, umuminsoniy qadriyatlar, milliy o'zlikni anglash, g'urur va iftixor, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, boy tarixiy-madaniy merosga asoslangan holda mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash, xalqimizning azaliy an'ana va urf-odatlariga asoslangan holda jamiyatda o'z o'rnni topish, kasb-hunar egallashga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirish;

- Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning yetakchilik xususiyatlarini namoyon qila olishlari hamda boshqaruva mahorati malakasini hosil qilishlariga keng qamrovli imkoniyatlar ochib berilishini ta'minlash;

- yoshlarning ilm-fan sohasidagi faolligini oshirish, ilmiy-ijodiy intilishlarini ro'yobga chiqarish;

- yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar mazmunini keng targ'ib etish orqali ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish;

- yoshlarning turli sohalarda erishayotgan yutuqlarini keng targ'ib etish va ularning ongida barkamol shaxs idealini shakllantirish orqali zamonamiz qahramonlarini kamol toptirish;

Milliy g'oya – milatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oya shakli.

U yoki bu g'oyaning Milliy g'oya sifatida maydonga chiqishi milatning o'tmishi, mavjud holati bilan bevosita bog'liqdir. Zero,

ana shu ikki negizga tayangan holdagina u millatning qisqa yoki uzoq vaqtida erishishi lozim bo‘lgan maqsad-muddaolari va mo‘ljallarini to‘g‘ri ifodalay olishi mumkin.

Milliy g‘oya oxir-oqibatda, ozmi-ko‘pmi insoniyat taqdiriga ta’sir qiladi. Shu ma’noda, har qanday milliy g‘oyada umuminsoniy mohiyat mavjud bo‘ladi. Ammo aniq bir millat yoki umuman, insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan g‘oyalar ham bor. Aytaylik, «Milliy yarash» g‘oyasi fuqarolar urushi ketayotgan davlat uchun hayotiy mazmunga ega bo‘lsa, «Manfaatli hamkorlik» g‘oyasi dunyoning barcha mamlakatlari uchun birdek ahamiyatlidir.

Milliy istiqlol g‘oyasi – mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari hamda mazmuni quyidagilardan iborat:

- tarixiy xotirani uyg‘otish, o‘tmishdan saboq chiqarish va o‘zlikni anglash mezoni bo‘lish;
- xalqimizni tub maqsadlari ifodasi va jamiyat a’zolarini birlashtiruvchi g‘oyaviy bayroq vazifasini o‘tash;
- inson qalbi va ongiga ijobiyligi ta’sir etadigan tushuncha va tuyg‘ular, go‘zal va hayotiy g‘oyalar tizimini o‘zida mujassam etish;
- har bir fuqaroning ezgu niyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beradigan eng maqbul yo‘lni ko‘rsata olish.
- O‘zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam va din vakillariga birday taalluqli bo‘lish;
- Mamlakatimiz aholisi ongi va qalbida «O‘zbekiston – yagona Vatan» degan tuyg‘uni yuksak darajada shakllantirishga xizmat qilish;
- turli millat, qatlam, din vakillari, siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen – ijtimoiy hodisa mazmuniga ega bo‘lish;
- biron-bir dunyoqarashni mutloqlashtirmaslik yoki biron-bir kuch, partiya yoki guruh qo‘lida siyosiy quroqla aylantirmaslik;
- har qanday ilg‘or g‘oyani o‘ziga singdirish va har qanday yovuz g‘oyaga qarshi javob bera olish;

- sub`ektivizm, volyuntarizm kabi illatlardan holi va jamoatchilikning xolis fikriga tayanuvchi ob`ektiv mafkura bo`lish;

- so`z bilan ishni, nazariya bilan hayotni birlashtira olish;

- davr o`zgarishlariga qarab, o`zi ifodalaydigan g`oya, manfaat, maqsad-muddaolarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalarini tavsiya eta olish, ya`ni yangicha vaziyatga tez moslashadigan hozirjavob va ijodiy bo`lish.

Milliy istiqlol g`oyasi ana shu qayd etilgan sifatlarga ega bo`lgan taqdirdagina jamiyat hayotida yetakchi ma`naviy-ma`rifiy omilga aylanishi va kutilayotgan vazifalarni bajara olishi mumkin.

Xalqning ma`naviyati, madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o`ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo`lidan muvaffaqiyatli ravishda olg`a siljitimishda hal qiluvchi, ta`bir joiz bo`lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir¹, deb ta`kidlagan edi, I.Karimov. Darhaqiqat, bugungi kunda fuqarolik jamiyatini shakkantirish jarayoni kechayotgan bir sharoitda, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o`tmish madaniy meros va haqqoniy tariximiz muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan bugungi kunda boy tarixiy merosimiz va madaniy-ma`naviy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish masalalari davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Mustaqillik tufayli, biz bu milliy ma`naviyatimizni tiklashga, o`rganishga, uni yanada jahon sivilizatsiyasining tarkibiy ajralmas qismida mustahkam bo`lib qolishga imkoniyat yaratildi.

Inson va jamiyat hayotida muhim o`zgarishlarni amalga oshirilishida muayyan g`oyalar alohida o`rin tutadi. Jamiyat taraqqiyotining ma`lum davrlarda tezlashuvi yoki sekinlashuvi, jamiyat hayotida ijobiy yoki salbiy holatlarning ro`y berishi jamiyatda qanday g`oyalar hukmronlik qilishi, ular qanday kuchlarni harakatga keltirishi, kimlarning, ya`ni qaysi bir ijtimoiy qatlamning manfaatlariga xizmat qilishiga ko`p jihatdan bog`liqdir.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чукурлаштириши йўлида. III жилд. Т.: “Ўзбекистон”, 1996, 274 - бет.

Inson tafakkuri voqelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi. Binobarin, g'oyalar inson tafakkurining mahsulidir. Lekin tafakkur yaratgan har qanday fikr yoki qarash, mulohaza yoki nuqtayi nazar g'oya bo'la olmaydi. Faqat eng kuchli, ta'sirchan, zalvorli fikrlargina g'oya bo'la olishi mumkin. G'oyaning eng muhim xususiyati – insonni va jamiyatni maqsad sari yetaklaydigan, ularni harakatga keltiradigan, safarbar etadigan kuch ekanidadir.

G'oya – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr.

Inson ongining mahsuli sifatida g'oyalar tushuncha va fikrlar yordamida ifoda etiladi. Ammo har qanday fikr va qarash ham g'oya bo'la olmaydi. G'oyalar garchi tafakkurda paydo bo'lsa-da, inson va jamiyat ruhiyatiga, hatto, g'ayrishuuriy qatlamlarga ham singib boradi. G'oya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki dunyosigacha kirib borib, uni harakatga keltiruvchi, maqsad sari yetaklovchi ruhiy-aqliy kuchga aylanadi.

G'oyalarning oddiy fikrlardan farqi yana shundaki, ular garchi tafakkurda paydo bo'lsa-da, inson ruhiyatiga, hatta tub qatlamlariga ham singib boradi. G'oya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki dunyosigacha kirib borib, uni harakatga keltiruvchi, maqsad sari yetaklovchi ruhiy-aqliy kuchga aylanadi.

Inson tafakkurining mahsuli sifatida g'oya milliy-madaniy merosni, umuminsoniy qadriyatlarni, ijtimoiy-ma'naviy hayotni, tevarak olamni o'rghanish, bilish jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari ilm-fan, falsafa, din, san'at va badiiy adabiyot, axloq, siyosat va huquq – muayyan bir g'oyalarni yaratadi, ularga tayanadi va ularni rivojlantiradi.

Milliy g'oya – inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar, g'oyalar majmuyidir. Ozodlik va mustaqillik,adolat va haqiqat, tinchliksevarlik va insonparvarlik g'oyalari shular jum'lasidandir. Asrlar mobaynida bunday buyuk, o'lmas g'oyalar xalqlarga kuch-

quvvat va ilhom bag'ishlab, ularni o'z erki uchun kurashga safarbar etib kelgan.

Birinchi Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, millat taraqqiyotiga, uning yuksalishiga xizmat qiladigan, xalqlarni jipslashtirib, oliy maqsadlarga safarbar etadigan g'oyalardir. Odamlar orasiga nifoq, xalqlar o'rtasiga nizo soladigan, kishilarni turli taraflarga ajratib, adovat qo'zg'aydigan, tuban, buzg'unchi g'oyalarga misol bo'ladi.

Albatta, muayyan bir xalq ommasini ma'lum bir tarixiy sharoitda ezgu harakatga undaydigan g'oya mazmunan umuminsoniy bo'lishi ham yoki tor manfaatlarni ko'zlaydigan sinfiy g'oya jamiyat va inson manfaatlariga zid, tajovuzkor bo'lishi ham mumkin.

Ezgu g'oya – inson tafakkurida vujudga keladigan, muayyan fikrlarning ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga keltiradigan, ularni bунyodkor maqsad-muddao sari yetaklaydigan ulug'ver fikrlardir.

Binobarin, g'oya muayyan millat va xalqning maqsad-muddaolari, manfaatlari zamirida shakllanadi hamda takomillasha boradi. Ma'lumki, milliy g'oya va mafkuraning tarixiy shakllari va ko'rinishlari xalqimizning ko'p ming yillik o'tmishi davrida rivojlanib keldi. Qadimgi Xorazm, So'g'diyona va Baqtriyada ilk bor shakllangan, ajodolarimiz tomonidan bundan 2700 yil oldin yaratilgan dastlabki yozma manba – "Avesto" kitobida ham ezgulik g'oyalari ilgari surilgan.

Zardushtiylilik mintaqada ilk bor shakllangan dastlabki davlat birlashmalari Xorazm, So'g'diyona va Baqtriyada davlat dini darajasiga ko'tarildi va rasmiy mafkura vazifasini ham bajardi.

Ammo Turonning vaqtı-vaqtı bilan bosqinchilar hujumiga uchrab turishi jamiyatdagi barqarorlikni izdan chiqarar edi. Milloddan avvalgi VI-IV asrlarda ahmoniy shohlari, 329-327 yillarda Aleksandr Makedonskiyning bosqinchilik yurishlari mintaqada mavjud bo'lgan mustaqil davlatchilikka ma'lum muddatga chek qo'yilishiga sabab bo'ldi. Xalqimiz o'z mustaqilligini qayta tiklash uchun dushmanga qarshi yillar

davomida kurash olib bordi. Mustaqillik g'oyalari, o'z milliy davlatchilikni tiklash uchun kurash xalqimizning o'sha paytdagi orzu-umidlari, ta'bir joiz bo'lsa, uning g'oya va mafkurasini tashkil qiladi.

Miloddan avvalgi VII asrlarda Avesto Xorazm, So'g'diyona, Baqtriya davlatining mafkuri sifatida xizmat qilgan bo'lsa, miloddan avvalgi VII-IV asrlarda Buddaviylik kushon davlatining mafkurasiga aylandi.

IX-XII asrlarda somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, xorazmshohlar sulolalari tomonidan mintaqada asos solingan davlatlar nafaqat o'zbek xalqi, balki jahon xalqlari tarixida ham chuqur iz qoldirdi. Xorazmiy, Farobi, Farg'oniy, Ibn Sino, Beruniy kabi allomalarning o'lmas asarlari jahon fanini boyitdi. Mutasavvuflar Y.Hamadoniy, Yassaviy, G'ijduvoniy, Naqshbandiy, Najmuddin Kubro, muhaddislar Imom Buxoriy, Imom Termiziylarning ta'limotida aks etgan komil inson g'oyalari, adolat haqidagi qarashlar jamiyatning sog'lom ma'naviy-axloqiy ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qildi. Bu g'oyalalar o'zbek davlatchiligining rivojlanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qildi. Amir Temuring «Temur tuzuklari», Nizom ul-mulkning «Siyosatnama» kitoblarida davlat idorasasi va ahli fuqaroga munosabatda adolat, insof, diyonat, el-yurt tinchligi va obodligi bosh g'oya sifatida ilgari suriladi. XVII-XIX asrda umummilliy manfaatlar o'rniغا tor va cheklangan, shaxsiy va sulolaviy manfaatlarning ustun qo'yilishi, jamiyat hayotida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va ilmma'rifatni rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berilmagani Turkistonda mustamlakachilik tuzumi o'rnatilib, pirovardda milliy davlatchilikning yana bir bor tugatilishiga olib keldi. Shunga qaramasdan chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan milliy g'oyalalar tamomila yo'q bo'lib ketmadni. Aksincha, mustamlakachilik sharoitida ular milliy davlatchilikni tiklash, millat taraqqiyoti va istiqboli uchun kurash bayrog'i sifatida yana ilgari surila boshladi.

Umuman, insonlar, xalqlar, jamiyat hayotida mafkura muhim rol o'ynaydi. Mafkuraning hayotbaxsh kuchi, avvalo, insonning

jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini qanday tushunishi va uni qanday ijtimoiy maqomda tasavvur etishiga bog'liq. Chunki insonni ijtimoiy harakat va faoliyatga undaydi va shu tariqa ko'zlangan muayyan maqsad-vazifalarga erishish dunyodagi barcha ezgu mafkuralarning ma'no-mohiyatini tashkil etadi. Shu sababli ham milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va prinsiplari tizimida insonning jamiyatdagi o'rni bunyodkor kuch sifatida belgilangan. Istiqlolning bosh g'oyasi ham, asosiy g'oya va tushunchalari ham bunyodkorlik falsafasi bilan yo'g'rilgan. Chunki bunyodkorlik xalqimizning eng olivjanob fazilati. Jamiyat taraqqiyotida mafkura va g'oyalar yetakchi mavqelardan birini egallaydi. Mafkuraviy jarayonlar tarixiy va ijtimoiy shart-sharoit bilan uzviy aloqador bo'lib, davrlar almashuvi bilan yangilik tomon o'zgarib boradi.

Mafkura (arab.fikrlar majmuyi)- muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlat manfatlari, orzu-istik, maqsad-muddaolari ifodalangan g'oyaviy-nazariy qarashlar va ularni amalga oshirish tizimidir. Unda manfaatlar ifodalananayotgan kuch va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi. Bu tizim o'zining falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy negizlariga ega. Demak, mafkura o'z mohiyati va vazifasi jihatdan nihoyatda rang-barang bo'lishi tabiiydir. Xuddi jamiyat hayoti turli qatlamlar, yo'nalishlar va darajalarga ega bo'lganidek, mafkura ham xilma-xil bo'lishi mumkin.

Mamlakatda ilg'or g'oyalar, mafkuralar qancha ko'p bo'lsa, ya'ni mafkuraviy plyuralizm hukmron bo'lsa, taraqqiyotning samarali yo'lini tanlab olish uchun imkoniyat shunchalik keng bo'ladi. Fikrlar erkinligi va xilma-xilligi mafkuralarning mazmun jihatdan boyishiga, bir-birini to'ldirishiga xizmat qiladi.

Mustaqil O'zbekistonda mafkura yakkahokimligidan voz kechildi va milliy taraqqiyot uchun keng yo'l ochildi. Mamlakatimizda mafkuralar va fikrlar xilma- xilligiga alohida e'tibor beriladi. G'oya va mafkuralar xilma-xilligi ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan yangidan yangi g'oyalarning paydo bo'lishiga turli xalqlar, elatlar, millatlar va siyosiy institutlarning

manfaatlarini umurniy tarzda ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, u mamlakatimizda ko'ppartiyaviylik tizimiga ham sharoit yaratadi. Siyosiy partiyalar esa o'zlarini mansub bo'lgan qatlamlar, siyosiy guruhlarning manfaatlari, intilishlari, orzu-umidlarini umumlashtirgan holda o'z harakat dasturlari orqali namoyon qiladi.

Jamiyatda ezgu g'oyalari barcha davrlarda insonni yuksak orzular bilan yashashga, oljanob maqsadlar yo'lida e'tiqod bilan kurashishga o'rgatadi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi bunyodkorlik ishlari bunga yorqin misoldir. Inson va jamiyat bor ekan, ezgulik g'oyalaring zidi bo'lgan zulm va zo'ravonlik, qabohat va jaholat yangi-yangi shakllarda namoyon bo'lishi ham mumkin. Lekin ular insoniyatningadolat, tenglik, tinchlik, qardoshlik, rivojlanish va farovenlik g'oyalariiga tayanib, yuksak maqsadlar sari yetaklayveradi. Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olivjanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat taraqqiyotga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmoqda.

Milliy g'oya - millat tafakkurining mahsuli, ijtimoiy ongning yuqori darajadagi shakli, xalq falsafasining o'zagidir. Turli xalqlarning milliy g'oyasi ularning maqsad-muddaolarini, orzu-umidi va ishonch-e'tiqodini ifodalaydi, ayni paytda muayyan tamoyil va negizlarga asoslanib rivojlanadi. Tarix saboqlari guvohlik berishicha, o'tkinchi manfaat va g'aliz niyatlarga tayangan, o'zga xalqlar va yurtlarga tajovuz qilishni, bosqinchilikni ko'zlagan yovuz g'oya va mafkuralar millat va davlatlarni tanazzulga duchor etgan. Faqat ezgu g'oyalari va yuksak qadriyatlar negizida shakllangan milliy g'oyalari xalqlarni taraqqiyotga eltdi.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlol g'oyasi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi. Bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi.

«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida quyidagi milliy xususiyatlar qayd etilgan:

- xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;
- jamoa timsoli bo'lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;
- ota-onas, mahalla-ko'y, umuman, jamoatga yuksak hurmat-e'tibor;
- millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat;
- kattaga - hurmat, kichikka - izzat;
- mehr-muhabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi - ayol zotiga ehtirom;
- sabr-bardosh va mehnatsevarlik;
- halollik, mehr-oqibat va hokazo».

Milliy g'oyaga ma'naviy poydevor bo'ladigan milliy qadriyatlar doirasiga urf-odat va marosimlar, ularga asos bo'lgan insoniylik va jamoatchilik tamoyillari, axloqiy fazilatlar kiradi. Uning tayanchi, negizi bo'lib ham xizmat qiladi. Chunki bu qadriyatlarda millatni, xalqni ruhi mujassam.

Ma'naviyat, qadriyatlar va milliy g'oya - jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohalaridir. Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev "Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruvida tarbiyalash, O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nilashilardan biri etib belgilandi" deya ta'kidlashi, Buyuk kelajakni yaratish yo'lida xalqni birlashtirib, yakdil qila oladigan, bunyodkor yoshlarni ma'naviyat, qadriyat va milliy g'oya - xalqning bugungi hayoti uchun ham ertangi istiqboli uchun beqiyos ahamiyatga ega holda tarbiyalash bosh vazifadir. Milliy o'zlikni anglash aynan ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish, o'z xalqining tarixi, madaniy merosini o'rganish, bugungi holati va ertangi istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi. Har bir insonning mehnati, faoliyati, hayotiy maqsadlari ma'lum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma'naviy boyliklarga ega bo'lishga yo'naltirilgan bo'ladi.

O‘z millatining tili va madaniyatidan, shu millatga mansubligidan or qiladigan, uning madaniyati va merosidan o‘zini chetga oladigan ayrim kimsalar ham ba’zan topiladi. Ammo, haqiqiy millatparvar inson o‘z xalqi boshiga kulfat kelganda uni tashlab ketmaydi, milliy g‘urur va milliy or-nomusni himoya qilishni, qadrlashni eng ulug‘ qadriyat deb biladi. Milliy g‘oya bu qadriyatni har bir yurtdoshimizning ongi va qalbiga singdirishga xizmat qiladi. Mustamlakachilik siyosati soxta qadriyatlar, begona taomillarni zo‘rlab kiritishga urindi. Xalqimizning ruhi va tabiatiga zid bo‘lgan – ichkilikbozlik va giyohvandlik, behayolik va andishasizlik illatlari ildiz ota boshladi. Milliy ma’naviy qadriyatlarni himoya qilish millatchilik deb baholandi. O‘zbekistonning mustaqilligi ma’naviy qadriyatlarni yuksaltirish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Milliy istiqlol g‘oyasi bu qadriyatlarni tiklashni yanada yuqori bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Milliy g‘oyani xalqning e’tiqodiga aylantirishda 2017-yilni “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari” yili deb e’lon qilinishi bilan birga, “Ozod va obod vatanni mard va jasur xalqimiz bilan birga quramiz”¹ “Xalq bizdan rozi bo‘lsin”², “Xalq boy bo‘lsa, davlat boy bo‘ladi”³, degan g‘oyani o‘z kitoblari va ma’ruzalarida ilgari surdi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Jamiyat rivoji va g‘oyaning o‘zaro bog‘liqligining konseptual xarakteri nimada?
2. Milliy g‘oyaning nazariy asoslari, manbalari nimada?
3. Ajdoddlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan qanday konseptual g‘oyalarni bilasiz?

¹Мирзиёев Ш.М. Буон келажамизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз – Тошкент: Ўзбекистон наприёти. 2017 йил.

²Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон наприёти. 2017 йил.

³Мирзиёев Ш.М. Ташқидий таҳлил катъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундузлик коидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон наприёти. 2017 йил.

3-MAVZU: JAMIYAT MAFKURASIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGI

Reja:

1. Milliy g'oya va qadriyatlarning o'zaro aloqadorligi nimada?
2. Milliy g'oyada milliy qadriyatlarning o'rni qanday?
3. Milliy g'oyada umuminsoniy g'oya, qadriyatlarning o'rni nimadan iborat?

Milliy mafkuramiz asosida erishilgan asosiy yutuqlarimizdan biri bu fuqarolarimizning tafakkurida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabatni o'zgarganligidir. Bizga ma'lumki, umuminsoniy qadriyatlар, asosan, milliy qadriyatlар negizida rivojlanadi. Demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni sari taraqqiy etayotgan O'zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlар xalqimizning madaniy - ma'naviy mulki sifatida qadrlanmoqda. Mustaqillik tufayli qisqa davr ichida xalqning azaliy udumlari, an'analarini, muqaddas dini va tili qayta tiklandi.

Bu xususda Prezident Shavkat Mirziyoyev "Biz yurtimizda yangi davlat, yangi jamiyat qurish yo'llida qanday ish qilsak, ularning barchasini xalqimiz bilan bamaslahat qilamiz".⁴

Madaniy va ma'naviy meros o'zaro bir-biridan farq qilsa-da, ularning o'rtasiga o'tib bo'lmas «Xitoy» devorini qo'yish ham mumkin emas, madaniy merosni barpo etishning zamirida ham ma'naviyat, ya'ni insonning ma'naviy-ruhiy bilimlari, qobiliyati, iste'dodi, aqli, empirik va nazariy bilim tajribalari, mehnat malakasi kabi boshqa ma'naviy faoliyatlarini yotadi. Madaniy va ma'naviy meros o'rtasida umumiylilik ham, farqli tomonlar ham mavjud. Ayni paytda ular o'rtasida yuqorida aytilgan aloqadorlik, bog'liqlik, o'zaro munosabat, ta'sir bor. Shuningdek, madaniy meros o'z ko'lami jihatidan ma'naviy meros tushunchasidan kengroq. Madaniy merosda ko'proq umumiylilik ustunlik qilsa, ma'naviy merosda xususiylik ustunlik qiladi. Madaniy meros

⁴ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаронов демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Ташкент: Ўзбекистон напиёти. 2017 йил. – Б.17.

umuman madaniyat yutuqlarini o‘z ichiga qamrab olsa, ma’naviy meros ma’naviy madaniyat yutuqlarini o‘z ichiga qamrab olishi bilan farqlanadi. Madaniy merosning qadri abadulabad tushmaydigan qismiga milliy qadriyat deyiladi. Ma’naviy boyliklar avloddan avlodga, bir tuzumdan ikkinchi tuzumga meros sifatida o’tadi va jamiyat, uning ma’naviy taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviy meros deb uzoq va yaqin o‘tmishdag, hozirgi davrdagi ma’naviy jihatdan g‘oyat qimmatli, o‘chmas iz qoldiradigan, mangu yashaydigan, butun ijtimoiy manfaati va ehtiyojiga, ezgulikka xizmat qiladigan umuminsoniy ma’naviy boyliklarga aytildi. Ma’naviy meros ma’naviy qadriyat sifatida namoyon bo‘lib, unga ilm-fan, jumladan, falsafa, adabiyot, san’at, axloq, diniy va dunyoviy ta’limotlar, hurfikrlik va boshqalar kiradi. Ma’naviy meros zamonlar o‘tishi bilan o‘z qadrini yo‘qotmaydi, balki sifat jihatdan yangicha mazmun va ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy meros kishilar ongiga, ichki dunyosiga, histuyg‘usiga ta’sir etib, ular ongini boyitadi, axloq-odobni ezgulik sari yetaklaydi.

“Vatanimiz azaldan bashariyat tafakkur xazinasiga unutilmas hissa qo‘sib kelgan. Asrlar davomida xalqimizning yuksak ma’naviyat, adolatparvarlik, ma’rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlari Sharq falsafasi va Islom dini ta’limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi va o‘z navbatida falsafiy-axloqiylar ta’limotlar ham xalqimiz dahosidan bahra olib boyib bordi.”⁵

Milliy –ma’naviy qadriyatlarda umuminsoniy mohiyatga ega bo‘lgan jihatlar ham mujassamlashadi. U bir tomonidan, u yoki bu xalq, millatga xos qadriyatlarsifatida namoyon bo‘lsa-da, o‘zi bilan insoniyatga ham dahldor bo‘lgan g‘oya va maqsadlarni olib yuradi. Abu Nasr Al-Farobi, ulug‘ hakim Abu Ali ibn Sino, qomusiy olim Abu Rayhon al-Beruniy, astronomiya fanining yetuk yulduzi Mirzo Ulug‘bek, o‘zbek adabiy tilining asoschisi buyuk shoir Alisher Navoiy, buyuk alloma Ismoil Buxoriy, tasavvuf ilmining allamolari Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband,

⁵ Каримов И.А. Ватан саъдагоҳ каби мұқкадасидир 1 –жылд. Т. “Ўзбекистон” 1996. 7-6.

Mahmud Zamaxshariylar, shuningdek, Ahmad Farg‘oniy, Marg‘inoniylar ta’limoti nafaqat milliy, ayni paytda, umuminsoniy qadriyatlarning gultojisidir. “Umuminsoniy qadriyat-jamiyat va odamzot nasli uchun eng qadrli va umumijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan narsalar, hodisalar sifat, faoliyat va boshqalarning ismini yoki nomini emas, balki ularning ijtimoiy qadrini ifodalash uchun ishlatalidigan falsafiy-aksiologik tushunchadir”⁶. Umuminsoniy qadriyatlar butun jamiyat ahamiyatiga ega bo‘lib, insoniyatning mavjudligi, o‘tmishi, buguni va kelajagini, yashashning asosiy yo‘nalishlari, qonun-qoidalarini, talab va tartiblarini, odamlarning eng azaliy orzu-umidlari va ideallarini o‘zida aks ettiradigan qadriyatlarning umumiyl shakllarini ifodalaydi⁷. Umuminsoniy qadriyatlar tizimida Sharq sivilizatsiyasi o‘ziga xos madaniyat va ma’rifat olib kelganki, o‘ziga xos mafkuraviy immunitet kuchiga ega. Yoshlarimiz mafkuraviy immunitetini mustahkamlash uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘un bo‘lmog‘i kerak. Qadriyatlar har bir xalqning uzoq o‘tmishi davomida turmush tarzi, tafakkur mahsuli sifatida dunyoga kelgan bo‘lib, uning azaliy udumlari, urf-odatlari, an’analarini o‘zida ifoda etadi.

Odamzodning yashashi, umrguzaronligi, amaliy faoliyati, Ona Yer sayyorasi farzandlari haqi eng umumiyl sohalariga tegishli bo‘lgan, umumijamiyat miqyosidagi qadriyatlар bor. Butun jamiyat ahamiyatiga ega bo‘lgan, uning mavjudligi, o‘tmishi, buguni va kelajagini, yashashning asosiy yo‘nalishlari, qonun-qoidalarini, talab va tartiblarini, odamlarning eng azaliy orzu-umidlari va ideallarini o‘zida ifodalaydigan asosiy qadriyatlар shakllarini umuminsoniy qadriyatlар tashkil qiladi. Ular jamiyat a’zolarining hammasi uchun umumiyl ahamiyat kasb etadi, insoniyat hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, kishilarni xatti-harakatlari, amaliy faoliyati, yashash tarzi, boshqalarga munosabati ana shu mezonlarga mos kelishi yoki mos kelmasligiga qarab baholanadi.

⁶ Назаров К. Қадриятла фалсафаси (Аксиология). Т. “Ўзбекистон Файласуфлари Миллий жамият наприёти” 2004. 76-б.

⁷ Назаров К. Қадриятла фалсафаси (Аксиология). Т. “Ўзбекистон Файласуфлари Миллий жамият наприёти” 2004. 78-б.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyadan ko‘zlangan maqsad yoshlar qalbida yurt tinchligini saqlash, tarixiy xotira, egalik hissi, ona Vatanga sadoqat tuyg‘usi va o‘zlikni anglash, shaxs erkinligi, demokratiya, tinchlikni qadrlash, adolatparvarlik tuyg‘usini qaror toptirish. Buning uchun, avvalo, har bir yosh avlod o‘z ajdodlarining yaratib qoldirgan meroslarini o‘zi va butun jamiyat a’zolari uchun buyuk qadriyat ekanligini anglab olishi kerak va unga amal qilishi lozim. Bizning zaminimizda qadim-qadimdan boshlab umuminsoniy qadriyatlarning ma’naviy, ma’rifiy asoslari shakllangan. Milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash orqali yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish mumkin. Oldimizda turgan buyuk maqsadlarga faqat inson ma’naviy, siyosiy, huquqiy olamining muhim omillaridan biri bo‘lgan ma’rifat orqaligina erishamiz. Ma’rifatli yoshlarda fikrga qarshi fikr, turli xil yot, zararli, begona mafkuralarga, ya’ni jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurasha olish immuniteti kuchli bo‘ladi. Islom dinida bilim, ilm, ma’rifat juda qadrlanadi. Hadislardan birida “Beshikdan to qabrgacha ilm izla”, deyilgan. Islom dini ta’limoti, uning insonni yaxshilik va ezgulikka chorlovchi aqidalari allaqachon umumaxloqiy qadriyatlarga aylanib ulgurgan. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMTning 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida, butun xalqaro hamjamiyat diqqatini islom dinining insonparvarlik va ezgulik din ekanligiga qaratganligi xalqaro ekspertlar tomonidan yuqori baholandi. Darhaqiqat, agar jamiyat o‘zligini anglamasa, milliy va umuminsoniy qadriyatlardan bebahra bo‘lsa, ilm-ma’rifatga begona bo‘lsa, milliy urf-odatlar, diniy qadriyatlar toptalsa, bu jamiyat tubanlikka yuz tutadi, oxir-oqibat inqirozga uchraydi. Islom dinining ezgulik va insonparvarlik g‘oyalarni din niqobidagi johillardan himoya qilish, uni umuminsoniyat sivilizatsiyasidagi o‘mini xolis baholash, islom olamidan yetishib chiqqan buyuk muhaddislar, mutasavvuflar ta’limotini o‘rganish borasida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ilg‘or g‘oyalarni mamlakatimizda ma’naviyat rivojining yangi taraqqiyot bosqichini boshladi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Islom dini ta'limotini o'rganish, hadislarni o'zlashtirish, Islom olamining sarvarlari Imom Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso Termizi, Ahmad Yassaviy, Burhoniddin Marg' inoni, Abduxoliq G'ijdivoniylarning hayoti, ijodini, boy ilmiy merosini o'rganish va ularga amal qilish, hech shubhasiz, yoshlarimizning mafkuraviy immunitetini oshirishda va mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan uzviy bog'liq. Shuningdek, milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar negizida shakllanib, o'zgarib va yangilanib boradi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-birini to'ldirish bilan birga demokratik ahamiyat kasb etadi.

Xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti ularni milliy-etnik qadriyatlarining ravnaqi bilan uzviy aloqadorlikda davom etadi. Har bir xalq yoki millat o'ziga xos, rang-barang qadriyatlarni takomillashtirib borishi natijasida umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib, uning turli qirralarini rivojlantirib boradi. Milliy qadriyatlar tabiatiga ko'ra faqat tor doirada saqlanib qolmaydi, balki ravnaq topib, turmush jarayonida muttasil yangilanib, boshqa xalqlar qadriyatlarining yutuqlari bilan boyib boradi. Har bir millatning o'z qadriyatları, madaniyati, tili, an'analari, urf-odatlari, marosimlari va odob normalari bor. Dunyoda aholisi son jihatidan ko'p yoki kamroq xalq bo'lishi mumkin, ammo madaniy va ma'naviy sohada bir-biridan kam yoki ortiq millat yo'q. Ayni paytda, sotqin millat ham, qoralash huquqiga ega bo'lgan millat ham yo'q. Ammo har bir millatning o'ziga xos o'tmishi, madaniy va ma'naviy qadriyatları, milliy qahramonlari, boshqa millat tomonidan tahqirlanishi aslo mumkin bo'lman urf-odatlari, turmush tarzi va qon-qardoshlik belgilari mavjud. Hech qaysi millatning o'zga millat faoliyatini baholovchi bo'lishga hakam haqqi yo'q. Biror bir ta'limot, davlat shakli yoki yashash usulini qabul qila olmaganligi uchun hech qachon u yoki bu millat aybdor emas. Shu ma'noda, umuminsoniylik bir millat qadriyatlarini butun olamga yoyish yo'li bilan emas, balki hamma millat va elatlari qadriyatlarini asrab-avaylash, muqoyasalashtirish, tarix saqlab qoladigan qadriyatlarini hurmat qilish va odamdag'i milliy

rang-baranglikni tabiiy rang-baranglik bilan uzviy adoqada ekanligini anglash yo‘li bilan boyib boradi. Milliy qadriyatlar xilma-xil shakllarda, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo‘lsada, o‘ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qiladi.

"Milliy qadriyatlar" - muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklar, yashayotgan hudud, madaniy-ma’naviy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat ruhi, tarixi, yashash tarzi, milliy umrguzaronlikni tartib-qoidalari hamda ular bilan bog‘liq xususiyatlar, jihatlar va boshqalarning ijtimoiy ahamiyatini ifodalaydigan tushunchadir. U umumijtimoiy qadriyatlar tizimidagi xususiy bo‘g‘in, ya’ni millatga xos bo‘lgan qadriyatlarning eng umumiyligi jihatlarini aks ettiradi.

Bizningcha, milliy qadriyatlar tizimini nisbatan barqaror holatida uning asosiy bo‘g‘inlari millatning quyidagi belgilari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi:

1. Millatning tabiiy betakrorligi, o‘ziga xosligi, tarixiy o‘zgaruvchanligi va ijtimoiy rang-barangligi (demak genofondi);
2. Millatning tarixi, o‘tmish, kelajagi va ma’naviy merosi;
3. Milliy hudud va yashash sharoitlari, iqtisodiy asos, ijtimoiy ustqurma bilan bog‘liq milliy tuyg‘ular, g‘oyalilar, maqsadlar;
4. Urf-odatlar, an'analar, marosimlar, turmush tarzi va boshqalardagi milliylik bilan bog‘liq xususiyatlar;
5. Milliy til, milliy madaniyat va ma’naviyat, milliy ong va milliy ruh.

Ushbu tizim, milliy qadriyatlar umuminsoniy va shaxsiy qadriyatlar o‘rtasidagi aloqa jarayonida o‘ziga xos bog‘lovchi "xalqa", ya’ni umumiyligi qadriyatlar tizimining xususiy tarkibiy qismi sifatida tahlil qilinayotganida maqsadga muvofiq bo‘ladi. U ana shunday tahlil nuqtayi nazaridangina nisbiy barqaror holatida bo‘lishi mumkin.

Milliy qadriyatlar tizimi tahlilida, avvalo, millatning vujudga kelishi, o‘tmishi, buguni va kelajagi bilan bog‘liq tabiiy tarixiy qadriyatlarga e’tibor berish lozim. Har bir millat - o‘zini tashkil qilgan kishilar uchun, avvalo, tabiiy-tarixiy birlik sifatida

qadrlidir, u olamdagi boshqa turli-tuman xalq, elat va millatlarga o'xshamaydigan o'ziga xos, betakror xususiyatlarga ega. Bundan tashqari, har qanday millat tarixiy taraqqiyot va rivojlanish jarayonida yangilanib, o'zgarib boradigan rang-barang qatlamlar, sinflar va boshqalarni dialektik uyg'unligini ifodalaydigan ijtimoiy birlik hamdir.

Umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo'lish shakllari nisbiy xususiyatga ega, ammo bu nisbiylik doimo ham ko'zga tashlanavermaydi, bu nisbiylikni mutlaq xususiyat sifatida tushunish ham butunlay to'g'ri emas. Bunday qilinganida, "olamda faqat nisbiylik hukmron", degan relyativistik qarash ta'siriga tushish mumkin, amaliyotda va ijtimoiy faoliyatda esa umuminsoniy qadriyatlarni xohlagan tarzda talqin qilish, har qanday xatti-harakatni oqlash imkonini tug'iladi. Holbuki, qadriyatlar amaliyotidagi nisbiylik ma'lum bir chegaralarga ega. Bu chegaralar qadriyat ob'ektining o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy holati, tabiiy-tarixiy jihatlari bilan belgilanadi. Bu chegaralarga jamiyatdagi kishilar o'rtasida sodir bo'ladigan munosabatlar, ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan ehtiyojlar, qiziqishlar, intilishlar hayot va umrguzaronlik talablari, tartiblari qonun-qoidalari va boshqalar (sub'ektiv jihat) ham ta'sir qiladi. Bizningcha, umuminsoniy qadriyatlarni namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- butun insoniyatga xos bo'lgan tabiiy-tarixiy jihatlar: inson vujudining tirikligi, sihat-salomatlik, ijtimoiy faoliyatga qobilligi, ongi, bilimi, muomala vositasi;

- jamiyat tarixi, o'tmishi, kelajagi, umrguzaronlikning asosiy talablari, tartiblari, qonun-qoidalari, avloddan avlodga o'tadigan an'analar, urf-odatlar, marosimlar va boshqalar;

- jamiyat a'zolarining eng yuksak orzu-umidlari, ezgu niyatlar, ideallari, g'oyalari, maqsadlari, ehtiyojlar, qiziqishlar, ular bilan bog'liq xatti-harakati, faoliyati, o'zaro munosabatlari;

- madaniyat, ma'naviyat, fan, din, huquq, siyosat, mafkura va ijtimoiy ongning boshqa shakllari bilan bog'liq yutuqlar,

kashfiyotlar, yaratilgan boyliklar, ta'lim-tarbiya va ma'naviy kamolotning yo'nalishlari, usullari, vositalari;

- ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy ma'naviy, milliy, sinfiy, diniy, irqiy betakrorlik va rang-baranglik, ijtimoiy taraqqiyot va tanazzul, rivojlanishning evolyusion va revolyusion yo'nalishlari;

- insoniyat rivojining hozirgi davri bilan bog'liq mintaqalar, ijtimoiy tuzumlar, davlatlar oldida turgan va butun jahon ahamiyatiga molik eng umumiyligi olamshumul muammolar, dolzarb vazifalar; kelajakning istiqbollari,

- sayyoramiz hududlari, davlatlari va ijtimoiy tuzimlaridan qat'iy nazar, hamma uchun umumiyligi foydalanish imkonini beradigan universal texnologiyalar, ishlab chiqarish, boshqarishni taakil qilish, kosmonavtika, EHM, kibernetika va boshqa yo'nalishlardagi umumjahon jamiyatiga ega bo'lgan jarayonlar.

Umuminsoniy qadriyatlarni har qanday namoyon bo'lish shakli o'ziga xos ahamiyatga ega. Ularni ahamiyati tasodifiy emas, balki ob'ektiv va sub'ektiv jihatlar o'rtasidagi doimiy ravishda amalga oshadigan aloqalarning zaruriyligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlar doimiy o'zgarishda, ya'ni uni shakllari, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelikning dialektikasi tarzida o'z ahamiyatini, turli jihatlarini namoyon qilib boradi, biri ikkinchisiga ta'sir qiladi, rivojlanadi va takomillashadi.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor vazifasi sifatida qaralib kelinmoqda. Buyuk davlat arbobi Islom Karimov tomonidan boshlab berilgan ushbu vazifa Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi bilan yanada yuqori bosqichga ko'tarildi. Tobora globallashib borayotgan, "mafkuraviy poligonlar yadro poligonlaridan ko'ra xavfli" bo'lgan hozirgi davrda yoshlarni ma'naviy barkamollikka erishishining samarali usullarini yaratish yanada dolzarb masalaga aylanib bormoqda. I.Karimov ta'kidlaganidek: "Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa

qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvosiq bo'ladi"⁸. Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda xizmat qiladigan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizning quyidagi turlari ilgari surilgan: *Tarixiy meros., Xalq og'zaki ijodi, adabiyot, san'at, urf-odatlar va an'analar.*

Yoshlar ma'naviy barkamolligida milliy urf-odat va an'analarining roli, ayniqsa, kattadir. Milliy urf-odatlar hayotimizning har bir sohasiga singib ketgan bo'lib, bu urf-odatlar bizni aynan qaysi xalq vakili ekanligimizni ko'rsatuvchi izoh, ya'ni bizning kim ekanligimizni isbotlovchi dalil hisoblanadi. Chunki ma'naviy barkamol yoshlarni o'ziga xos bo'lgan milliy urf-odatlar xayr-saxovat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, ornomus, sharm – hayo, iffat, bosiqlik, ulug'vorlik, sabrlilik kabi ma'naviy fazilatlar, mehmondo'stlik, bag'rikenglik, bolajonlilik, oqko'ngillik, mehnatkashlik kabi milliy qadriyatlar ayni urf-odat, an'analar qaror topadi. Shunday ekan, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatning o'ziga hurmat bilan qarashning asosiy belgisidir. Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma'naviy boyliklar bilan qo'shilib, taraqqiyotimizni tezlatadi, g'oyaviy va ma'naviy poklanishni ta'minlashga ko'maklashadi. Qadriyatlarning barcha turlari insonning, ayniqsa, yoshlarning farovon hayot kechirishi, erkin yashashi, ma'naviy-axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalar bo'lib hisoblanadi.

Mustaqil O'zbekistonimiz kelajagiga g'oyaviy asos bo'ladigan milliy mafkura orqali yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida ma'naviyatlari qilib tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Jamiyatimizning har tomonlama rivojlanishi va amalga oshirilayotgan islohotlarning

⁸ Каримов И Юксак маънавият сиғилмас куч –Т.: Машнавият. 2008. – Б. 29.

muvaffaqiyati yosh avlodning g‘oyaviy -mafkuraviy tarbiyasiga, ular origida mustaqillik va ma’naviyat tushunchalarining qaror topishiga bog‘liqdir. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish mamlakatimizni demokratlashtirish, modernizatsiya va islchotlarni amalga oshirishda ijtimoiy totuvlik, hamjihatlik, hamkorlikning mustahkam hamda barqaror bo‘lishini ta’minlashda, shuningdek, milliy qadriyatlarimiz va madaniy merosimiz targ‘iboti va tashviqotida muhim o‘rin tutadi.

Shu nuqtayi nazardan yondashganda huquqiy-demokratik davlat, fuqarolik jamiyatni poydevori mustahkamlanayotgan bugungi sharoitda yoshlarda ma’naviy yuksalishni ta’minlashdagi ustuvor vazifalardan biri yoshlarni milliy g‘oya atrofida birlashtiruvchi, ma’naviy tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish muhim ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlarni turmush tarzimizga singdirishda davlatchilik an’analaramizni tiklash, xalqimizning istiqbol to‘g‘risidagi asriy orzularini ro‘yobga chiqarish yordam beradi va bu borada xalqni xalq, millatni millat sifatida birlashtiradi. O‘z qadriyatlarini va qadrini bilgan xalq olomonga aylanmaydi, buyuk ishlarga qodir ekanini his qiladi, istiqlolini omon saqlaydi, farzandlarining kamoloti uchun qayg‘uradi. Aynan shuning uchun ham milliy qadriyatlar jamiyatni yangilanishiga xizmat qiluvchi ma’naviy omil hisoblanadi. Milliy qadriyatlarga sodiqlik – milliy g‘oyaning tayanchidir. Mustaqillikka sadoqat hissini barchada barobar shakllantirish, fuqarolik tuyg‘usini mustahkamlash, tarixiy qadriyatlarimizni e’zozlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat va ularni boyitish ko‘nikmalarini shakllantirish: tarbiya, madaniyat, ma’rifat o‘choqlari diqqat markazida turgani ijobjiy holdir. Jamiyatimizning asosiy maqsadi ham Vatanga, xalqiga, millatiga fidokor mustaqil fikrlaydigan, har bir masalani ongli ravishda mas’uliyat bilan hal qiladigan, izlanuvchan ma’naviyatli barkamol farzandlar o‘stirish, ularni jismoniy ham ma’naviy-axloqiy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash va bilimli, ma’rifatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iborat. Umuminsoniy qadriyatlar

jamiyatning ma'naviy hayoti, axloqi, huquq, din, madaniyat, nafosat, san'at, ilm-fan sohalari bilan bog'liqlikda ham namoyon bo'ladi. Ular bu sohalar uchun umumiylar mazmun, turli o'zgarishlardagi umumiylar talab vazifasini o'taydi. Bu borada ular o'z tabiatiga ko'ra amaliy faoliyatining haqiqiy maqsadlarini ifodalaydi, muayyan ahamiyatga ega bo'ladi, kerakli axborot beradi, jamiyat qoidalaridan ijodiy foydalanish, kundalik xattiharakatlarni ma'naviy assoslarini to'g'ri belgilash imkonini yaratadi. Axloqda -yaxshilik, burch, vijdon, hayot ma'nosi, siyosat, huquq va mafkurada-tenglik, odillik, mustaqillik, demokratiya erkinlik; nafosatda-go'zallik, ulug'vorlik; madaniyat, san'at va fanda jamiyat ahamiyatiga molik bo'lgan yutuqlar, kashfiyat, qonun-qoidalar va boshqalar ham kundalik hayotda qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan. Bundan tashqari, jamiyat a'zolari uchun umumiylar bo'lgan talablar: o'z qavmi bo'lgan odamzod joniga qasd qilmaslik, tanini sog'-salomat va ozoda saqlash, xushxulqlik va boshqa o'nlab insoniy jihat va xususiyatlar ham umuminsoniyatga xos bo'lgan ma'naviylikning asosiy bo'g'inlaridir.

Umuminsoniy qadriyatlar, ayniqsa, siyosat, huquq va mafkura bilan bog'liq sohalarda o'ziga xos namoyon bo'ladi, bunda mustaqillik, adolat, odillik, tenglik kabi ideal qadriyatlar, ularga erishish borasidagi jarayonlar ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlarda umuminsoniylikka mos kelmaydigan yo'llardan borishning noto'g'ri ekanligini ijtimoiy tajriba azal-azaldan isbotlamoqda. Masalan, ijtimoiy tenglikka erishish, uni barqaror qilish-insoniyatning azaliy orzusi. Ammo uni faqat ayrim sinflar, partiyalar yoki millat qadriyatlariga bog'liq, deb o'ylash amaliyot tomonidan rad qilinmoqda. Bu borada ham inson umrining mazmuni, har kimning yashash huquqi bor ekanligi kabi haqiqatlar amaliyotning asosini belgilaydi.

Umuminsoniy qariyatlardan biri bo'lgan insonni yashash va umr kechirish huquqini tabiiyligi va muqaddasligini to'la-to'kis e'tirof qilish insoniyatning azaliy orzusidir. Xalq og'zaki ijodida ham, qadimgi va zamonaviy dinlarda ham, ko'pgina davlatlarni

Asosiy qonunlarida (Konstitusiyalarda) va boshqa hujjatlarda ham buni yaqqol kuzatish mumkin. Buyuk fransuz revolyusiyasi. (1789-yilda) qabul qilgan "Inson va grajdalar huquqlari Deklaratsiyasi"da ham, 1949-yilning 10-dekabrida BMT Bosh Assambleyasi tasdiqlagan "Inson huquklari Deklaratsiyasi"da ham kishilarning tabiiy-tarixiy haq-huquqlari jamiyatdagi eng asosiy umuminsoniy qadriyatlar ekanligi alohida ta'kidlanganligi beziz emas.

"Fuqarolik jamiyat" – insoniyat taraqqiyotining yuqori bosqichi, kishilarning yuksak siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslanadigan, inson huquqlarining oliy darajada rivojlanganligini taqozo etadigan demokratik taraqqiyot doirasida iqtisodiyot, siyosat, madaniyat sohalaridagi munosabatlar majmuyini anglatadigan tushunchadir. Bunday jamiyat erkin uyushmalarning ko'pqirrali aloqasi bo'lib, davlat qonunlarini hurmat qilish va bajarish, jamiyat tarkibiga kiruvchi elementlarning nisbiy mustaqilligiga asoslanuvchi, turli ziddiyat va ixtiloflarni qonun doirasida o'zaro kelishiuv, sabr-toqat va muzokaralar orqali hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir. Fuqarolik jamiyati mulk shakllarining xilma-xilligi va tengligi, mehnat qilish va tadbirdorlik erkinligi, siyosiy-mafkuraviy fikrlar xilma-xilligi va axborot erkinligi, inson huquq va erkinliklarining dahlsizligi, rivojlangan o'zini o'zi boshqarish organlarining, ma'rifatli huquqiy xokimiyatning, jamiyat hayotining barcha sohalarida qonun ustuvorligi ta'minlanishining mavjudligi kabi asosiy belgilarni o'z ichiga olaadi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyatining asosiy xususiyatlari hayotning ajralmas mustahkam zamini - iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy birligida o'z ifodasini topadi.

Bugungi kunda, mamlakatimizdag'i ulkan huquqiy o'zgarishlar, huquqiy isloho'lardagi yutuqlarni qayd etgan holda, huquqiy tizimni takomillashtirishning keyingi istiqbollarini belgilash hamda uning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash g'oyat muhim masalalardan sanaladi. Fuqarolik jamiyati umuminsoniy tarjovillar, milliy davlatchilik xususiyatlari,

o'ziga xos turmush tarzi va hayot falsafasi negizida qaror topadi. O'zbekiston milliy mustaqilligining dastlabki yillaridanoq yurtimizda fuqarolik jamiyatni asoslarini barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Biz uchun fuqarolik jamiyatni ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insонning o'z-o'zini kamol toptirishga yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Fuqarolik jamiyatida davlatning qator vazifalari fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari qo'liga o'ta boshlaydi, mahalliy hokimiyat organlarining vakolati kengayadi. Fuqarolik jamiyatni asoslarni barpo etish kishilarning yuksak siyosiy va huquqiy madaniyati, ijtimoiy-siyosiy faolligiga tayanadi.

So'nggi yillarda bir qancha mamlakatlarda fuqarolik jamiyatni asoslarini kompleks konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida mustahkamlash jarayonlari kuzatilmogda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham fuqarolik jamiyatining poydevorini mustahkamlash qat'iy va o'zgarmas bosh strategik maqsad sifatida belgilab qo'yilgan. Bu o'z navbatida mamlakatimizni rivojlangan davlatlarda mavjud bo'lgan demokratik hayot darajasiga erishishi, yurtimiz tinchligi, Vatani ravnaqi, xalq farovonligini ta'minlaydi. Davlat, jamiyat va ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar amaliyotining uyg'unligini ta'minlash mamlakatimizni barqaror rivojlanishi, aholi ongingin yanada takomillashuvi, zamonaviy tafakkur shakllanishi uchun asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu yo'lda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida «**Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyatni sari**» g'oyasi asosida ko'plab ijobiy natijalarga erishilmoqda. Konstitusiyamizda siyosiy partiyalar, fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy prinsiplarning mustahkamlab qo'yilgani barcha aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan bunday tashkilotlar keng tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor

yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalarda, jumladan:

- Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish:

- Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish:

- Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta‘minlash:

- Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash kabi ustuvor vazifalar kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, unga xos institutlar faoliyati samarasini oshirishda O‘zbekiston o‘zining qat’iy pozitsiyasiga egadir. Bugungi kunda turli sohalarda faoliyat olib borayotgan **fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari** amalda yoshlar, sog‘liqni saqlash, keksalar, ayollar, onalar va bolalar, qishloq xo‘jaligi, fuqarolarning o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, Vatanimiz obodligini ta‘minlash, demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish va boshqa ko‘plab masalalarda jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta‘minlashga ko‘maklashmoqda. Mamlakatda fuqarolik jamiyatni qurish O‘zbekiston davlatining asosiy strategik pirovard maqsadlaridan biri sifatida amalga oshirilmoqda. Islohotlar bilan uzviy bog‘liqlikda nodavlat tashkilotlarni ijtimoiy qatlamlar, guruuhlar manfaatlari hamda irodalarini ifodalovchi tashkilotlar darajasiga ko‘tarish, jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini muvofiqlashtirish, jamiyatning doimiy barqaror bo‘lishiga zamin yaratish, shuningdek, fuqarolarning jamiyat va davlat organlarini boshqarishdagi ishtirokining kengayishi uchun qulay shart-sharoitlar hozirlandi. 2008-yilning iyul oyida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi har ikki palatasi kengashlarining «Nodavlat-notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa

institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qo'shma Qarori qabul qilindi. Bu hujjat nodavlat-notijorat tashkilotlarning, fuqarolik jamiyati institutlarining mustaqil rivojlanishini bosqichma-bosqich ta'minlash, mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida ularning roli va ahamiyatini kuchaytirish yo'lida yana bir muhim qadam bo'ldi.

Darhaqiqat, yurtimizda nodavlat-notijorat tashkilotlari kuchli fuqarolik jamiyati qurishda, aholi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda muhim o'rinni tutmoqda.

Bugungi kunda yoshlar siyosiy e'tiqodini mustahkamlash, siyosiy madaniyatini shakllantirish, bir so'z bilan aytganda, yetuk, barkamol, komil insonni tarbiyalash zarur bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, yosh avlodni chuqur bilimli, zukko, teran fikrli qolaversa, o'z o'tmishi durdonaridan va urf – odat an'analaridan xabardor, vatanparvar, xalqparvar, fidoyi qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Bugungi kunda komil inson shaxsini tarbiyalash esa eng murakkab va qiyin jarayondir. Zero, milliy istiqlol mafkurasi ham ana shu milliy qadriyatlarimizga asoslanib yaratilgani bejiz emas.

Sharq azaliy shukuhini saqlab qolish – bu milliy merosimizni avlodlar ongiga singdirish bilan bevosita bog'liq jarayondir. Ayniqsa, Sharq falsafasida yosh avlodni odob-axloqi, ta'limtarbiyasida milliy qadriyatlar va an'analar ruhida tarbiyalash muhim o'rinni tutgan. Chunki yetuk ma'naviyat va yuksak insoniy fazilatlar mujassamlashgan yoshlar istiqlol tayanchidir. Milliy g'oyaning eng muhim asoslaridir va milliy vatanparvarlik ruhi qanchalik baland bo'lsa, bu qadriyatlar shunchalik shuurimizga singib boradi, oqibatda, qadriyatlar bizning o'zligimiz, shaxs sifatidagi namoyon bo'lishimizning belgisiga aylanadi.

Yoshlarning milliy qadriyatlarga munosabati, milliy g'oya asosida erkin hayot, obod va ozod Vatan qurish yo'lidiagi harakatlari, maqsad va manfaatlarini umumlashtiradigan, tahlil etadigan, shu g'oyalarni boyitish va ishonch, e'tiqodga aylantirish bilan bog'liqdir. Shaxsning o'zligini anglashi, mustahkam e'tiqodiga va fikriga ega bo'lishi, o'z milliy qadriyatlariga sadoqat

ruhida tarbiyalanishi boshqalarni ham hurmat qilishga, butun insoniyat istiqboli oldida axloqiy mas'uliyatni his qilishga yordam beradi.

Milliy xalqning madaniy-ma'naviy kamoloti hamma ijtimoiy guruh, avlod, toifalarini, tabaqa va partiyalarini manfaatini ko'zda tutadi. Uning maqsadi har bir shaxsga g'oyaviy ta'sir ko'rsatish, inson qadr-qimmati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan. Jamiyatimizni yuksak intellektual va axloqiy qadriyatlarni asosida yangilashda madaniyat yutuqlaridan foydalanish va ularni yangi dalillar bilan boyitish hozirgi kundagi muhim vazifadir. Bu o'z navbatida, kishilarni ijtimoiy taraqqiyot qonunlaridan voqif etadi, shu asosda birdamlik, hamjihatlikni mustahkamlaydi, ijodiy faoliyikni oshiradi. Umuminsoniy madaniyatga va ma'naviyatga xos bilimlar xalqaro voqealarni tushunishga asos bo'libgina qolmasdan, kishilarda hozirgi talablarni to'g'ri tushunish va bu borada ongli, faol harakat qilish tuyg'usini ham uyg'otishga xizmat qiladi. Hozirgi sharoitda madaniy, ma'naviy, mafkuraviy va siyosiy vazifalar doirasi ancha kengaymoqda. Nazariy faoliyat, targ'ibot va tashviqotni har tomonlama kuchaytirishga alohida ahamiyat berish zaruriyatga aylanmoqda. Ma'naviy turmushni yuksaltirishga ijodiy yondoshish va pok ma'naviy muhitni vujudga keltirish borasidagi vazifalarni bajarish salmog'i yanada ortib bormoqda.

Hozirgi kunda barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, ikki-uch tilda bemalol gaplasha oladigan ming-minglab o'quvchilar va talabalar, katta hayotga kirib kelayotgan, o'z iste'dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlar misolida ma'naviyatning yuksalishini kuzatish mumkin va tabiiyki, bunday sharoitda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish omillari ham davrga muvofiqlashib boradi. Bu jarayon keng ma'noda o'quv muassasalari, ta'lim-tarbiya maskanlari, klublar, axborot-resurs markazlari, madaniyat va istirohat bog'lar faoliyatini qamrab oladi. Bunda muzey, kinoteatr, teatr va boshqa

madaniy-ma'rifiy muassasalar, shuningdek, OAV (gazeta, jurnallar, Internet, radio, TV) muhim o'rin tutadi. Inson dunyoqarashini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy tarbiya, g'oyalar targ'iboti, iqtisodiy bilimlarning ilmiy-texnikaviy targ'ibot-tashviqoti, estetik va jismoniy tarbiya, badiiy havaskorlik, madaniy dam olishni tashkil etish, yosh iste'dodlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mazkur jarayonning turli yo'nalishlaridir.

Ezgulik va mehr-oqibat, ulug'verlik va go'zallik, vijdoniylik va mehr-shafqat, boshqalarga hurmat hamda tabiat bilan uyg'unlikni saqlash kabi ma'naviy xislatlar har bir kishiga astasekin, tadrijiy ravishda singdirib boriladi. Bu jarayonda o'quv va klub muassasalarida an'anaviy shakllar (suhbat, muloqot, ma'ruza, spektakl, konsertlar, she'rxonlik) bilan birga mavzuli kechalar, kitobxonlar konferensiyalari va boshqa tadbirlar yushtiriladi.

Yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy sharoitni yanada yaxshilash, ming yillar mobaynida uning bag'rida sayqallanib kelayotgan ibratli an'ana va qadriyatlarni targ'ib-tashviq etish borasida ko'plab tadbirlar tashkil etilmoqda. Shu mavzuda ilmiy-ommabop, publitsistik asarlar, hujjatli filmlar va teleko'rsatuvlar yaratilib, turli ko'rgazmalar tashkil qilinmoqda. Bu sohadagi faoliyatning yo'nalishi har bir kishi ongi va qalbiga milliy g'oyani singdirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish, ezgulik, bag'rikenglik, insonparvarlik, mehr-oqibat, imon-e'tiqodni tarbiyalashga, ma'naviy qadriyatlarning milliy-etnik asoslari va zamonaviylikni uyg'unlashtirishga qaratilgan. Ma'naviy kamolot va uning g'oyaviy asoslari xususida gap yuritganimizda, yuksak vatanparvarlik tuyg'usi har bir madaniyatli kishi uchun zaruriy fazilat ekanligini, bu tuyg'uni shakllantirish zaruriyati doimiyligini alohida ta'kidlash lozim. Har bir kishi qalbida Ona Vatanga, o'zi tug'ilib o'sgan zaminga mehr-muhabbat bo'lishi, mamlakatimiz tarixi, o'tmish yutuqlaridan faxlanish tuyg'usi qaror topishi va bu tuyg'ular qardosh xalqlar, birodar millatlar va boshqa mamlakatlarning mehnatkashlari, yer yuzida taraqqiyot,

tinchlik-omonlik uchun harakat qilayotgan barcha kishilar bilan birdamlik tuyg'usi bilan uyg'unlashib ketishiga erishish bu boradagi eng asosiy tamoyildir.

Milliy qadriyatlar milliy g'oyaning muhim negizi hisoblanadi va milliy g'oyaning rivojida, jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Umuminsoniy qadriyatlar esa milliy g'oyaning ikkinchi muhim asosi hisoblanadi. Milliy g'oya milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligida namoyon bo'ladi. Milliy g'oya rivojida bu o'ziga xos umumiy qonuniyatdir.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadriyat tushunchasiga ta'rif bering va mazmun-mohiyatini klaster usulida tahlil qiling.
2. Milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlarning asosi va uning o'zaro aloqadorligini asoslang.
3. Milliy g'oya rivoji va istiqbolini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga bog'liqligini tushuntiring.

4-MAVZU: G‘OYALAR XILMA-XILLIGI VA MAFKURAVIY JARAYONLARNING IJTIMOIY TARAQQIYOTGA TA’SIRI

Reja:

- 1.“G‘oya” va “G‘oyalar xilma-xilligi” tushunchasining mazmun-mohiyati.
- 2.Mafkuralar xilma xilligi va ijtimoiy taraqqiyot.
- 3.Mafkuraviy jarayonlarning ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri.

G‘oya inson va jamiyat taraqqiyotida asosiy o‘rin tutadi. Inson va jamiyat hayotida muhim o‘zgarishlarni amalga oshirilishida muayyan g‘oyalar ta’sir qiladi. Jamiyat taraqqiyotining ma’lum davrlarda tezlashuvi yoki sekinlashuvi, jamiyat hayotida ijobiy yoki salbiy holatlarning ro‘y berishi, qanday g‘oyalar hukmronlik qilishi va u qanday kuchlar tomonidan, qanday sharoitlarda, kimlarning manfaatlariga xizmat qilishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

G‘oya tushunchasining mohiyati nimadan iborat?

Inson o‘zining aql – zakovati, iyomon-e’tiqodi va ijodiy mehnati bilan boshqa barcha tirik jonzotlardan farq qiladi.

Inson tafakkuri voqelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g‘oyalar va ta’limotlar yaratadi. Demak, birinchidan, g‘oya inson tafakkurining mahsulidir.

Ikkinchidan, g‘oya oldin mavjud bo‘lmagan o‘zida yangilikni tashuvchi fikrdir.

Uchinchidan, oldin g‘oya paydo bo‘ladi, undan keyin g‘oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo‘ladi.

- g‘oyalarning mazmuni, shakllanishi, ahamiyati to‘g‘risidagi bilimlarni ifodalaydi va ilmiy soha bo‘lib hisoblanadi;

- muayyan g‘oyani amalga oshirish, maqsadga yetish usullari, vositalari, omillari tizimini anglatadi.

Sog‘lom va nosog‘lom, ezgu hamda yovuz bunyodkor yoki buzg‘unchi g‘oyalar bo‘lishi mumkin. G‘oyalarning oddiy

fikrlardan farqi yana shundaki, bular garchi tafakkurda paydo bo'lsa-da, keng jamoatchilikning maqsadlarini ifoda etadi. Ularning ishonchi va e'tiqodiga aylanib, e'tirof etilganligini bildiradi, inson (va jamiyat) ruhiyatiga, hatto, tub qatlamlariga ham singib boradi. G'oya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki dunyosigacha kirib borib, uni harakatga keltiruvchi, maqsad sari yetaklovchi ruhiy-aqliy kuchga aylanadi. Ularni muayyan maqsadga yo'naltiradi, safarbar etadi. Ularni jipslashtiradi, hamjihat va hamkorlikka undaydi.

G'oyaning ijtimoiy mohiyati. Har qanday g'oya ijtimoiy xarakterga ega. Muayyan g'oyalar, odatda, alohida olingen shaxs ongida shakllanadi. Ma'lum bir muddatdan keyin esa jamiyatning turli qatlamlariga tarqaladi, turli elatlar va millatlar orasida yoyiladi. Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud g'oyalar ta'sirida tarbiyalanadi. Muayyan qarashlar va g'oyalarni o'z e'tiqodiga singdiradi, o'z navbatida, yangi g'oyalarni yaratadi va targ'ib qiladi.

G'oyaning eng muhim xususiyati – insonni va jamiyatni maqsad sari yetaklaydigan, ularni harakatga ketiradigan, safarbar etadigan kuch ekanidadir.

Inson tafakkurining mahsuli sifatida g'oya milliy-madaniy merosni, umuminsoniy qadriyatlarni, ijtimoiy-ma'naviy hayotni, tevarak olamni o'rganish, bilish jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari ilm-fan, falsafa, din, san'at va badiiy adabiyot, axloq, siyosat va huquq – muayyan bir g'oyalarni yaratadi, ularga tayanadi va ularni rivojlantiradi. Mazmuni va namoyon bo'lish shakliga qarab, g'oyalarni bir qancha turlarga ajratish mumkin:

Ilmiy g'oyalar, falsafiy g'oyalar, diniy g'oyalar, badiiy g'oyalar, ijtimoiy-siyosiy g'oyalar, milliy g'oyalar, umuminsoniy g'oyalar v.h.

1. *Ilmiy g'oyalar* – fan taraqqiyotining samarasi, ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo'ladigan, turli fan sohalarining asosiy tamoyillari ustuvor qoidalarini tashkil qiladigan ilmiy fikrlardir.

Fan taraqqiyoti uzluksiz va cheksizdir. Bu jarayonda seminarotda tasdiqlanmagan, eskirgan qarashlar yangi ilmiy g'oyalar bilan o'rinn almashevaveradi.

2. *Falsafiy g'oyalar* har bir falsafiy ta'limotning asosini tashkil etadigan, olam va odam to'g'risidagi eng umumiyl tushuncha va qarashlardir. Ular bizni o'rab turgan dunyoni bilish jarayonida kishilik jamiyatining taraqqiyoti mobaynida to'plagan bilimlarni umumlashtirish, inson hayotining ma'no-mazmuni, uning baxt-saodati kabi masalalar ustida mulohaza yuritish asosida shakllanadi¹.

Insoniyat tarixida turli xalqlarning aql-zakovat sohiblari, dono faylasuf va ilohiyotchilari turfa xil g'oyalar yaratganlar.

3. *Diniy g'oyalar* deb, har bir diniy ta'limot va oqimning asosini diniy iymon-ye'tiqodning negizini tashkil etuvchi aqidalarga aytildi. Ibtidoiy dinlar har bir narsaning jorli ekani, jonning abadiyligi, but va sanamlarning, tabiiy jism va hodisalarning ilohiy quvvatga egaligi to'g'risidagi qarashlarga asoslangan edi. Masalan, hindlarning diniy tasavvurlariga ko'ra jon ko'chib yuradi, bu hayotda u insonda bo'lsa, keyingi hayotda boshqa jonzotga o'tishi mumkin. Ilohlarning ko'pligi haqidagi fikrga tayanadigan politeizm dinlari vaqt kelib monoteistik – yakkaxudolik g'oyasi asosidagi dinlarga o'z o'rnini bo'shatib bergen.

Yakkaxudolik g'oyasi milliy dinlarda (masalan, iudaizmدا), ayniqsa, jahon dinlari – xristianlik va islomda o'z ifodasini yaqqol topgan. Xususan, islom dinida Allohning yagonaligi g'oyasi asosida uning barcha aqidalari, ruknlari, talab va majburiyatlar shakllangan.

4. *Badiiy g'oyalar* – adabiyot va san'at asarining asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadigan, undan ko'zlangan maqsadga xizmat qiladigan yetakchi fikrlardir. Ular hayotdan olinadi, badiiy talqinlar asosida bayon etiladi, o'quvchida muayyan taassurot uyg'otadi. «Qahramon»larni sevish, ularga ergashish hollari ham shu asosda ro'y beradi.

¹ Миллий истиқбол гоёси: асосий тушунча ва тамойиллар. -Т.: «Янги аср авлоди». 2001. 27-29 6.

5. *Ijtimoiy - siyosiy g'oyalar* har bir xalq va umuman bashariyatning orzu-umidlarini, maqsad-muddaolarini ifodalaydi, erkin hayot va adolatli tuzumni tarannum etadi.

Milliy g'oya – inson va jamiyat hayotiga ma’no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar, g'oyalar majmuidir. *Ozodlik va mustaqillik, adolat va haqiqat, tinchliksevarlik va insonparvarlik g'oyalari shular* jumlasidandir. Asrlar mobaynida bunday buyuk, o’lmas g'oyalar xalqlarga kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlab, ularni o‘z erki uchun kurashga safarbar etib kelgan.

Islom Karimov ta’kidlaganidek, millat taraqqiyotiga, uning yuksalishiga xizmat qiladigan, xalqlarni jipslashtirib, oliy maqsadlarga safarbar etadigan g'oyalar yuksak g'oyalardir. Odamlar orasida nifoq, xalqlar o‘rtasiga nizo soladigan, kishilarni turli taraflarga ajratib, adovat qo‘zg‘aydigan tuban fikrlar buzg‘unchi g'oyalarga misol bo‘ladi. Aslida bunday qabih niyat va soxta shiorlarni g'oya deb atash ham shartlidir. Qaysi ijtimoiy birlik yoki qatlam orasida tarqalgan, qanday aholi guruhlari yoki elat-millatlarni harakatga keltirayotganiga qarab ham g'oyalarni turlarga ajratish mumkin.

G'oyani moddiylashtiruvchi, seminarotga aylantiruvchi kuch kim ekaniga qarab, sinfiy g'oya, milliy g'oya, umumxalq g'oyasi, umuminsoniy g'oyalar ham mavjud bo‘lishi mumkin. Albatta, muayyan bir xalq ommasini ma'lum bir tarixiy sharoitda ezgu harakatga undaydigan g'oya mazmunan umuminsoniy bo‘lishi ham yoki tor manfaatlarni ko‘zlaydigan sinfiy g'oya jamiyat va inson manfaatlariga zid, tajovuzkor bo‘lishi ham mumkin.

Ezgu g'oya – inson tafakkurida vujudga keladigan, muayyan fikrlarning ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan, ruhiyatga kuchli ta’sir o’tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga keltiradigan, ularni bunyodkor maqsad-muddao sari yetaklaydigan ulug‘vor fikrlardir.

G'oyalar – inson tafakkuri mahsuli sifatida ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi, inson va jamiyatni muayyan harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikrlardir. Ammo har qanday fikr va

qarash ham g‘oya bo‘la olmaydi. G‘oyalar garchi tafakkurda paydo bo‘lsa-da, inson va jamiyat ruhiyatiga, odamning ichki dunyosigacha kirib borib, uni harakatga keltiruvchi maqsad sari yetaklovchi ruhiy-aqliy kuchga ega bo‘lgan ijtimoiy hodisadir.

G‘oyalar qaysi tarixiy davrlarda qanday xususiyat, qanday tarkibga bo‘linishidan qat’iy nazar, ularning maqsadida ijtimoiy faoliyat mavjud bo‘lib, ular kishilarni yetaklovchi, safarbar etuvchi xarakterga ega.

G‘oya va mafkuralarning tarixiy shakllarini, mazmun-mohiyatini, azal-azaldan ezgulik va yovuzlik, bунyodkorlik va vayronkorlik o‘rtasidagi kurash dialektikasi belgilab keladi. Ya’ni bosqinchilik, boshqalar hisobidan boyish, tajovuzkorlik, aqidaparastlik mafkuralariga qarama-qarshi o‘laroq, ozodlik, mustaqillik va adolat g‘oyalari uzlucksiz maydonga chiqib, xalqlarning muzaffar bayrog‘iga aylangan.

2. Hozirgi davr – dunyoda g‘oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo‘lib borayotgan davrdir.

Insoniyat tarixi ko‘plab mafkura shakllarining tarix sahniga chiqishiga guvoh bo‘lgan. Bugungi kunda ham uning turli turli ko‘rinishlari mavjud. Masalan, sub’ektiga ko‘ra, ya’ni qanday ijtimoiy kuchlar manfaatini ifoda etishiga ko‘ra sinfiy mafkuraning turli shakllari farqlanadi. Chunonchi, ishchilar, dehqonlar, tadbirkorlar, ziyyolilar kabi ijtimoiy qatlamlarning bir-biridan farq qiluvchi ehtiyoj va manfaatlari, maqsad va muddaolarining muayyan g‘oyalari tizimida in’ikos etishi tabiiy. Tarix bunday mafkuralarning ko‘plab marta siyosat sahniga chiqqanidan dalolat beradi. Afsuski, bunday mafkuralar o‘ziga xos manfaatlarni mutlaqlashtirishga asoslanganda jamiyatda nizo va ziddiyatlar kuchayishiga zamin yaratgan. Mafkura shakllari haqida gap ketar ekan, ularda ilgari surilayotgan g‘oyalari, maqsadlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligiga qarab ilmiy va noilmay, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy yoki salbiy ta’sir qilishidan kelib chiqib esa, progressiv va reaksiyon mafkuralar farqlanadi.

Mafkuralarda ko‘zlangan maqsadlarning ro‘yobga chiqishining ehtimollik darajasiga tayanib ularning real va xayoliy (utopik), jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlar, turmush tarzini saqlab qolish yoki uni isloh qilishga yo‘naltirilganiga qarab esa konservativ va liberal ko‘rinishlari ajratiladi.

Mafkuraviy jarayonlarning mohiyati. Eng umumiylar ma’noda “mafkuraviy jarayon” tushunchasi muayyan g‘oyaviy qarashlar tizimining shakllanishi, rivojlanishi va tarqalishi bilan bog‘liq bosqichlarning uzviy birligini ifodalaydi. Mafkura tizimidagi bilimlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri, progressiv yoki reaksiyon xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Mazkur bilimlarning xarakteri o‘z navbatida, ular asosida shakllanadigan baholarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligiga zamin yaratadi. Shakllanadigan baholarda esa real yoki kutilayotgan hodisa, jarayonlarga mavjud ehtiyojlar, manfaatlardan kelib chiqib o‘ziga xos munosabat ifodalanadi.

Mafkuraviy jarayonlarda maqsadlarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi. G‘oyaviy qarashlar doirasida belgilab olingan maqsadlarni bayon etishda istiqbolga, ertangi kunga ishonch tuyg‘usini shakllantirish ham ko‘zlanadi. Albatta, bunday ishonch o‘z mohiyatiga ko‘ra sarob bo‘lishi ham mumkin. Ammo u chuqur ilmiy asos va gumanistik mohiyatga ega bo‘lgan hamda jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari bilan hamohanglik kasb etganda kishilar xulqi va faoliyatining muhim reguliyatori bo‘lib xizmat qiladi. Zero, bunday paytda ishonch kishilar qarashlaridagi barqarorlikni belgilovchi xalqa sifatida chiqadi. Ayni paytda, mavjud yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklardan cho‘chimaslikka, ularga qarshi tura olish va bartaraf etishning oqilona yo‘llarini izlashga xizmat qiladi va shu tufayli xulqdagi sobitlik, izchillik va amaliyotdagi faollikni ta’minlashga yo‘l ochadi.

“Mafkuraviy kurash” tushunchasi. Ko‘pgina tushunchalar kabi “mafkuraviy kurash” tushunchasi ham serqirra mazmunga ega. Eng avvalo, u turli g‘oyaviy qarashlar o‘rtasida yuzaga keladigan va qarama-qarshilikka asoslangan munosabatni ifodalashini ta’kidlash zarur. U yangi, shakllanayotgan g‘oyalar

bilan o‘z «vazifasini» bajarib bo‘lgan mafkura, yoki uning qoldiqlari o‘rtasidagi munosabat shaklida ham sodir bo‘lishi mumkin. Mafkuraviy kurash muayyan g‘oyalarni singdirish jarayonini ham anglatadi.

Mafkuraviy kurashni muxolif mafkuraviy qarashlarning har qanday ko‘rinishini yo‘q qilishga, g‘oyaviy plyuralizmni bartaraf qilishga qaratilgan harakatlardan farqlash kerak. Mazkur sifatiy holatni xarakterlash uchun mafkuraviy konfrontatsiya (fransuzcha - qarama-qarshi qo‘yish) terminini qo‘llash o‘rnlidir.

Mafkuraviy kurash sodda qilib aytganda, mafkuraviy beqarorlik vaziyatining hosilasi hisoblanadi. Bunday beqarorlik holati keskin ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, xususan, bir tuzumdan boshqasiga o‘tish davri, muayyan hollarda tashqi ta’sir, masalan, xalqaro maydonda yakkalanib qolishi yoki harbiy harakatlar, o‘zaro urushlarda yengilish natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat natijasi bo‘lishi ham mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, mafkuraviy beqarorlik jamiyatdagi mavjud mafkuraviy muvozanat buzilgan, ammo yangisi qaror topmagan vaziyatdagi g‘oyaviy o‘zgaruvchan holat hisoblanadi.

Mustaqil O‘zbekistonda mafkuraviy jarayonlar rivoji. Mustaqillik va O‘zbekistondagi mafkuraviy jarayonlar rivoji haqida gap ketar ekan, eng avvalo, u istiqlolning qo‘lga kiritilishi tufayli yuzaga kelgan yangi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning hosilasi ekanini ta’kidlash zarur. Dunyoning mafkuraviy manzarasi. Dunyoning mafkuraviy manzarasi deganda, jamiyat taraqqiyoti qonunlari, uning rivojlanish tendensiylarini muayyan ijtimoiy guruh, etnik birliklar, siyosiy kuchlarning o‘ziga xos manfaatlardidan kelib chiqib talqin qilish va unga asoslangan holda insoniyat istiqbolini belgilashga qaratilgan mafkuraviy tizimlar majmuyi tushuniladi.

Dunyoning mafkuraviy manzarasiga xos mohiyatni chuqurroq va teranroq anglash inson ongi va qalbi uchun olib borilayotgan tinimsiz kurashning asl maqsadlarini to‘g‘ri tushunib yetishga, mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy hamkorlik, milliy birlik va hamjihatlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikka tahdid

soluvchi g'oyalarning oldini olishga qaratilgan tegishli ma'rifiy ishlarni izchil va tizimli tashkil etishga xizmat qiladi.

Dunyoning mafkuraviy manzarasi rivojlanishining istiqbollari. Bugun kechaning, erta bugunning davomi bo'lganidek, yaqin istiqbolda dunyoning mafkuraviy manzarasi qanday bo'lishini hozirgi kunda jahon mafkura sahnida kechayotgan ayrim jarayonlarda ham ko'rish mumkin. Xususan, ba'zi hollarda yuqorida qayd etilgan vayronkor mafkuralarning o'ziga xos omuxtalashuvi kuzatilmoqda. Bu, bir tomonidan, millatchilik va irqchilik, boshqa tomonidan, ashaddiy millatchilikning diniy aqidaparastlik bilan qo'shilib ketayotganida yaqqol ko'rinoqda. Buning oqibati o'laroq omuxtalashgan g'oyaviy qarashlar bilan qurollangan kuchlar o'z maqsadlari yo'lida ko'plab fojialarni keltirib chiqarayotgan terrorchilik harakatlarini sodir etmoqdalar. Natijada, milliy ozodlik va diniy qadriyatlar tushunchasining o'zi obro'sizlantirilmoqda, jahon afkor ommasida salbiy stereotip va qarashlarning shakllanishiga olib kelmoqda.

Muayyan guruh, xalq, jamiyatni mafkuraviy ta'sir doirasiga tortishga urinishlar hamma vaqt bo'lgan. Tarixga nazar tashlasak, bu jarayon jamiyat rivojiana borishi bilan birga chuqurlashib, keng qamrovilik kasb etib borganini ko'ramiz. Xususan, hozirgi davrda mafkuraviy ta'sir o'tkazish o'zining bir qator xususiyatlari bilan ajralib turishini ko'rish mumkin.

Shuni unutmaslik kerakki, hozirgi vaqtida mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar talaygina. Gegemonizm, tajovuzkor millatchilik va shovinizm, irqchilik va diniy ekstremizm mafkuralari shular jumlasidandir.

Yigirmanchi asr so'nggida ro'y bergan ulkan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, ikki qutbli dunyoning barham topishi natijasida nisbiy muvozanatning buzilishi jahonning rrafkuraviy manzarasini tubdan o'zgartirib yubordi. Inson qalbi va ongini egallash uchun kurash xilma-xil g'oyalalar bilan qurollangan, turli

manbalardan oziqlanadigan mafkuralarning asosiy maqsadiga aylanmoqda.

3. Milliy istiqlol mafkurasi mamlakatimiz aholisining asriy an'ana va urf-odatlarini, o'zligimizning asosiy xususiyatlarini mujassamlashtirib, jamiyatimiz, mamlakatimiz o'z oldiga qo'yan ezgu muddao va vazifalarni aniq-ravshan aks ettermog'i zarur. Toki har bir vatandoshimiz biz qanday jamiyat, qanday davlat, qanday tuzum barpo etmoqdamiz, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy asoslari nimalardan iborat, degan savollarga javob topa olsin.

Islom Karimov "O'zbekiston - XXI asrga intilmoqda" kitobida bu masalalarni chuqur, ilmiy asosda, atroflicha yoritib bergen.

Bizning bosh strategik maqsadimiz – bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Yurtimizda yashaydigan barcha insonlar uchun, miillati, tili va dinidan qat'iy nazar, munosib hayot sharoitini yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kabi kafolatlanlagan turmush darajasi va erkinliklarni ta'minlash davlatimiz siyosatining mazmun-mohiyatini ifodalaydi.

Tarixiy qonuniyat shundan dalolat beradiki, bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish davrida, jamiyat hayotining barcha sohalarida bo'lgani singari, g'oyavaiy-mafkuraviy sohada ham muayyan muammolarni hal qilish zarurati yuzaga keladi. Bunday

muammolarni hal etishda ulkan imkoniyatlarni o'z ichida aks ettirgan "Taraqqiyotning o'zbek modeli"ning besh tamoyili xalqimizning milliy davlatchilik an'analari, qadriyatları va mentalitetiga tayangani, ayni paytda, jamiyatni isloh etish borasidagi dunyo tajribasining ilg'or yutuqlariga asoslanganligi bilan bizning kelgusi taraqqiyotimizga dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

4. O'zbekiston jamiyatining milliy istiqlol mafkurasi, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifolaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan

bog‘laydigan, asriy orzu-istiklarni amalga oshirishga xizmat qiladigan g‘oyalar tizimidir.

U har bir vatandoshimizning oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va mas’uliyatini qay darajada ado etayotganligini belgilaydigan ma’naviy mezondir.

Bu – O‘zbekistonda istiqomat qiladigan va o‘z taqdirini shu muqaddas zamin bilan bog‘lagan har bir kishining “Vatanim menga nima berdi?” deb emas, balki “Men Vatanim ravnaqi uchun nima qilyapman ?” degan mas’uliyat tuyg‘usi bilan yashash demakdir.

5. Milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz qalbi va ongiga singdirish O‘zbekiston Mustaqil taraqqiyot strategiyasini, o‘zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-mudaolarini, milliy istiqlol mafkurasining mohiyatini keng jamoatchilikka har tomonlama tushuntirish dolzarb vazifalardan biridir.

Istiqlol mafkurasini odamlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta’lim-tarbiya, targ‘ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

Mafkuraviy pluralizm (lot. pluralis - xilma-xillik, rang-baranglik) - ijtimoiy-siyosiy hayotda turli qatlam, guruuhlar manfaatlarini ifoda etuvchi g‘oyaviy rang-baranglikni, qarashlar va fikrlar xilma-xilligini ifodalaydi. Inson va jamiyat hayotida g‘oyalar va mafkuralar xilma-xilligining namoyon bo‘lishi ijtimoiy-ma’naviy ehtiyoj ifodasidir.

Bugungi kunda O‘zbekistonda kechayotgan faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiyalash jarayonlari siyosiy va iqtisodiy hayot, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabhalarini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, mustaqil sud tizimini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish, fuqarolik jamiyatni asoslarini shakllantirishni talab etmoqda. Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga izchil va bosqichma-bosqich o‘tish, bu davrning asosiy xususiyatidir.

Ikki palatali parlamentning shakllanishi, Prezident vakolatlarining bir qismini yuqori palata – Senatga o'tkazilishi, Bosh vazir huquq va vakolatlarining kuchaytirilishi “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish to‘g‘risida” gi konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi bilan yanada amaliy tusga kirdi.

Siyosiy partiyalar roli va ahamiyatining kuchayishi hozirgi sharoitda ularning fuqarolar siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, aholining, ayniqsa, saylov jarayonlarida xohish irodasi va fikrini ifodalash, markazda va joylarda davlat hokimiyati organlarini shakllantirishning muhim ta’sir o’tkazuvchi vositasiga aylanishi orqali kechishini anglatadi. Parlamentdagi ko‘pchilik va parlamentdagi muxolifat maqomini qonuniy tarzda belgilash, siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlarini qonunchilik palatasi Spikerining o‘rinbosari etib saylash bo‘yicha tashkiliy-huquqiy choralar ko‘rilishi bu yo‘nalishdagi o‘zgarishlarni aniq namoyon qilmoqda.

Siyosiy partiyalarning mamlakat parlamenti faoliyatini tashkil etishda, shuningdek, vakillik va ijro hokimiyati organlarini shakllantirish, ularning faoliyatini nazorat qilishidagi roli va ahamiyatini tubdan kuchaytirilishi, ayniqsa, Bosh vazir lavozimiga nomzod bo‘yicha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashish tartibi, uning parlament tomonidan tasdiqlanishining qat’iy belgilangan tartib va mexanizmining joriy etilgani davlat qurilishi sohasida demokratik islohotlarning chuqurlashganligini ko‘rsatadi. Fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri – davlatning siyosiy instittlarda va siyosiy jarayonlarda turli xil fikrlarning erkin ifoda qilinishiga huquqiy asoslar yaratib berish, shuningdek, huquqiy davlat fuqarolari – plyuralistik siyosiy madaniyatga ega bo‘lgan shaxslarni shakllantirishdir. Mamlakatimiz fuqarolik jamiyati tomon odimlar ekan, jamiyatimizda bugun mavjud bo‘lgan xilma-xil fikrlar va g‘oyalar, erkin qarashlar, har qanday toifa va guruahlarning intilish va umidlari, har qanday inson e’tiqodi va dunyoqarashi oshkor,

erkin izhor etiladi. Siyosiy partiyalar esa demokratik jarayonning muhim instituti sifatida aholining kengroq qamrovi ifodalayotgan g'oyalarni mujassam etish, ular atrofida aholini birlashtirishga intiladi. Har bir siyosiy partiya mazkur g'oyalarni hayotga tadbiq etishda muayyan ijtimoiy tabaqaga tayangani bois, ularning amalga oshirish yo'llari bir-biridan farq qiladi. Shunga qaramay, turli partiyalar tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalalar mazkur jamiyatni jipslashtirish, aholi turmush farovonligini yuksaltirishga yo'naltirilganligi bilan umumiylilik kasb etadi. Shu bois, demokratik jarayonlar faollashgani sari, har bir siyosiy partiya faoliyatida milliy g'oya targ'ibotiga talab kuchayaveradi.

2. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Konstitusiyasining II bob, 12-moddasida: «*O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas*»,⁹-deb belgilandi. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining qaror topishida 1996-yil 25-dekabrda Oliy Majlis qabul qilgan “*Siyosiy partiyalar to'g'risida*”gi qonunning ahamiyati muhim bo'ldi. Qonun 17 ta moddadidan iborat bo'lib, unda siyosiy partiyalarning demokratik qoidalar asosida faoliyat yuritishlari uchun yetakchi va ilg'or mamlakatlar mezoniari talablaridagi huquqiy asoslar yaratildi. Qonunning 5-moddasiga binoan, “*davlat siyosiy partiyalar huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofaza etilishini kafolatlaydi, ustavda belgilangan o'z maqsadlari va vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi*”¹⁰.

3. Mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi shakllanishining qonuniy asoslari bilan bir vaqtida siyosiy partiyalarda o'z g'oyalalarini targ'ib etish imkoniyati ham kengaydi. “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi qonunning 12-moddasiga binoan boshqa vakolatlar bilan bir qatorda o'z mafkuralarini targ'ib va tatbiq etish borasida “Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega:

⁹Ўзбекистонда сиёсий партиялар “Академия” наприёти, 2007. – Б.197.

¹⁰O'sha joyda: – Б.201.

- o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni erkin tarqatish, o‘z g‘oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ‘ib qilish;

- saylab qo‘yiladigan davlat organlaridagi o‘z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish;

- partiya faoliyati bilan bog‘liq yig‘ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o‘tkazish;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta’sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish...”¹¹.

“Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonunning 1-moddasida “Siyosiy partiya O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining *qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi* asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarishga intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko‘ngilli birlashmasidir”¹², - deb ko‘rsatilgan. Qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi esa – g‘oya, mafkura demakdir. Demak, partiya mafkurasini *milliy mafkuraning bir bo‘lagi, tashkil etuvchi qismi* sifatida talqin etilsa, uning mohiyati chuqurlashadi. Binobarin, partiya kishilarning mafkuraviy birlashmasidir.

Demak, siyosiy partiyalar milliy g‘oya targ‘iboti va tatbiqida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- jamoatchilikni g‘oya atrofida birlashtirish va safarbar etish;
- jamoatchilik fikrini tarbiyalash;
- millatning hayotiy manfaatlarini ifodalovchi jamoatchilik fikrini shakllantirish;
- milliy g‘oya va mafkurani boyitish;
- mafkuraviy immunitetni shakllantirish;
- ishlab chiqilayotgan qonunlarga milliy g‘oyani singdirib, uning amaliyotga tatbiqi yuzasidan monitoring olib borish;

¹¹O‘sha joyda: – Б.205.

¹²O‘sha joyda: – Б.200.

- milliy g'oya va mafkurani takomillashtirish;
- milliy g'oya va mafkuraning hayotga tadbiqi jarayonidagi to'siqlarni (tahdidni) oldini olish va bartaraf etish.

Respublikamizda mavjud to'rtta siyosiy partiya uchun bu kabi faoliyatni olib borish uchun barcha huquqiy sharoitlar mavjud.

Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida korrupsiya oид quyidagi fikrlarni aytib o'tdilar. «Bu borada buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizning: «Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin!» degan chuqur ma'noli so'zlari har birimiz uchun hayotiy e'tiqodga aylanishi zarur. Bu masala, eng avvalo, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, butun sud tizimi, prokuratura, ichki ishlar, nazorat organlari rahbarlari va xodimlarining, shuningdek, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakilining bevosita vazifasidir.

Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbazarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur.”

Harakatlar strategiyasining 2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish:

jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish;

diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarни kuchaytirish;

korrupsiya qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiya qarshi kurashish tadbiralarining samaradorligini oshirish;

aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyatni institutlari,

ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish, belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida:

Huquqni muhofaza qilish faoliyatida ochiqlik va oshkorlikni ta'minlash uchun biz fuqarolik jamiyati instituti, ommaviy axborot vositalari va aholi bilan samarali hamkorlikni keng yo'lga qo'yamiz.

Ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zlarini tomonidan qonunni buzish bilan bog'liq har qanday holatga prinsipial baho beriladi va qat'iy chora ko'rildi. Bunga hech kimda shubha bo'lmasligi kerak.

Jamiyat rivojiga g'ov bo'layotgan yana bir illat – bu korrupsiya balosidir. Bunday xatarga qarshi kurashish maqsadida yaqinda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senatga yuborilgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunni tezroq amaliyatga joriy etish chora-tadbirlarini ko'rishimiz lozim.

Bularning barchasi o'z navbatida inson huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini takomillashtirishga, xalqimizning davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. G'oyalarni xilma-xilligining sababi nimada ?
2. Milliy g'oya mafkuralar xilma-xilligiga asoslanganligining sababi nimada ?
3. Mafkuraviy jarayonlar ijtimoiy hayotga qanday ta'sir ko'rsatadi?

5-MAVZU: MILLIY G‘OYA – O‘ZBEKISTON DEMOKRATIK TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI

Reja:

- 1.“Demokratiya” tushunchasi. Milliy g‘oyaning demokratik xarakteri.
- 2.Demokratik taraqqiyotning milliy g‘oyada aks etishi. Demokratiya modellarining xilma-xilligi.
- 3.Milliy g‘oya negizlariga tayanish demokratik taraqqiyot omili.

Mamlakatimiz mustaqilligining qo‘lga kiritilishi xalqimiz hayotida yangi tarixiy davrni boshlab berdi. O‘z erkini qo‘lga kiritgan har bir xalq o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlaydi, yangi jamiyat qurishning o‘ziga xos va mos andozasini ishlab chiqishga intiladi. Respublikamiz ham o‘zining milliy davlatchilik negizlariga tayangan holda, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy taraqqiyot yo‘lini tanıladı. I.A.Karimov xalqimizning o‘z maqsad muddaolari haqida shunday degan edi: “Biz quradigan jamiyat O‘zbekiston xalqining munosib turmushini, huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishini, insonning ma’naviy-axloqiy barkamolligini ta’minlashi kerak”.

Bu yerda gap u yoki bu mamlakatga xos bo‘lgan demokratiya ko‘rinishidan andoza olish to‘g‘risida ketayotgani yo‘q. Asosiy maqsad – demokratik taraqqiyot yo‘lidan borayotgan boshqa mamlakatlardan farqli ravishda, o‘zimizga xos va mos taraqqiyot yo‘lini aniqlab olishimizdir. Bu zarurat mustaqil davlatimiz misoldida demokratik jamiyat qurish jaryonida qo‘lga kiritgan yutuqlar, ayrim hayotiy saboqlarni o‘rganishni, tahlil qilishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston bosib o‘tgan qisqa tarixiy bir davrda ijtimoiy-siyosiy hayotimizda yuz bergen keng qamrovli o‘zgarishlarni mushohada qilar ekanmiz, mamlakatda yangicha demokratik qadriyatlar ildiz otayotganini, inson haq-huquqlari va

erkinliklarining asosi bo'lgan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda birmuncha tajribalarga erishganligimizni anglaymiz.

Umuman "demokratiya" so'zi grekcha "xalq hokimiysi" ma'nosini anglatadi. Uning mazmun-mohiyati, belgilari quyidagilarda namoyon bo'ladi. Bular *qonun ustuvorligi*, *xalq hokimiyatichiligi*, *plyuralizm*, *fuqarolar huquq* va *erkinligining ta'minlanishi*, *demokratik saylov tizimining mavjudligi*, *inson huquqlarining himoya qilinishi*, *so'z, matbuot va din erkinligi*, *fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtiroki*, *mulk erkinligi* va *egaligi*, *millatlararo totuvlik*, *kuchli ijtimoiy siyosat prinsiplariga tayanadigan jamiyat* va *davlatning tuzilish shaklidir*. Demokratiya xalqning davlat organlarini tuzish, ularning ishida ishtirok etishi, davlat organlari ishini tashkil etish, mamlakatda inson huquqlarini ta'minlanishi orqali namoyon bo'ladi. U davlat bilan inson o'ratsidagi munosabatlarni qonuniy ravishda tartibga soluvchi davlat va jamiyatning o'ziga xos shaklidir.

Demokratiya bu, fuqarolarning barcha jarayonlarda xohlagancha erkinligi degani emas. Balki barchaning qonunga asoslangan teng faoliyatidir. *Demokratik davlatda davlat organlarini tashkil qilishda*, ularning faoliyatida, mamlakat fuqarolari *to'liq ishtirok etadilar*. Fuqarolarning davlat organlarini tashkil qilishdagi ishtiroki qonun yo'li bilan kafolatlanadi va ularning ishtirokiga keng imkoniyatlar yaratiladi. *Demokratik davlatda inson manfaatlari*, *qadr-qimmati*, *vijdoni*, *or-nomusi*, *hayoti*, *sog'lig'i har narsadan ustun turmog'i lozim*. Davlat fuqarolarning huquq-erkinliklarini ta'minlash choralarini doimiy ravishda nazorat qiladi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishlari uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. fuqarolarning vijdon erkinligi, ko'ppartiyaviylik, ommaviy axborot vositalarining erkin bo'lishi, fikrlar xilma-xilligi kabilar ustuvor tamoyillar hisoblanadi. Demokratik jamiyatda har bir kishining davlat va jamoat ishlarini idora qilishda qatnashishi

konstitutsiya va boshqa qonun hujjatlarida aniq belgilab qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ham demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishga qaratilgan barcha islohotlarning pirovard maqsadi – inson huquqlarini himoya qilishdir.

Hozirgi kunda inson huquqlari jamiyatimizda eng ustuvor qadriyatga aylanayotganligini ta’kidlab, I.A.Karimov shunday deydi: “Inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu dastur, eng avvalo, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari tomonidan inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishini ta’minlash, jamiyatda inson huquqlari bo‘yicha madaniyatni shakllantirish va shu kabi boshqa sohalarga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik monitoringini olib borishga qaratilgan choratadbirlarni o‘zida mujassam etishi kerak”¹³.

Fuqarolik jamiyati hamda huquqiy davlat uchun inson huquqlari eng oliv qadriyat, ezgu maqsaddir¹⁴. Ma’lumki, sharq falsafasida insonni ulug‘lash va u yer yuzida eng mo‘tabar zot ekanligi g‘oyasi ilgari surilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «inson» va uning qadr-qimmati haqida fikr yuritilib, Asosiy qonunimizning 13-moddasiga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa dahlsiz huquqlari oliv qadriyat hisoblanadi”. Zero, birorta qonun yo‘qki, uning tub mohiyati inson huquqini himoyasiga qaratilmagan bo‘lsa. Insonning huquqlari ustuvor deb hisoblangan va unga rioya qilingan, davlat va jamiyat o‘rtasida yuksak ma’naviy aloqalar mavjud bo‘lgan jamiyatni – “fuqarolik jamiyat” deb ta’riflashadi. Yuksak madaniy-ma’rifiy sifatlarga ega bo‘lgan

¹³ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятни ривожлантириш: концепцияси // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Конунчлилик палатаси ва Сенатининг кўшима мажлисидаги маъруза. – Т.: “Ўзбекистон”, 2010. – Б.46.

¹⁴ Одилкориев Х.Т., Якубов Ш.У. Милий ҳукукий тизим ва ҳукукий кадрлар. – Т., 2010. – Б. 361.

“inson”lar jamiyatiga «fuqarolik jamiyati» deb nom berilganligi ham bejiz emas.

Zero, jamiyatni yangilash jarayoniga odamlarni jalb qilish mamlakatni demokratiyalash orqali amalga oshiriladi. Demokratik jamiyatni yanada rivojlantirishning muhim sharti jamiyatda o‘zaro ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash, inson omili va uning mavqeyini oshirishdir. Har tomonlama siyosiy yetuk, barkamol insonlarni tarbiyalashga e’tiborni kuchaytirish va h.k.

Har qanday demokratik jamiyatda davlat hokimiyatining mavjudligi va uning bo‘linish prinsipi muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatning oliv va vakolatli organlari **saylov** yo‘li bilan shakllantirilib, unda saylov yoshiga yetgan fuqarolar teng asosida qatnashadilar. Xalq irodasini ifoda etishning shakli bo‘lgan referendum ham (davlat ahamiyatiga molik muhim masalani hal qilishni umumxalq ovoziga qo‘yish) demokratiyaning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Uning yordamida xalq rasman ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtirok etadilar, davlat hokimiyatini shakllantirishda qatnashadilar.

Demokratiyaning zarur shartlaridan yana biri – bu **Konstitusiya** va qonularning ustuvorligidir. Bunda fuqarolarning huquq va erkinliklari ta’minlanadi. Huquqiy tenglikka asoslangan, ya’ni fuqarolarning qonun oldida tengligini, shuningdek, jamiyat a’zolarining davlat boshqaruvida va jamoat ishlarida qatnashuviga keng imkoniyatlar yaratiladi. Shu bilan birga, demokratik jamiyat, qonun doirasidagi turli uyushmalar, siyosiy partiyalar, ijtimoiy tashkilotlarning erkin faoliyat ko‘rsatishini nazarda tutadi.

Hokimiyatlarning bo‘linish prinsipi va ularning birgalikda uyg‘unlashganligi demokratik tizimga xos. Ular quyidagicha namoyon bo‘ladi: o‘z-o‘zini boshqarish bo‘g‘inlarida odamlar yuzaga kelgan muammolarni o‘zları mustaqil hal qilishda qatnashadilar, shuningdek, umumiy ishlarni boshqarish, jamiyat manfaati yo‘lida harakat qilish uchun davlat fuqarolarga ma’lum shart sharoitlarni yaratib beradi.

Siyosiy faoliyat zaminida ijtimoiy-siyosiy hayot sohalarida hokimiyat va fuqarolar o'rtaida ma'lum munosabatlar yuzaga keladi. Mustaqil siyosiy partiya yoki ijtimoiy guruhlar tashkil etiladi, ko'ppartiyaviylik qaror topadi. Bu yerda o'z hohishini erkin ifoda etishni ta'minlaydigan oddiy o'z-o'zini boshqarish jarayoni shakllanadi. Shunday qilib, mustaqil ravishda qarorlar qabul qiluvchi yoki boshqa guruhlar bilan hamkorlikda davlat va jamiyat ahamiyatiga dahldor qonun doirasidagi masalalarni hal etishga yo'naltirilgan siyosiy harakatlar shakllanadi. Bu bilan jamiyatda o'zaro ishonch, hamjihatlik yuzaga keladi.

Demokratiya va uning shakllari haqida fikr yuritganda, uning **g'arbona** va **sharqona** jihatlari ("g'arb demokratiyasi" va "sharq demokratiyasi") xususida fikr yuritish o'rini. Demokratik jarayonlar g'arbda ko'proq qonun ustuvorligiga asoslansa, sharqda bu jarayon asrlar davomida shakllangan an'analar, ma'naviy mezonlar, milliy qadriyatlar va milliy mentalitet uyg'unligi asosida kechadi. G'arb namunasi ko'p hollarda individualizm (o'zlik) ga tayandi. U ommaning haddan tashqari siyosiy lashtirilishiga olib kelsa, sharqda demokratiya tushunchasi hamjihatlik g'oyasi, jamoatchilik fikrining ustuvorligi zaminida shakllanadi.

Sharqona demokratiya milliy bosiqlik, andisha, yoshi ulug'larga hurmat, o'zaro maslahat, har qanday keskin masalada tomonlarning kelishuvlariga asoslangan faoliyatidir. Sharqona demokratiya siyosiy tartibsizliklar, bosh-boshdoqlik va mitingbozlikni milliy manfaatlarga zid deb qaraydi, har qanday fundamentalistik va qurolli kuchlarga asoslangan harakatlarni qoralaydi.

Mamlakatimizda demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatasi asoslarining shakllanishida milliy g'oya muhim omil hisoblanadi. Islom Karimov jamiyatning demokratiyalashuvini uzoq muddatli jarayon sifatida baholaydi, demokratiya g'oyalarini shunchaki bayon qilish, yuqorida tushirish bilan uni odamlarimiz hayotiga singdirib bo'lmasligini uqtiradi. «Demokratiya, - deb ta'kidlaydi I.A.Karimov, - jamiyatning qadriyatiga, har bir insonning

boyligiga aylanmog'i kerak. Bu esa bir zumda bo'ladigan ish emas. Xalqning madaniyatidan joy ololmagan demokratiya tur mush tarzining tarkibiy qismi ham bo'la olmaydi. Bu tayyorgarlik ko'rish va demokratiya tamoyillarini o'zlashtirishdan iborat ancha uzoq muddatli jarayondir»¹.

Demokratiyanı jamiyatning ustuvor qadriyatiga, uning barqaror taraqqiyoti omiliga aylantirish uchun adolatli jamiyat orzusi yo'lida insoniyat to'plagan tajriba va amaliyotni muttasil o'zlashtirish zarur. Bunda sharqona demokratiya tamoyillari tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Ammo, inson tabiatini ziddiyatlidir. U boshqalar intilishlariga teskari bo'lgan intilishlarga ega bo'lishi va shu vaqtning o'zida o'zgalar bilan hamkorlikka moyil bo'lishi mumkin. Inson tabiatiga xos ana shu qarama-qarshilik uning jamiyatdagi hayoti va xatti-harakatlarini ham belgilaydi. Odamlar bir tomonidan shaxsiy erkinlikka intilsalar, ikkinchi tomonidan ijtimoiy tenglikni talab qilishga moyil bo'ladilar. Odamlar o'z manfaatlarini ko'zlashlari bilan birga umumiyijtimoiy manfaatlarga ham intiladilar. Ammo bu qarama-qarshi tendensiyalarni, shaxsiy manfaat bilan jamiyat manfaatlarini qanday qilib muvofiqlashtirish mumkin? Jamiyat bu muammoning yechimiga demokratiya mexanizmlarini ishga solish orqaligina kela oladi. Aynan demokratiya va umumiyy manfaatlar vobastaligi ijtimoiy munosabatlarni muvozanatga keltirishga xizmat qiladi. Demokratiya doimiy qutb - «ziddiyat - kelishuv - birdamlik» orqali o'ziga yo'l ochar ekan, kishilarning o'zaro roziligi, kelishuviga tayanadi. Gap shundaki, demokratiya – bu yolg'iz o'z maqsad va talablarini amalga oshirish vositasi bo'lmay, balki o'zaro munosabatlarning maqbul qoidalariga rioya etishdir. Umuminsoniy, xususan, demokratik qadriyatlarga tayangan milliy istiqlol g'oyasi ana shu qutbiy intilishlarni muvofiqlashtirish orqali umumiyy manfaatlarini o'zida ifoda etadi.

¹Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тайдид, барқарорлик шартлари ва тараҳқиёт кафолатлари // Хавфсизлик ва барқарор тараҳқиёт йўлида: Т.6. -Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б.160.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi bilan mamlakatimiz tarixida yangi davr boshlandi. Bugungi kunda respublikamizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyat qurish bilan bog'liq ustuvor vazifalar belgilab olindi. Shu bois, demokratik jamiyat barpo etish va bu jarayonda milliy istiqlol g'oyasining ahamiyatini, ularning o'zaro aloqadorlikdagi ijtimoiy mohiyatini ilmiy tadqiq etish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Zero, «Hech kimga sir emas – biz qurayotgan yangi jamiyat, hayotimizga tobora k'irib kelayotgan yangilanish jarayonlari, islohotlarning taqdiri va kelajagi, avvalo, xalqimizning bu o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashiga, joylarda bu borada odamlarimizning faolligi, ularning dunyoqarashi, ong-u tafakkurining yuksalishiga bog'liq»¹⁵. Shunday ekan, bugungi kunda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etish jarayonida ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga milliy mafkuramizda aks etgan g'oyalari ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va tadqiq qilish katta amaliy ahamiyatga egadir.

Jamiyat hayotida kechayotgan demokratik islohotlar jadal sur'atlar bilan rivojlanishida, muhim bunyodkorlik ishlarini amalgalashirishda mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish kabi maqsadlar sari intilish kuzatilayotgan ekan, demokratiyaning taqdiri ham, kuchli fuqarolik jamiyatining qaror topishi ham fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ushbu jarayonda fuqarolarning ishtiroki, ularning ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash kabi masalalarni hal qilishda milliy istiqlol g'oyasining roli alohida ahamiyatga molikdir. Darhaqiqat, Islom Karimov jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishni amalga oshirishda aholining ijtimoiy-siyosiy hayotdag'i ishtirokini kengaytirish haqida quyidagilarni ta'kidlaydi: «Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi - bu demokratik davlat,

¹⁵ Каримов И. А. Инсон манфаатларини тъйминлаш, ижтимоий хизома тизими ни такомиллаштириш - устувор вазифамиздир. -Т.: Ўзбекистон, 2006. -Б. З.

fuqarolik jamiyat qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir»¹⁶. Bu O'zbekistonda demokratik jamiyatni shakllantirish jarayonida erishilgan ijobiy natijalar milliy istiqlol g'oyasining hayotiy, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligining yorqin ifodasıdır. Chunonchi, demokratik jamiyatning shakllanishi mavjud ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning barqarorligi va ular rivojlanishining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda bu jarayonning izchil, tizimli va obyektiv amalga oshirilishida davlat hamda jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, harakatlarning pirovard maqsadlarini ifodalaydigan mafkuraviy jarayonlar ham muayyan o'rın egallayıdi.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonlarda milliy istiqlol g'oyasining salohiyati o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham milliy g'oyaning O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishdagi o'mi va ahamiyatini, uning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish yurtimizda shakllanayotgan demokratik jamiyatning ustuvor yo'nalishlari, tendensiyalari va tamoyillarini aniqlash, ularni rivojlantirish va takomillashtirishning aniq yo'llarini belgilash imkonini beradi. Bu esa:

Birinchidan, ilmiy manbalardagi mavjud fikrlarga tayangan holda "demokratik jamiyat", "milliy istiqlol g'oyasi", "milliy g'oya" va "sharqona demokratiya" tushunchalarining mazmun-mohiyatini aniqlash, ularning o'zaro aloqasi va ijtimoiy-falsafiy ta'riflarini berish, metodologik ahamiyatini yanada chuqurroq tahlil etishda ko'rindi.

Ikkinchidan, O'zbekistonda demokratik jarayon shakllanishi borasidagi yondashuvlarni qiyoslash asosida bugungi kunda amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash jarayonining ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish dolzarb ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsatadi. Uchinchidan, O'zbekistondagi demokratik jamiyatning mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq anglash, jamiyat

¹⁶ Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч ҳаҷон ҳеч кимга қараш бўлмайди. -Т.: Ўзбекистон, 2005. - Б.177.

rivojlanishida universal modellarning mavjud bo‘la olmasligini nazariy asosda turli dalillar va misollar orqali ko‘rsatishda o‘z ifodasini topadi.

To‘rtinchidan, «Taraqqiyotning o‘zbek modeli» konsepsiyasining O‘zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishidagi o‘rni beqiyosdir. Shu ma’noda, ular o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatini tahlil etishnihoyatda muhim.

Milliy istiqlol mafkurasingin asosiy tamoyillaridan bir “Xalq farovonligi” g‘oyasidir. Davlatimizda xalq farovonligi yo‘lida olamshumul ishlar olib borilayotgani hech kimga sir emas.

“Inson manfaati – har narsadan ulug’”. “Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat”. “Islohot islohot uchun emas, avvalo, inson uchun, uning farovon hayoti uchun”. “Hamma narsa – inson uchun, uning kelajagi uchun”. “Bu muqaddas Vatanda azizdir inson”... Islom Karimov mamlakatimiz davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi arafasida va istiqlol yillarda izchillik bilan ilgari surgan hamda hayotimizga chuqur tatbiq etib kelinayotgan bunday ezgu da’vatlar va hayotbaxsh g‘oyalar zamirida inson omiliga yuksak e’tibor eng oliy mezon sifatida o‘z ifodasini topgan. “Insonparvarlik – bu o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir”, deb ta‘kidlaydi Islom Karimov “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobida. Mustaqillikka erishish yo‘lida 1989-1991 yillar mobaynida yurtimizda olib borilgan o‘ta og‘ir va mashaqqatli kurashlar tarixiga doir mazkur noyob fundamental asar keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Buning sababi, ushbu kitobdan joy olgan ma’ruza va nutqlarda mustaqillikka erishish arafasidagi og‘ir va suronli yillarda ham inson, uning ehtiyoj va talablari, jismoniy va ma’naviy yuksalishi respublikamizda istiqbolda amalga oshiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning markazida bo‘lishi shart, degan talab kun tartibiga qo‘ylgan va bugun bu o‘zining hayotiy ifodasini topmoqda.

Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda bozor munosabatlari asoslangan huquqiy-demokratik davlatni qurish va fuqarolik jamiyatini asoslarini shakllantirish borasida ulkan yutuqlar qo‘lga

kritildi. Mazkur jarayonda insonga oliv qadriyat sifatida munosabatda bo‘lish alohida ahamiyat kasb etdi. Prezident Islom Karimov alohida ta’kidlaganidek: “Aslida, har qanday islohotning eng muhim samarasi, avvalo, xalqning ma’naviy-ruhiy qarashlaridagi yangilanish jarayonlari, uning ong-u tafakkurining yuksalishi, mamlakatda yuz berayotgan o‘zgarishlar uning hayotiga, taqdiriga dahldor bo‘lganini chuqr his qilishi va shundan xulosa chiqarishi bilan belgilanadi. Biz amalga oshirayotgan islohotlarimizda ana shunday natijalarga erishish uchun barcha o‘zgarish va yangilanishlarning markaziga inson va uning manfaatlarini qo‘ydik. Shuning uchun ham bugungi kunda ana shu jarayonlarning mohiyatida islohot - islohot uchun emas, avvalo, inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak, degan maqsad mujassam ekanini va uning amaliy ifodasini barcha sohalarda ko‘rish, kuzatish qiyin emas”¹⁷.

Ma’lumki, har bir xalq erkin, farovon yashash huquqiga ega va buni aziz deb biladi. Jumladan, har bir inson ham bunday huquqqa ega. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning huquqlari, erkinlik va burchlari kafolatlari belgilab berilgan. Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligidan kelib chiqadigan, xalqaro miqyosda qabul qilingan yangi yuridik tamoyil va talablarga asoslangan keng huquqiy muhit vujudga keltirildi. Mustabid tuzumning tazyiq va zo‘ravonligidan jahon andozalariga mos keladigan huquqiy me’yorlar sari keskin burilish yasaldi. Ma’lumki, BMT tomonidan 70 ga yaqin, Yevropa Kengashi Bosh assambleyasi tomonidan 160 dan ziyod, YUNESKO tomonidan 70 dan ortiq, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti tomonidan 30 dan ko‘proq inson huquqlariga taalluqli xalqaro konvensiyalar, deklaratsiyalar, paktlar qabul qilindi. Hozirgi paytda inson huquqlari bo‘yicha 400ga yaqin xalqaro hujjat mavjud. Mamlakatimiz qonunlarini inson huquqlari sohasidagi mazkur me’yor va andozalarga

¹⁷ Каримов И.А. Юксак маънавият – ёнгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 105.

muvofigqlashtirish, bu sohada milliy harakat dasturini ishlab chiqish, inson huquqlarini himoya qiladigan muassasalarning yaxlit tizimini barpo etish, inson huquqlariga oid xalqaro shartnormalar va hujjatlarga qo'shilishda davom etib, ular bo'yicha majburiyatlarni bajarishning mexanizmi yaratildi.

Umuman olganda, islohotlar markazida insonni oliy qadriyat sifatida baholanishi mamlakatimiz strategik vazifalariga hamohangdir. Xususan, bu boradagi barcha o'zgarishlarning mazmun-mohiyati ham inson va uning qadr-qimmati ekanligi bilan hamohangdir. Holbuki, ushbu qadriyatlar asosida shakllangan jamiyat mohiyatiga ko'ra, xalqaro talablarga, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyillariga mos keladi, ularni milliy darajada namoyon bo'lishi uchun imkon yaratadi. Shu bilan birga, u mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elat, har bir shaxs va umuman inson hamda va turli qatlam vakillarining umumiy maqsad-muddaolarini ifodalaydi. Bu esa davlatimiz siyosatining jahondagi demokratik jarayonlar, tinchlik va barqarorlik, inson huquqlari va vijdon erkinligi kabi umumbashari qadriyatlar mazmuniga mosligini ko'rsatadi.

Jamiyat hayotida qonuniylik mezonlarining to'liq joriy etib borilishi ularning davlat faoliyatida o'z aksini topishi va doimo mustahkamlanib borilishini taqozo etadi. Aynan shu maqsadlarga mos holda hokimiyatni bo'linish tamoyilini amalga oshirishni ta'minlash, jamiyatni siyosiy tizimida parlamentni rivojlantirish, sud hokimiyatining rolini oshirish kabi masalalar O'zbekistonda islohotlarni amalga oshirishning, inson huquqlari himoya qilinishining muhim yo'nalishlari sifatida belgilab olindi. Bu yo'lda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyatni sari" g'oyasi asosida ijobiy natijalarga erishilib kelinmoqda. "Davlat va jamiyat qurilishi sohasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar natijasida mamlakatimizning qonun chiqaruvchi oliy organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatali parlamentiga aylantirildi"¹⁸, "Sudlarni jazolovchi va faqat davlat manfaatlarini himoya

¹⁸ O'sha manba, – B.31.

qiluvchi organdan qonun ustuvorligini va inson huquqlari himoyasini ta'minlovchi organga aylantirishga qaratilgan yaxlit sud hokimiyati tizimini shakllantirish vazifasi qo'yildi va muvaffaqiyatli hal etildi”¹⁹. Shuning uchun ham 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Konstitusiyasida hokimiyatning konstitutsiyaviy asosda bo'linishi tamoyili mustahkamlab qo'yildi. Jumladan, Asosiy Qonunning 11-moddasida “O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi”, degan qoidada aks ettirilgan.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz boshqaruvi tizimida demokratik davlatlar tajribasida sinalgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o'rtaida barqaror muvozanat, bir-birining faoliyat ustidan nazorat qilish va o'zaro chegaralab turishni ta'minlovchi mexanizmlar shakllantirildi. Bularning hammasi inson huquqlarni himoya qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

O'zbekiston dunyodagi oz sonli kuchli ijtimoiy siyosat yuritayotgan va shu asnoda aholi farovonligini oshirish yo'llari ustida faoliyat olib borayotgan mamlakatlar sirasiga kiradi. Inson huquq va erkinliklarini himoyalash, umuman, aholiga munosib turmush sharoitini yaratishdan tortib aholini ish bilan bandligini ta'minlash chora-tadbirlari barchanining manfaatli ishiga aylanishi mamlakatdagi ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda demokratik jamiyat haqidagi nazariyalar va ta'lilotlar tarixi milliy g'oyamizning milliy-ma'naviy negizlari sifatida qo'yidagi tamoyillarga ega bo'ladi:

Birinchidan, O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi o'zgarishlarning ma'naviy-huquqiy jihatlarini uyg'unlashtiradigan, muhim jarayon sifatida o'z ifodasini topgan.

Ikkinchidan, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi bo'lgan inson haq-huquqlarini, uning kamolotini, manfaat va qadr-qimmatini ta'minlaydigan ma'naviy muhitni

¹⁹ O'sha manba, – Б.12.

shakllantirish vazifalarini amalga oshirishdagi mezon sifatida muayyan ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, O'zbekistonda demokratik jamiyatni barpo etish jarayonida milliy mafkurani shakllantirish mamlakat taraqqiyotining muhim omili sifatida ulkan islohotlarni amalga oshirishga asos bo'ladi.

To'rtinchidan, O'zbekistonda demokratik jamiyatni barpo etish, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur, qobiliyat negizida, o'z kuchi va imkoniyatlarini ishga solib, millat taraqqiyoti yo'lida jipslashib bir maqsad sari harakat qilishga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi jadal g'oyaviy hamda mafkuraviy o'zgarishlar sharoitida demokratiya bir yoki bir necha tor doiradagi ijtimoiy-siyosiy guruhlarning, yoki alohida olingan millatlarning manfaatlarinigina emas, balki butun insoniyatning yuksalishiga xizmat qilayotgan ulkan **umuminsoniy qadriyatdir**. Ma'lumki, demokratik jamiyat barpo etishda jahon xalqlarining tarixiy tajribalari, xalqimizning boy merosi hamda sharqona turmush tarzimizning o'ziga xosligi, jamiyatimizda har tomonlama yetuk, komil insonlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

I.A.Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida ta'riflanganidek, "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Bu – mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu – insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodidan qat'iy nazar, fuqarolarning teng huquqlarini ta'minlovchi davlatdir". Boshqacha aytganda, O'zbekiston *birinchidan*, o'z taqdirini o'zi belgilagan, umumbashariy qadriyatlar ustuvorligiga asoslangan, insonparvarlik qoidalariga mos demokratik davlat. *Ikkinchidan*, fuqarolar osoyishtaligi, milliy totuvligi va diniy bag'rikengligiga asoslangan davlat, *uchinchidan*, xalqimizning boy ma'naviy merosiga, axloqiy qadriyatları, milliy urf-odatlari va an'analariga tayanuvchi insonparvar davlat, *to'rtinchidan*,

jahon hamjamiyatidan muhim o‘rin egallagan, munosib ichki va tashqi siyosat olib borayotgan tinchliksevar davlatdir.

Shu boisdan bugungi kunda fuqarolar ongida *demokratik jamiyat talablariga javob beradigan dunyoqarash, erkinlik, inson qadr-qimmati, sha’ni va or-nomusini hurmat qilish bilan bog‘liq qadriyatlarni shakllantirish* muhim vazifalardandir. Bu vazifalar fuqarolarimizni mamlakatda Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayat qurish, demokratik qadriyatlarni hurmat qilish, ularni buniyodkorlik ishlariga safarbar etishda o‘z ifodasini topadi.

Bizning bosh strategik maqsadimiz – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayat, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Bozor iqtisodiyoti, eng avvalo, mulkchilikka va ular o‘rtasidagi raqobatga tayanadi. Unda mulkning barcha qonuniy shakllari teng huquqqa ega bo‘lib, bu huquqlar davlat tomonidan kafolatlanadi. Mustaqil taraqqiyot yo‘liga chiqqan O‘zbekiston uchun eng asosiy, bosh masala milliy davlatchilik poydevorini barpo etish, mustaqillikning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yaratishdir.

Demokratiyaning milliy va umumbashariy qadriyatalarini hamda tamoyillarini o‘rganishda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmun-mohiyatini o‘rganish muhim. Avvalombor O‘zbekistonning dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, fuqarolarimizda mustaqil demokratik tafakkurni shakllantirish, milliy ma’naviy merosimizni qadrlash, vatanparvarlik, milliy g‘urur iftixor tuyg‘ularini mustahkamlash, anglash katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlariida demokratik jamiyat qurishda faol ijtimoiy-siyosiy jarayonlar davom etmoqda. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bunga siyosiy modernizatsiya asosida izchillik, tizimlilik hamda siyosiy demokratik o‘zgarishlar chog‘ida fuqarolarning siyosiy madaniyati, huquqiy bilimi, urf-odatlari va an‘analarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, har bir davlat o‘tish davrida jamiyatda demokratik o‘zgarishlarni o‘z ichki

imkoniyatlari, shart-sharoitlaridan kelib chiqib shaklantirganligi jahon tajribasida sinab ko‘rilgan. Ammo demokratik jarayonlarni tashqaridan turib tiqishtirish va sun’iy ravishda tezlashtirishga, demokratiyaning universal modellarini joriy qilishga urinishlar ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqarishga, xavfsizlikka rahna solishi mumkin. Bular ham demokratik jamiyat barpo etishimizda e’tibor berishimiz kerak bo‘lgan muhim jihatlardir.

Demokratiyaning milliy va umumjahon e’tirof etgan tamoyillarini aniq tasavvur etishda, avvalambor, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmun mohiyatini o’rganish muhim. Mamlakatimizda demokratiyaning qaror topishi, O’zbekistonning dunyo hamjamiyatida o’z o’rniga ega bo‘lishi, fuqarolarimizda mustaqil demokratik tafakkurni shakllantirish, milliy ma’naviy merosimizni qadrlash, yoshlar ongida vatanparvarlik, milliy g’urur iftixor tuyg‘ularini mustahkamlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Bular quyidagilarda o’z aksini topadi:

Birinchidan, bugun dunyodagi aksariyat mamlakatlarida demokratik jamiyat qurish to‘g’risida muayan ilmiy, nazariy konsepsiyalar amaliyatga joriy qilinmoqda. Ularda demokratik jamiyatga xos umuminsoniy qadriyatlar o’z ifodasini topmoqda. Lekin uning har bir davlatga xos jihatlari, xalqning milliy – ma’naviy negizlari bilan bog‘liq tamoyillari ham mavjud bo‘lib, bunda ma’naviyatimizga xos bo‘lgan xususiyatlar muhim ahamiyat kasb etadi;

Ikkinchidan, bugungi kunga kelib dunyoning aksariyat davlatlarida umumbashariy va milliy qadriyat sifatida demokratiya inson hayot tarzining eng maqbul jihatni ekanini deyarli barcha e’tirof etayotgani va uning keng ko‘lam kasb etayotganligi bu jarayonning umumjahon e’tirof etayotgan qonuniyatlardan biri ekanligini tasdiqlamoqda;

Uchinchidan, Chuqur tarixiy ildizlarga ega milliy davlatchilik negizlarimizni inobatga olish, demokratik qadriyatlarimizning milliy xususiyatlari bilan hisoblashish milliy

mustaqil davlatchiligidan tiklash, millat taraqqiyoti va istiqboli uchun xizmat qilishida asos bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz;

To'rtinchidan, milliy davlatchilik negizlarimizga tayanuvchi ilg'or, insonparvar qarashlar tarixda xalqimiz orasidan yetishib chiqqan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoiy insonlar faoliyatida o'z aksini topganligi va ular faoliyati bilan bog'liq bilimlarni yoshlar ongiga singdirish fanning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Ming yillar o'tsa ham, ulug' ajdodlarimizning matonati va qahramonligi xalqning xotirasidan o'chmaydi. Chunki ular o'z yuksak g'oyalari bilan Vatan ozodligi, el-yurt baxt-saodati, ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shganlar. Jumladan, buyuk tasavvufshunos diniy ulamo Ahmad Yassaviy o'z ta'limotini ilgari surganida, Najmiddin Kubro mo'g'ul bosqinchilariga qarshi jang qilganda ham ulug'vor g'oyalarni ilgari surdilar. Inson va jamiyat hayotida g'oyalarni masifikalarining namoyon bo'lishi ijtimoiy-ma'naviy ehtiyoj ifodasidir.

Sharq va g'arb sivilizatsiyalari tutashgan mintaqada joylashgan O'zbekistonda ham **umume'tirof etilgan demokratiya tamoyillari milliy qadriyatlar** bilan uyg'unlashtirilmoqda. Bunday holat dunyoning ayrim sharq mamlakatlarda amal qilsa-da, O'zbekistonda ham o'ziga xos mazmunga ega. Bu demokratik jamiyat qurishning umumjahon e'tirof etgan qonuniyatlarini va uning O'zbekistonda o'ziga xos taraqqiyot yo'li mavjud ekanligidan dalolat bermoqda.

Yuqorida demokratik qadriyatlarning muayyan sharoitlarda mahalliy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy shakllarda namoyon bo'ladi, dedik. Binobarin, har bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Xalqlarning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbayi bo'lib xizmat qilgan. I.A.Karimov bu borada fikr yuritib shunday deb ta'kidlaganlar: "Uzoq davom etgan kuchli

mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi ajdodlardan-avlodlarga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvvafaq bo'ldi"²⁰. Binobarin, har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Qadriyatlar haqida fikr yuritganda uning ikki tarkibiy qismini nazarda tutmoq kerak. Bunda, eng avvalo, insonning ob'ektiv olamga nisbatan bo'lgan faoliyatini alohida tahlil qilish zarur. Aslida umuminsony qadriyat tushunchasiga moddiy va ma'naviy muhit, yashash shart-sharoitlarining rivojlanishi, davr ruhi va yangi ijtimoiy ehtiyoj hamda taraqqiyot uchun asos bo'lgan qadriyatlar kiradi. Umuminsoniy qadriyatlarning asosiy vazifasi olamni bilish va uni amaliy o'zgartirishning muhim omilidir. O'z davrida buyuk sarkarda Amir Temur qanchalik taqvodor, asl musulmon bo'lmasin, qonunchilikning diniy va dunyoviy jihatlari borligini, ularni hisobga olish kerakligini juda to'g'ri anglagan. Amir Temur qonunchilik deganda faqat shariat qonunchiligini emas, balki boshqa xalqlar qadriyatları, urf-odatlarini ham tushungan. «Milliy qadriyatlar – millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan jihat va xususiyatlar. O'z milliy qadriyati bo'lmasan millat yoki elat bo'lmasa kerak. "Millatning tanazzuli – milliy qadriyatlarning tanazzulidir. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma'naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi".²¹ Negaki milliy qadriyatlar nafaqat mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biri, balki demokratik, adolatli, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosiy manbayi hamdir. Markaziy Osiyo xalqlarining asrlardan-asrlarga meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatları uzoq tarixiy jarayonda

²⁰ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, баркарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997, – Б. 14.

²¹ Мустакиллик изоҳли илмий-оммабоп лугат. А.Жалолов ва К.Хоназаров умумий таҳририда. –Т.: Шарқ, 1998, – Б. 141.

shakllangan va ko'plab og'ir sinovlarni boshdan kechirgan. Darhaqiqat, mintaqamiz xalqlari 3000 yildan ortiq davrni mujassamlashtirgan Markaziy Osiyo sivilizatsiyasini yarata olganlar.

"Shu bilan biga o'tmish qadriyatlariga, an'analariga va turmush tarziga betartib ravishda, orqa-ketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka – hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin"²², deb ta'kidlaydi Islom Karimov. Biz bugungi kunda haqiqiy qadriyatlarimizni tadrijiylik, andishalilik, har qanday ziddiyat va bo'hron paytida sabr-toqatli bo'lish, vazminlik, mulozamatda sertakalluflik, keksalarga munosabatda hurmat, kichiklarga izzat, turmushda bosiqlik asosida rivojlantirmoqdamiz.

Millat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotning takomillashib borishi, yashash va mehnat qilish sharoitlari o'zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib borishiga imkon yaratiladi. Har bir qadriyat ma'lum konkret davr, sharoit va ehtiyojlarning mahsuligina emas, balki uning ko'zgusi hamdir. Shu nuqtayi nazardan, qadriyatlarning demokratik tamoyillar bilan qaror topishidagi o'rniغا baho berishdan oldin ulardan foydalanishda ikki omilga alohida e'tibor berish kerak: birinchisi – qaysi bir qadriyatlarning yuzaga kelgan aniq tarixiy sharoitlar, ikkinchisi o'sha davrga xos bo'lgan imkoniyat va ehtiyojlar. Shuningdek, umumbashariy demokratik qadriyatlarni – uning qaysi zamin ehtiyoji asosida vujudga kelganligi, ular o'rtaida qanday uyg'unlik mavjud bo'lganligi, vorisiylik masalalarini ham o'rganish zarur. Bu holatlar O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning muhim shartidir.

Demak, umuminsoniy qadriyat deganda, jamiyat a'zolarining hammasi uchun umumiylahamiyatga ega bo'lgan va har bir shaxsning hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ijobiy ta'sir etadigan, kishilarning xatti-harakati, amaliy faoliyati, yashash

²² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсагасида: ҳафғизликка таҳдид, баркарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997, – Б.138.

tarzi, boshqalarga munosabati ham umuminsoniy mezoni sifatida baholanadi. Shu bilan ham umuminsoniy qadriyatlar tizimida demokratik tamoyillarning o‘zi uning shakllanishi uchun keng yo‘l ochib beradi. Biroq bundan milliy qadriyatlarning o‘rnini ana shu tizimda passiv holatda ekan-da, degan xulosani chiqarmaslik kerak. Negaki, qadriyatlar tizimida millat, unga xos bo‘lgan belgilar, jihatlar, xususiyatlar, ularning vujudga kelish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan hudud, makon va u bilan bog‘liq tuyg‘ular demokratik jamiyatni barpo etishda muhim o‘rin egallaydi. Milliy qadriyatlar shaxs qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lovchi zanjirning muhim va asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Shunga ko‘ra, millat har qanday milliy qadriyatlarning ob‘ekti, unig yaratuvchisi va milliy qariyatlar tizimida asosiy tayanadigan ijtimoiy tayanch hamdir. Millat o‘zining qadriyatlarini muttasil vujudga keltirib turganligi bilan ham yashovchanlik xususiyatiga ega bo‘ladi.

Milliy qadriyatlar o‘tmishdan kelajakka rivojlanish jarayonida ularni doimiy takomillashtirib, yangi-yangi qirralarini vujudga keltiradi. Aynan ana shu jarayon adolatli va demokratik jamiyatning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Demak, birinchidan milliy qadriatlarsiz demokratiya tamoyillarini hayotga joriy etish, uni har bir shaxsning turmush tarziga aylantirish mumkin emas. Demokratiya nafaqat shaxs faoliyati, balki u millatning ruhiyati hamdir. Ikkinchidan, demokratik jarayonlar davomida mavjud qadriyatlar tizimining o‘zi ham rivojlanib, o‘zgarib boradi. Uchinchidan, millat milliy qadriyatning haqiqiy egasi. Demak, millat uning makon va zamondagi harakati ham, o‘tmishdan kelajakka tomon yashashi ham, avloddan-avlodga yetkazib beruvchisi ham, uning asosiy ob‘ekti hamdir. To‘rtinchidan, milliy qadriyatlarning takomillashmaganligi millatning yo‘q bo‘lib ketishi va oxir oqibatda egasiz bo‘lib qolishining boshlanishidir. Sobiq sho‘rolar davrida millatga bo‘lgan hujum, eng avvalo, uning qadriyatlariga bo‘lgan hujumdan boshlanganligi tasodifiy hol emas edi.

Har bir xalqning milliy ongida shu xalqqa xos va mos bo‘lgan, tarixan shakllangan asosiy jihatlar borki, u shu xalqning ruhiyatini, mentalitetini, xarakterini ifodalaydi va ular mamlakatning siyosiy tizimida o‘zining izlarini qoldirmasligi mumkin emas. Albatta, dunyo taraqqiyotida demokratiya umuminsoniy qadriyat sifatida turli xalqlar, millatlar tafakkuri va turmush tarziga singgan, e’tirof etilgan va shunga mos e’tibor berilayotgan, amal qilib kelinayotgan boshqarish uslubidir. Bu umumiyl qonuniyat. Ayni paytda, ana shu umumiyl qonuniyatning ikkinchi muhim bir jihatini hisobga olmaslik ham mumkin emas. Bu har bir xalqning hayot tarzi, mentaliteti, demokratiyanı his etish, anglash va unga amal qilish xususiyatining mavjudligi bilan bog‘liq. Dunyoda barcha xalqlar uchun yagona siyosiy idora etish uslubi ham, yagona jamiyat andozasi ham yo‘q. Birini ikkinchisidan afzal ko‘rish ham mumkin emas. Umuminsoniy qadriyatga aylangan demokratianing hamma uchun muhim va ahamiyatli bo‘lgan jihatlarini tan olib, uning har bir xalq milliy ma’naviy ruhiyati asosida qaror topishi va umuminsoniy hodisaga aylanishini e’tirof etmaslik jamiyat rivojiga, demokratik taraqqiyot mantig‘iga to‘g‘ri kelmaydi. Demokratiya qanchalik umuminsoniy ma’no va qadriyat kasb etmasin, uning negizini, unga ruhiy kuch-quvvat beradigan, uni boyitib turadigan, rang-barangligini ta’minlaydigan milliylik, milliy ruhiyat, milliy ma’naviy qadriyatlardir. Demokratiya milliylikni, milliy ruhiyatni hisobga olmasa, unga tayanmasa, o‘z mohiyatiga zid bo‘lib qoladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning «Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini bиргаликда barpo etamiz» O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisida: Bugun zamonning o‘zi barchamizning oldimizga, birinchi navbatda, O‘zbekiston Prezidenti sifatida mening oldimga yangi va g‘oyat mas’uliyatli vazifalarini qo‘ymoqda. Ana shu asosiy vazifalar haqida bugun ushbu yigilishimizda qisqacha axborot berishni o‘rinli, deb hisoblayman.

Birinchidan, biz muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov boshlab bergen keng ko‘lamli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar yo‘lini og‘ishmasdan, qat’iy va izchil davom ettiramiz. Bu yo‘l – erkin, demokratik, insonparvar davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish va yanada ravnaq toptirishning mustahkam zaminidir. Men mamlakat Prezidenti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi talablarini qat’iy va so‘zsiz bajarish, qonun ustuvorligini ta’minalash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minalaydigan ichki va tashki siyosatni amalga oshirishni o‘zimning eng asosiy burchim va vazifam, deb hisoblayman. Ana shu fundamental tamoyillarni ro‘yobga chiqarishga doir amaliy sa’y-harakatlar to‘g‘risida men Konstitutsiyamizning 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishdagi ma’ruzamda o‘z fikrlarimni bayon qilganimdan, albatta, barchangiz xabardorsiz, deb o‘ylayman.

Shu munosabat bilan Qonunchilik palatasi Spikeri va deputatlar, Senat Raisi va senatorlardan Prezidentning Davlat maslahatchilari xizmatlari hamda Hukumat bilan birgalikda mamlakatimizda kelajakda amalga oshiriladigan islohot va o‘zgarishlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va mustahkamlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqishni so‘rayman.

Ikkinchidan, mamlakatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolar totuvligi, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini ko‘z qorachig‘idek saqlash hamda mustahkamlashni o‘zimning ustuvor vazifam, deb hisoblayman. Ma’lumki, yurtimizda vijdon va e’tiqod erkinligi, turli millat vakillarining huquqlari keng kafolatlanib, diniy bag‘rikenglik muhiti mustahkamlanmoqda.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda biz, ilgarigidek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari - mahallalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin va xolis ommaviy axborot vositalari faol o‘rin egallaydi, deb ishonamiz.

«Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari» degan muhim tamoyilni amalga oshirishda biz, avvalo, ana shu ijtimoiy institutlarning kuch va imkoniyatlariga tayanamiz. Shu munosabat bilan xalq hokimiyatining eng muhim poydevori sifatida jamoatchilik nazorati institutini kuchaytirish bo'yicha mamlakatimiz Konstitusiyasi ning 32-moddasida, shuningdek, «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida», «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi qonunlar va boshqa hujjatlarda muhrlab qo'yilgan talablarning ijrosini ta'minlashga alohida e'tibor qaratamiz.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Milliy g'oya rivojlanishida demokratik g'oyalarni qaysi manbalarda ko'rish mumkin?
2. "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" konsepsiyasida keltirilgan demokratik prinsiplarni izohlang.
3. O'zbekistonda demokratik jamiyat rivojini milliy g'oya bilan bog'liqligini qiyosiy tahlil qiling.

6-MAVZU: O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISHNING HARAKATLAR STRATEGIYASI – MILLIY TARAQQIYOT ASOSI

Reja:

1. O'zbekistonning rivojlanishi – harakatlar strategiyasini milliy g'oya maqsadlari bilan bog'liqligi.
2. O'zbekiston rivojlanishi harakatlar strategiyasining ustuvor yo'naliishlari.
3. Harakatlar strategiyasini milliy va umuminsoniy demokratik taraqqiyot asosi va uning ahamiyati.

Mamlakatimiz hayotida 2017-yil 4-dekabr unutilmas tarixiy kun bo'lib qoldi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shu kun O'zbekiston Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Xalqimiz o'zining buyuk siyosiy irodasi, huquqiy madaniyatini namoyon etib, xalqimizning farovon hayoti uchun ovoz berdi. Demokratik talablarga to'liq mos tarzda, milliy saylov qonunchiligi va xalqaro standartlar doirasida, ochiq va oshkora o'tgan saylov jarayonini 5 ta nufuzli xalqaro tashkilot va 46 ta davlatdan 600 ga yaqin kuzatuvchi kuzatib bordi.

Yuksak saviyada o'tgan O'zbekiston Prezidenti saylovida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston liberal demokratik partiyasidan nomzod sifatida ishtirok etgan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev saylovchilar umumiyligi sonining 88,61 foiz ovozini olib g'olib bo'ldi. 2016-yil 14-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishi tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Tantanali marosimda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladidi. Davlatimiz rahbari yaqin va o'rta istiqbolda mamlakatimiz oldida turgan eng muhim va dolzarb masalalarga atroflicha to'xtalib o'tdi. Ma'lumki, bu vazifalar Prezidentimizning saylovoldi dasturida alohida e'tibor qaratilgan edi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat Toshkent shahri saylovchilar vakillari bilan

o'tkazilgan uchrashuvlar jarayonida ular yanada boyitildi. "Bizning vazifamiz – to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyangan holda, - deydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Prezidenti lavozimiga kirishi marosimiga bag'ishlangan nutqida, - o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat'iy amalga oshirishdan iborat. Shu borada yaqin va o'rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat'iyat bilan harakat qilishimiz zarur. Shu maqsadda 2017-2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqish yaqin kunlarda yakunlanadi".

Haqiqatan ham, Prezidentimizning bevosita rahbarligi ostida "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" Davlat dasturini ham o'z ichiga oladigan mazkur keng ko'lamli dasturiy hujjat har tomonlama puxta ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevralda imzolagan farmoniga muvofiq uni hayotga joriy etish bo'yicha qonuniy tamoyil va mexanizmlar tasdiqlandi. Mazkur farmonga berilgan sharhda harakatlar strategiyasining ahamiyati alohida ta'kidlanib, bu boradagi loyihalarni tayyorlash davomida aholining keng qatlamlari orasida qizg'in muhokamalar olib borilgani, ular turli axborot maydonlariga joylashtirilgani, buning natijasida ko'plab taklif mulohazalar kelib tushgani, xususan, "Qonun hujjatlari ta'sirini baholash tizimi" portalida yo'lga qo'yilgan muhokamalar tufayli kelib tushgan 1310 ta taklif mulohaza asosida "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" Davlat dasturining 41 ta bandi qayta ko'rib chiqilgani qayd etiladi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatimizda ham, chet el ijtimoiy siyosiy doiralar tomonidan ham katta qiziqish va e'tibor bilan o'rganilmoqda. Bu borada atoqli olimlar, nufuzli ekspert va kuzatuvchilar, turli darajadagi ko'zga ko'ringan rahbarlar o'z fikr-mulohazalarini bildirishmoqdalar. Harakatlar strategiyasining har bir ustuvor

yo‘nalishi mamlakatimiz taraqqiyoti uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari.

1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish: davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarini yanada kengaytirish;

qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini qabul qilinayotgan qonunlarni amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta’sirini kuchaytirishga yo‘naltirgan holda tubdan oshirish;

siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish.

1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish:

davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini davlat boshqaruvining markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta’minoti darajasini oshirish, hamda iqtisodiyotni boshqarishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali isloh qilish;

mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha vazifalarni amalga oshirishda o‘zaro manfaatlari hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, jismoniy va yuridik shaxslarining huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish;

«Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko‘rsatishning samarasi, sifati va aholi hamda

tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish.

1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish:

xalq bilan samarali muloqot mexanizmlarini joriy qilish; jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish;

fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish;

mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rnini va faoliyatining samaradorligini oshirish;

ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalislarning professional faoliyatini himoya qilish.

II. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloq qilishning ustuvor yo'naliishlari.

2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish:

sudyalar va sud apparati xodimlarining mavqeini, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minlash darajasini oshirish, sudsarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish;

sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud protsessual tomonlarining tortishuvi va teng huquqligi tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish;

«Xabeas korpus» institutini qo'llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish;

sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash;

sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish.

2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash:

fuqarolarning murojaatlarini o‘z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko‘rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va befarq munosabatda bo‘lish holatlariga yo‘l qo‘yanlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko‘rish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minlash;

fuqarolarining xususiy mulkka bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash;

fuqarolarning odil sudlovga to‘sqiniksiz erishishini ta’minlash;

sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish.

2.3. Ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini takomillashtirish:

jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoysi qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonpapvaplashtirish;

odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish, ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik sud ish yurituvining protsessual asoslarini takomillashtirish;

jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik ishlarini ko‘rib chiqish tartibini takomillashtirish, bir birini takrorlovchi vakolat va instansiyalarni qisqartirish;

elektron sud ish yurituvi va ijro ishi yurituvining zamonaviy shakl va usullarini joriy etish.

2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish:

jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish;

diniy ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni yanada kuchaytirish;

korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish;

aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish.

2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash:

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar ishini samarali rejalashtirish va uning natijalarini tahlil qilish, tizimli huquqbazarliklarni aniqlash hamda ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar xodimlarini o'qitish, tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, rotatsiya qilish tizimini takomillashtirish;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar xodimlari orasida huquqbazarliklarni oldini olish, profilaktika qilish va bartaraf etish bo'yicha idoraviy nazoratning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.

2.6. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish:

davlat hokimiyyati va boshqaruva organlarining yuridik xizmati faoliyati samaradorligini oshirish;

advokatura institutini rivojlantirish, jinoyat, fuqarolik, ma'muriy va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqishda advokat o'rmini oshirish;

notariat va FHDYO organlari tizimini isloh qilish.

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishari

3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish:

qabul qilingan o‘rtta muddatli dasturlar asosida makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, tarkibiy va institutsional o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minalash;

harajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganligini saqlangan holda Davlat byudjetining barcha miqyoslarida muvozanatni saqlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga yo‘naltirilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

ilg‘or xalqaro tajribaga muvofiq instrumentlardan foydalanish hisobiga pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, milliy valyutaning va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini ta’minalash;

erkin konvertatsiyani ta’minlovchi valyutaga oid munosabatlarni tartibga solish, milliy valyuta kursini shakllantirishda zamonaviy bozor mexanizmlarni joriy etish;

soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddallashtirish yo‘lini davom etish, soliq ma’muriyatichilagini takomillashtirish va rag‘batlantirishning tegishli choralarini kengaytirish;

bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchligilagini mustahkamlash, istiqbolli investitsion loyihalari hamda kichik biznes va tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish;

yangi turlardagi sug‘urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hisobiga ularning hajmini kengaytirish va sifatini oshirish, kapitalni jaib qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, shu jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish yo‘li bilan, puxta o‘ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishini davom etish, jalb qilingan xorijiy investitsiyalar va kreditlardan samarali foydalanish;

3.2. Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va difersifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:

milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta’minalash, uning tarkibida sanoat, xizmatlar ko‘rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko‘paytirish;

ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmadagi loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan aktiv investitsiya siyosatini olib borish;

sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom-ashyo resurslarini chuqur qayta ishslash asosida yuqori qo‘srimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tkazish orqali yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakkantirish hamda mahsulotlar va xizmatlar ko‘rsatish bozorlarida monopoliyani bosqichma- bosqich kamaytirish;

prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiyalar turlarini chiqarishni o‘zlashtirish, bunga, asosan, ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta’minalash;

ishlab chiqarish mahalliylashtirishni rag‘batlantirish siyosatini davom etish hamda, eng avvalo, iste’mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o‘mini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

iqtisodiyotning energiya va resurs sarfini qisqartirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni

kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;

erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarni tashkil etish, amaldagi zonalarning samaradorligini oshirish;

xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlar roli va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning tuzilmasini, eng avvalo, xizmatlarning zamona viy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

eksport faoliyatini liberallashtirish va soddallashtirish, eksportning tuzilmasi va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy sohaga, boshqarish tizimiga informatsion-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish;

3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni muttasil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotni ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorining eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

paxta va boshqoli don ekiladigan maydonlarni qisqartirib, ekin maydonlarini yanada maqbullahtirish, bo'shab qolgan yerlarga kartoshka, sabzavot, oziq-ovqat, moyli ekinlarni, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish;

qishloq xo'jalik ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega, kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan hayvonot turlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

fermer xo'jaliklar, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarni ishlab chiqarayotgan, qayta tayyorlanayotgan, tayyorlash, saqlash,

sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishslash, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini, shuningdek, qadoqlash buyumlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologiyali uskunalar bilan jihozlangan, qayta ishlovchi yangi korxonalarni qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish yuzasidan investitsiya loyihibalarini amalga oshirish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarni saqlash, transportirovka qilish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlarni ko'rsatish infratuzilmasini yanada keygatirish;

sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, meliorativ va irrigatsiya ob'ektlarning tarmog'ini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, zamonaviy suv va resurslarni tejaydigan agrotexnologiyalarni joriy etish, unumidorligi yuqori qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish;

global iqlim o'zgarishi va Orol dengizi qurib qolishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni ko'rish;

3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulkning huquqlarini himoya qilish va uning istiqbolli rolini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, barcha turdag'i to'sqinliklar va cheklanishlarni bartaraf etish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish yo'lida to'liq erkinlik berish, amaliyotda "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi", degan prinsipni amalgi oshirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning noqonuniy aralashuvini qat’iy oldini olish;

davlat mulkini xususiylashtirish tartib-taomillarni yanada kengaytirish va soddalashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg‘armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulkining xususiylashtirilgan obyektlarning bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

korporativ boshqaruvining zamонавиј standartlar va usullarni joriy etish, korxonlarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;

tadbirkorlik sub’ektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanish tartib-taomillar mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini detsentralizatsiya qilish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlar va o‘zini o‘zi boshqarish organlarining rolini oshirish;

3.5. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarning kompleks va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

sotsial-iqtisodiy jadal rivojlanishi, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral va xom-ashyo, sanoat, qishloq xo‘jaligi, turizm va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta’minlash;

hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish masshtablarni kengaytirish hisobiga hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasidagi farqini kamaytirish, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini o’stirish yo‘li bilan qiyoslangan tuman va shaharlarni jadal rivojlantirish;

yangi sanoat ishlab chiqarish va servis markazlarini tashkil etish hisobiga shahar tipidagi kichik shaharlar va shaharchalarni

aktiv rivojlantirish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalgilish;

subvention tuman va shaharlarni kamaytirish, sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

sanoat va boshqa ishlab chiqarish ob'ektlarni joylashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmasini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish;

3.6. Turizm sohasini rivojlantirish:

turizm tarmog'ini jadal rivojlantirish, turizm sohasini boshqarish tizimini takomillashtirish;

turizm sohasida viza, litsenziya berish va ruxsat olish tartib-taomillarini soddalashtirish;

xorijiy investitsiyalar, jahon brendlarini faol jalgilish, turizm sohasida biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

yangi turizm yo'nalishlarini yaratish, turizmnинг zamonaviy turlarini rivojlantirish, ularning jozibadorligini oshirish.

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

4.1. Aholining bandligi va real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish:

aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalarni va aholining daromadlari bo'yicha farqlanishi darajasini yanada qisqartirish;

byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalarning hajmini infliyatsiya sur'atlariga nisbatan jadal miqdorda bosqichma-bosqich oshirish;

yangi ish o'rinnari yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining oqilonaga bandligini

ta'minlash, mehnat bozori infrastrukturasing mutanosibligi va rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini qisqartirish;

mehnatga qobiliyatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini oshirish, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish;

4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish:

aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga qaratilgan dastlabki bo'g'ini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish, aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatga erishishini kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada amalga oshirish;

pensionerlar, nogironlar, yolg'iz keksalar va aholi boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot faoliyatini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanishini yaxshilash, ular narxlarining

asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholi kasallanish ko'rsatkichlari pasayishini va hayotining davomiyligi uzayishini ta'minlash.

4.3. Arzon uy-joylar qurish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish:

aholining, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashovchilar va fuqarolarning uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj boshqa toifalarining yashash shart-sharoitlarini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shaharlar va qishloq joylarida arzon uylarni qurish orqali yanada yaxshilash;

kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, eng avvalo, yangi suv o'tkazish tarmoqlarini qurish, zamonaviy tejamkor va samarali texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarida aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishini tubdan yaxshilash;

odamlar yashashining ekologik xavfsizligini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholini chiqindi yo'q qilishning zamonaviy ob'ektlari bilan ta'minlash;

holiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atmosferaga zararli ifloslantiruvchi moddalarni qisqartirish, yangi har tomonlama qulay avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish;

yo'l infrastrukturasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini jadal davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash;

yangi elektr ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish asosida aholini elektr

energiyasi bilan ta'minlashni yaxshilash, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash, shuningdek, aholini boshqa yoqilg'i-energiya resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

teatr-tomosha, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlanadirish:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;

ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunlari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish;

bolalar maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun maktabgacha ta'lim muassasalaridagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish;

umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika, matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan predmetlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;

bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga jalg qilish, ularni musiqa va san'at olami bilan bog'lash maqsadida yangi bolalar sporti ob'ektlarini, bolalar musiqa va san'at muktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarining ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

ta'lif va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lif muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lif muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyatga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:

jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lif muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb qilish;

yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda amalga oshirish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lif muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

V. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro

manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlari

5.1. Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar:

O‘zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;

axborot xavfsizligini ta’minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o‘z vaqtida va mutanosib ravishda qarshi harakatlarni tashkil etish;

fugorolik, millatlar va konfessiyalararo tinchlik va totuvlikni mustahkamlash;

davlatning mudofaa salohiyatini mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va qobiliyatini oshirish;

atrof-tabiyyi muhit, aholi sog‘ligi va genofondiga putur yetkazuvchi ekologik muammolarning oldini olish;

favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

5.2. Chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar:

davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlар to‘la huquqli sub’ekti sifatida o‘rnı va rolini kuchaytirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O‘zbekiston tevaragida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik mintaqasini vujudga keltirish;

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, jahon hamjamiyatiga mamlakatda olib borilayotgan islohotlar haqida xolis axborotni yetkazish;

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatini normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat chegarasining demilitatsiya va demarkatsiya masalalarini hal etish.

Bu sohalardagi vazifalarni amalga oshirish milliy g'oya maqsadlari bilan mushtarak. Uning har bir yo'naliishi milliy va umuminsoniy demokratik taraqqiyotning asosi hisoblanadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. O'zbekistonning rivojlanish harakatlar strategiyasining mohiyati nimada?
2. Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'naliishini milliy g'oya maqsadlari bilan qiyosiy tahlil eting.
3. Harakatlar strategiyasidagi milliylik va umuminsoniylik omillari nimalardan iborat?

7-MAVZU: GLOBALLASHUV DAVRIDA AXBOROT MAKONI VA G'OVAVIY MAFKURAVIY KURASHLAR

Reja:

1. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi.
2. Axborot texnologiyalari globallashuvning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Internet – axborot globallashuvining o'ziga xos vositasi.
4. Globallashuv jarayonida "Ommaviy madaniyat"ning tahdidi.
5. Yoshlarning mafkuraviy immunitetni mustahkamlash omillari.

Globallashuv atamasi dastlab XX asrning 80-yillari boshlarida iqtisodiy sohada sodir bo'lgan o'zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik olim T.Levittning 1983-yilda "Garvard biznes revyu" jurnalida e'lon qilgan maqolasida qo'llanilgan edi. Uni o'rganish jarayoni esa Roland Robertson tomonidan 1985-yili uning jahonni yagona bir butun qilish maqsadiga qaratilgan ob'ektiv jarayonlarning majmuasi sifatida aniqlangan davridan boshlangan.²³ Bu tushunchaga ana shu paytdan boshlab to hozirgacha turlicha qarashlar davom etib kelmoqda. Aksariyat ko'pchilik ilmiy tadqiqotlarda globallashuvni lotin tilidagi "globus" shar, fransuz tilidagi "global" umumbashariy so'zları bilan ta'riflaydilar. Respublikamiz olimlari hamkorligida nashr etilgan "Falsaфа qомусија lug'ati"да "Global (umumbashariy) muammolari" tushunchasi berilgan. Unda bu tushuncha (Fransuzcha global eng umumiyl) o'z ko'lami, qamrovi jihatidan xilma-xil va butun yer shariga, insoniyatga dahldor bo'lgan muammo ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, mazkur lug'atda global muammolar keng ma'noda inson va tabiat o'rtasida o'zaro aloqalarning buzilganligini anglatadi²⁴, deb ko'rsatiladi hamda

²³ Л.Е. Гринин. Глобализация и национальный суверенитет. История и современность. М.: №1, 2005. - С.811.

²⁴ Фалсафа қомусий луғат. Т.: «Шарқ», 2004, – 6.92.

bugun jahonda yuzaga kelgan global muammolarning bir nechta misol tariqasida keltiriladi. Aslida globallashuv XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli daraja va ko‘rinishlarda mavjud bo‘lgan. Dastlab, u stixiyali ravishda kechgan bo‘lsa, ma’lum vaqtidan keyin iqtisodiyotni taraqqiy ettiruvchi omilga aylangan. Uning bu imkoniyatidan hamma manfaatdor bo‘lgan va bu jarayonning avj olishi XXI asrga kirib kelish davriga to‘g‘ri kelmoqda.

Respublikamizda «global» va «globallashuv» tushunchalari va uning jahon miqyosida turli sohalarga o‘tkazayotgan ta’sirini talaba yoshlarga tushuntirish borasida keyingi paytda alohida e’tibor berilayotganligini ta’kidlash lozim bo‘ladi. Jumladan, «Akademiya» nashriyoti tomonidan 2005-yil O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim bakalavriat bosqichi uchun nashr qilingan «Milliy istiqlol g‘oyasi» darsligida alohida «Globallashuv jarayonlarida milliy g‘oyaga ehtiyojning ortishi» mavzusi kiritilgan. Unda mazkur atamaga «Globallashuv turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma’naviyati, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va bog‘liqlikning kuchayishidir»²⁵, degan ta’rif berilgan. Bundan tashqari, Fransuz tadqiqotchisi B. Bandi tomonidan globallashuv jarayoniga berilgan quyidagi uch o‘lchov keltirilgan:

- globallashuv muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;
- globallashuv jahoning gemogenlashuvi va universallashuvi jarayoni;

—globallashuv milliy chegaralarning yuvilib ketish jarayoni²⁶

Ko‘rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan har ikkala ta’rifda globallashuv jarayoniga xos bo‘lgan xususiyatlar o‘z ifodasini topgan. Darslik doirasida turli munozaralar olib borish imkoniyati cheklanganligini hisobga oladigan bo‘lsak, har ikkala ta’rif ham talabalarning bu jarayon haqida tasavvurlari shakllanishiga yordam bera oladi. Jahon olimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda «Globallashuv» tushunchasiga turli ta’riflar berilmoqda va unga turli qarashlar va munosabatlarni bildirish

davom etib kelmoqda. Lekin uning yer kurrasining bir butunligini ifodalash va barcha sohalarning «yagonaligini» ta'minlash jarayoni, omili sifatida qarash umumiy qarashlardan ustuvor bo'lib kelmoqda.

Butun dunyoda e'tirof etilgan ta'rifga ko'ra globallashuv – jahon taraqqiyotining asosiy tendensiyalardan biridir. Savdo va ishlab chiqarish, iqtisodiy, moliyaviy aloqalarning dunyo miqyosida g'oyat kuchayishi, tezlashishi globallashuvning vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Globallashuv – iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarning haddan tashqari intensivlashuvi, eng yangi axborot texnologiyalari va umuman axborotning jihon miqyosida shiddat bilan tarqalishi, xalqaro standartlashuvi va maishiy turmushda, iste'moloda, shu jumladan, nomoddiy iste'molda umumiy qolip hamda andozalarning paydo bo'lishidir²⁷.

Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi - g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi oqibatida unga Yer yuzining barcha mintaqalarida mafkuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb etganligini ifodalovchi tushuncha.

Insoniyat tarixining hozirgi bosqichi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy-ma'naviy, madaniy hayotning barcha sohalarida xalqaro munosabatlarning integratsiyalashuvi va intensivlashuvi bilan xarakterlanadi. Xususan, aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, internet, kosmik teleradioaloqa tizimlarining texnik-texnologik vositalari kuchayib ketishi bilan axborot almashuv, binobarin, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki yo'nalish, tendensiya namoyon bo'lmoqda.

Birinchidan, insoniyat sivilizatsiyasi tarixida erishgan har qanday moddiy va ma'naviy qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib baynalmilallahib, universallashib bormoqda. Boshqacha aytganda, milliylik va

²⁷ Эркаев А. Глобаллапуви: ахборотхуру жиаоммавий маданият. Тафаккур// 2008. №4. –Б.12.

umuminsoniylik tamoyillarining integratsiyalashuv jarayoni kechmoqda.

Ikkinchidan, millatlar va davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishidagi beqarorlik, ular manfaatidagi o'ziga xoslikni mutloqlashtirish insoniyatga, shu jumladan, o'z milatining kelajagiga xavf tug'diradigan salbiy hodisalarining mafkuralashgan holda globallashuviga olib kelmoqda. Bu xalqaro terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm va narkobiznes hodisalarida namoyon bo'lmoqda. Biron-bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli mafkuraviy markazlarning bosimini doimiy ravishda sezib yashamoqda. Bu jarayonning eng muhim xususiyatidan biri turli mamlakatlarni mafkuraviy zabit etish g'oyat katta iqtisodiy manfaatlar bilan chirmashib ketganidir.

Mafkuraviy jarayonlar globallashuvning avj olishida xalqaro elektron axborot tizimi hisoblangan internetning o'rni katta bo'lmoqda. Bu – so'nggi paytda insoniyat tomonidan yaratilgan yangi kashfiyot. Uning imkoniyat darajasi, ijtimoiy funksiyalari ko'لامи cheksiz bo'lib, dunyoda internet ishqibozlari soni tobora ko'payib bormoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, globallashuv ijtimoiy-siyosiy hayotni yangicha tarzda mafkuraviylashtirish bilan xarakterlanib, hamma sohalarga «yangi ta'limot»ni, hayot tarzini singdirishga urinish tarzida yuz bermoqda. «Yangi ta'limot» rolini esa G'arb liberalizmi o'ynamoqda. Kommunizm g'oyasi an'analarini davom ettirgan mafkura ham xuddi shunday izchillik va qat'iyat bilan yangi modellar va yechimlarni hayotga joriy etishga harakat qilmoqda. Zero, liberal "baynalminal kuchlar" ortida xuddi bir zamonalr kommunizm ortida turgandek muayyan davlat manfaatlari yotibdi.

Aloqa tizimlarining globallashuvi axborotlar oqimi ustidan davlat nazoratini susaytiradi. Boshqacha aytganda davlat, hatto, mahalliy ommaviy axborot vositalarini va jahon miqyosidagi yangiliklarni xolis sharhlab, mafkuraviy filtrdan o'tkazib

beradigan mafkuraviy siyosiy imkoniyatlardan ham, vositalardan ham mahrum bo‘ldi. Konkretlashtirib aytganda, dunyo informatsion chegaralari shartli bo‘lib qoldi.

Umuman, mafkuraviy globallashuv jarayonida inson qalbi va ongi uchun kurash o‘ta jiddiy tarzda ro‘y berishini ham e’tibordan chiqarmaslik zarur. Zero, hozir turli usullarda olib boriladigan mafkuraviy targ‘ibot va tashviqotning asosiy maqsadi ham inson qalbi va ongini egallash uchun kurashdir. Chunki har qanday g‘oya inson tomonidan qabul qilingandan keyin amaliy hayot dasturi maqomiga ega bo‘ladi, shaxsni muayyan maqsad sari harakatga keltiradi. Shuning uchun ham bugungi kunda mafkuraviy kurashning bosh maqsadi – shaxs ongini, qalbini egallashdir.

Albatta, mafkuraviy globallashuv sharoitida ezgu, bunyodkor g‘oyalarning umumiylashuv jarayoni ham yuzaga keladi. Demokratiya, gumanizm, tinchlik, barqarorlik, mustaqillik va ozodlik, qonunning ustuvorligi, inson erkinliklari kabi g‘oyalar bunday globallashuv sharoitida umumbashariy qadriyatga aylanib bormoqda. Ezgu, bunyodkor g‘oyalarning universiallashuvi, ularning umumbashariy qadriyatlarga mutanosibligigina insonlarni vayronkor g‘oyalardan saqlab qolishi mumkin.

Hozirgi kundagi mafkuraviy integratsiya jarayonlarida jiddiy intensivlashuvni kuzatish mumkin. Dunyoning tez o‘zgarib borishi mafkuraviy jarayonlarni o‘zgartirib yuborayotgani singari, mafkuraviy jarayonlardagi sifat o‘zgarishlari jahonni o‘zgartirishga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Darhaqiqat, shunday. «Biron-bir hudud yoki mamlakatda paydo bo‘layotgan g‘oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada, odamzot ma’lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli mafkuraviy markazlarning bosimini domiy ravishda sezib yashamoqda»¹.

Shu bilan birga, mafkuraviy ta’sir jarayoni oldingidan ham keng qamrov kasb etib bormoqda. Bu mafkuraviy ta’sirga ijtimoiy

¹ Миллий истикмол яоси: асосий тушунча ва тамойиллар. –Т.:Ўзбекистон, 2001. –Б.23.

hayotning barcha sohalari, aholining turli qatlamlari tortilganida yaqqol ko‘rinadi. Bu jarayon shunchalik kuchlik, bugungi kunda jamiyat hayotining biror-bir sohasini mafkuraviy ta’sirdan tashqarida tasavvur qilish qiyin.

Mafkuraviy ta’sirni amalga oshirishda nodavlat, nohukumat tashkilotlarining roli keskin darajada oshishi ham kuzatilmoqda. Buni katta iqtisodiy resurslarga ega bo‘lgan turli diniy ekstremistik harakatlarning butun bir mintaqalarda o‘z ta’sir doiralarini kuchaytirish yo‘lidagi urinishlari misolida ham ko‘rish mumkin.

Mafkuraviy ta’sir aniq belgilangan maqsadlarga erishish yo‘lida har tomonlama va puxta ishlangan reja asosida amalga oshirilayotganini ham ta’kidlash zarur. Bu jarayonda xilma-xil institutlarning izchil tarzdagи ishtiroki ham ta’milanmoqda. Ana shunday sharoitda davlatlar mafkuraviy tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va xilma-xil g‘oyaviy ta’sirlarning oldini olish, mafkuraviy xavfsizligini ta’minalashni o‘z siyosatining ustuvor yo‘nalishi qilib belgilashga majbur bo‘lmoqda. Mazkur yo‘nalishdagi ishlar izchil amalga oshirilgandagina, g‘oyaviy qarashlardagi farqlardan qat‘i nazar, mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi kishilik jamiyatni taraqqiyotining muhim omiliga aylanadi.

Kinematograf va global mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari. Kino inson ongi va xulqiga ta’sir ko‘rsatishning o‘ziga xos uslublari va imkoniyatlariga ega. Bunday ta’sirning natijalarini kishilarining mashhur kinoqahramonlarga taqlid qilishlarida, ularning xatti-harakatlari, qiliqlari va, hatto, kiyinishlarini takrorlashga intilishlarida ko‘rishimiz mumkin. Kinoqahramonlar aytgan va mashhur bo‘lib ketgan so‘zlar, iboralar va gaplarni ham kinoning kishilar xulqiga ta’sirini ko‘rsatuvchi hayotiy misollar sifatida qarash mumkin. O‘z davrida mashhur bo‘lgan “Tarzan” va “Fontamas” filmlari qahramonlariga taqlidan ularning xatti-harakatlarini takrorlamoqchi bo‘lgan ko‘plab kishilar halok bo‘lgani esa bunday ta’sir hamma vaqt ham ijobiy emasligini ko‘rsatadi.

Mafkuraviy globallashuv sharoitida ulkan industriyaga aylanib ulgurgan kinematograf inson ongi va qalbi uchun kurashning muhim bo‘g‘iniga aylandi. Jahon kinosi rivojiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatgan, undagi ko‘plab yo‘nalishlarni belgilab bergen, bugun ham shunday ta’sir quvvatini saqlab qolayotgan Gollivudda yiliga taxminan 1000 ta film ishlab chiqariladi. Dunyo bo‘yicha esa uning soni o‘n mingdan ortiqni tashkil etadi.

Mafkuraviy globallashuv saviyasi past, axloqsizlik, tubanlik va yovuzlikni targ‘ib qiladigan «san’at asarlari»ning keng tarqalishiga zamin yaratmoqda. Yoshlar o‘zining harakatchanligi va yangilikka intiluvchanligi hamda bo‘s sh vaqt resursiga egaligi tufayli yuksak kommunikativ faollik ko‘rsatishadi. Ularga xos bunday xususiyatlar salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu ularning «yumshoq erotika»dan tortib “ochiq pornografiya”gacha, tajovuzkorlikdan tortib ochiq vahshiylikkacha bo‘lgan hodisalarни o‘zida mujassam etayotgan, turli shakllar va “go‘zal” ko‘rinishlarda inson ongiga kuchli tazyiq o‘tkazadigan kinoobrazlar yordamida tobora faolroq amalga oshirilayotgan agressiv g‘oyaviy ta’sirga berilib ketish xavfining mavjudligi bilan belgilanadi. Zero, I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, “ongi shakllanib ulgurmagan aksariyat yosh tomoshabinlar bunday filmlardan ko‘pincha turli yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizlikni o‘rganadi, xolos. Natijada, ularning diydasi qotadi, qalbidan toshbag‘irlik, zo‘ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olganini o‘zi ham sezmay qoladi. Hatto, shunday tomosha va filmlarning qahramonlariga ko‘r-ko‘rona taqlid qilishni istaydigan yigit-qizlar ham topiladi. Chunki, ular bunday uydirma talqinlar ta’sirida qo‘l urayotgan ishi qanday ayancli oqibatlarga olib kelishini tushunib yetmaydi”.

Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida ommaviy axborot vositalarining o‘rnii. Mutaxassislar fikricha, insoniyat bugungi kunda yangi axborot inqilobini boshdan kechirmoqda va u kishilik jamiyati tarixidagi birinchi inqilob emas.

Ommaviy axborot vositalarining qamrov darjasini, boshqacha aytganda, mahalliy, umummilliy, mintaqaviy yoki xalqaro (global) miqyosda faoliyat ko'rsatishi ham uning ta'sir doirasini ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

1980-yilda tuzilgan CNN (The Cable News Network) kompaniyasi bugungi kunda 24 soat davomida axborot uzatish bilan shug'ullanadi. Hozirda CNN tarkibida yangilik tarqatish bilan shug'ullanadigan 14 ta kabel va sputnik kanallari, 2 ta radiostansiya, 6 ta internet sayti va xorijiy mamlakatlardagi 37 ta byuro faoliyat ko'rsatmoqda. CNN yangiliklari 38 ta kosmik yo'l dosh signallari yordamida uzatiladi, uni 212 mamlakat va hududdagi 1,5 milliard odam bir vaqtning o'zida ko'rish imkoniga ega. 1991-yilning yanvarida aynan CNN yordamida Fors ko'rfazida olib borilgan harbiy harakatlar to'g'ridan-to'g'ri teleefirga olib berildi. 2001-yilning 11-sentabridagi terrorchilik amaliyoti haqidagi telesyujetlar ham shu kompaniya harakati tufayli butun dunyoga voqe'a sodir etilgan joydan to'g'ridan-to'g'ri uzatib turildi.

Axborot texnologiyalari ta'sirida ta'lim olish uzlusiz karakter kasb etmoqda, masofaviy ta'lim olish imkoniyatlari o'smoqda. Bu yosh avlod tomonidan bilimlarning yanada samaraliroq va tezroq o'zlashtirilishiga zamin yaratmoqda. Bugungi kunda Yevropada 240, Shimoliy Amerikada 237, Afrikada 126, Osiyoda 101, Avstraliyada 68 ta universitet va markaz masofaviy ta'limni taklif etayotgani ham fikrimizning isboti bo'la oladi.

Global miqyosdagi ijtimoiy va madaniy-ma'naviy maydon shakllanayotgani madaniyatlararo va sivilizatsiyalararo aloqalarning mustahkamlanishiga yo'l ochmoqda.

Yuqoridaq mulohazalar bugungi kunda turli shakl va mazmundagi axborotlar inson va jamiyat hayoti, taraqqiyoti va kamolotining zaruriy shartiga, OAV esa uni tarqatishning muhim bo'g'iniga aylanganini ko'rsatadi. Xususan, radio, televideeniye, gazeta va jurnallarsiz har qanday ma'lumotli kishi ham murakkab ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarda to'g'ri yo'l topa olishi

qiyin. OAV esa, kishilarga o‘zining individual tajribasi doirasidan chiqishga va keng qamrovli jarayonlar mohiyatini his qilishga yordam beradi.

Internet bugungi axborot makonining muhim bo‘g‘iniga aylandi. Hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmog‘i, balki kosmik aloqa yo‘ldoshlari, radiosignal, kabel televideniyesi, telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. 1 milliard 250 million kishi u yoki bu darajada undan foydalanishi ham mazkur fikrlarning to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, internet bir qator salbiy jihatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Unda o‘z-o‘zini o‘ldirishning oson yo‘llarini targ‘ib qiluvchi 9 mingdan, erotik mazmunga ega 4 mingdan ziyod saytlarning mavjudligi ham buning isboti bo‘la oladi. Mutaxassislar o‘tkazgan maxsus tadqiqotlar barcha mavjud saytlarning taxminan 12 foizi pornografik xarakterga egaligini ko‘rsatadi. Mavjud maxsus dasturlar internet tarmog‘idagi pornografiyaning faqat 90 foizinigina filtrlaydi, ya’ni komyuterdan foydalanuvchining ixtiyoridan tashqarida ekranda paydo bo‘lishi yo‘liga to‘sinq qo‘ya oladi. Demak, qanchalik harakat qilinmasin pornografik mazmunga ega saytlar internetdan foydalanuvchilarning xohish-istagidan qat’iy nazar, ularning ixtiyorini torta oladi. Jumladan, tadqiqotlarda 42 foiz bolalar va o‘smirlar onlayn pornografiya ta’siriga tushishi qayd qilinadi.

Shuningdek, mutaxassislar ma’lumotlariga ko‘ra, internet orqali tarqatiladigan komyuter o‘yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo‘ravonlik va yovuzlik ko‘rinishiga ega, 41 foiz jangari (turli otishmalar va portlashlarga asoslangan) o‘yinlarda esa o‘yin qahramoni o‘z maqsadiga yetishish uchun shunday zo‘ravonlik va yovuzlik sodir etadi. 17 foiz o‘yinlarda ana shu zo‘ravonlik va yovuzlikning o‘zi bosh maqsad hisoblanadi.

Internet rivoji, u berayotgan imkoniyatlar o‘ziga xos qaramlikni ham keltirib chiqarmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha internetdan foydalanuvchilarning taxminan 10 foizi unga mustahkam bog‘lanib qolgan.

Internetdan manfaatdor ijtimoiy-siyosiy kuchlar g‘araz maqsadlarda ham ustalik bilan foydalilanayotganini ta’kidlash zarur.

Diniy ekstremistlar va terrorchilarning internetdagи saytlarida tashkilotning maqsadi, tarixi hamda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy mazmundagi ma’lumotlarga keng o‘rin beriladi. Jumladan, terrorchilar kuch ishlatish yo‘liga o‘tishga go‘yoki majbur bo‘lganlarini asoslashga, terror va qo‘poruvchilik harakatlarini ma’naviy va axloqiy jihatdan oqlashga intilishadi. Bunda o‘zlarini “ozodlik kurashchilar”, “partizanlar”, “qarshilik ko‘rsatuvchilar” deb atagan holda tinchlik tarafdoi qilib ko‘rsatishga va ular bilan kurashda hukumat tinch yo‘l bilan harakat qilish lozimligini asoslashga intilish keng tarqalgan. Ular o‘z saytlarida hukumat tarafidan qo‘llanilayotgan metodlarning “vahshiyligini” yoritishga ham alohida e’tibor beradilar.

Tezkor axborotlar, yangiliklarning bir vaqtning o‘zida bir necha tilda va terrorchilar uchun foydali bo‘lgan yo‘nalishda berib borilishi, ularning faoliyatni oqlovchi, “qahramonligini” kuylovchi qo‘shiqlar, kliplar berilishi bunday saytlarning mafkuraviy hamda emotsiyal ta’sir quvvatini oshirishga xizmat qiladi.

Bunday saytlar, bir tomondan, terrorchilik tashkilotining faol a’zolariga, ikkinchi tomondan, terrorchilarning asl maqsad-muddaolarini bilmaydigan, ularni “kurashchilar”, “oppozitsiya” va shu kabi ijobiy maqom hamda sifatda qabul qilishga o‘rgangan odamlarga mo‘ljallangan bo‘ladi. Ulardan jamiyatda tegishli ijtimoiy fikrni shakllantirish va qarma-qarshi (dushman) tomonga psixologik ta’sir ko‘rsatish, qo‘rquv, vahima tarqatish orqali ichki ikkilanishni keltirib chiqarishdek maqsadlar ko‘zlanadi.

Ana shunday sharoitda axborot xavfsizligini ta’minlash uchun ham virtual olamda faol harakatlar olib borishimiz zarur. Shundan kelib chiqib, ko‘pgina mamlakatlar axborot sohasida ustuvorlikni ta’minlashni strategik maqsadlarga erishish, milliy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta’minlashning asosiy yo‘llaridan biri sifatida e’tirof etmoqdalar.

Oxirgi yuz yillikda ma'lumotlarni erkin ayriboshlash hamda undan foydalanish imkoniyati cheksiz darajada oshdi. Tarixga nazar tashlasak, radio ixtiro etilgandan 38 yil o'tib dunyo bo'yicha radiotinglovchilar soni 50 mln kishiga yetgan bo'lsa, televideniya uchun 13 yil muddat kifoya qildi. Dunyo miqyosidagi internet tarmog'idan foydalanuvchilar soni 50 mln yetishi uchun 4 yil vaqt yetarli bo'ldi. Dunyo miqyosidagi axborot fazosining vujudga kelishi insoniyat taraqqiyotiga sezilarli turtki berish bilan birga bir vaqtning o'zida salbiy ta'sirini ham ko'rsatdi. Bugungi kunda "kiberjinoyatchilik" va "kiberterrorizm" oddiy so'z bo'lib qolmay, mavjud xavf-xatarlar sifatida insoniyatga tahdid solmoqda. Deyarli har kuni turli mamlakatlarda sodir bo'layotgan yangi ma'lumotlar jamoatchilik diqqatini jalb qilmoqda. XX asr o'rtalaridan fan va texnika taraqqiyoti kuchli axborotlar yig'imini paydo qildi. Ommaviy axborot vositalari (OAV)- matbuot, kino, radio, televideniye, kompyuter aloqasi zamonaviy sotsmadaniyat jarayonida salmoqli o'rinni egallay boshladi. OAV yoki buning boshqacha mass media deb nom olgan turi axborot uzatishdagi kanallarning ko'pligi, tezligi va uzoq ishlashi bilan ulkan pajmdagi axborotlarga ega bo'lmoqda. 1940-50 yillarda G.M. Makmoen asarlarida ommaviy kommunikatsiya birinchi marta madaniyatning yangi tipi va kishilarning ijtimoiy munosabatidagi mutlaqo yangi tip sifatida ta'riflandi. Uning fikricha, bu vosita insonlarning axborot olishdagi raqobat kurashida qudratli kuchga aylanadi.

OAV elektron texnika va yo'ldosh aloqalardan foydalanib, kishilarni ijtimoiy hodisalar va madaniy boyliklarni bir vaqtda idrok qilishga undaydi. G.E. Makmoen ta'kidlaganidek, «Hammabop va omma yoqtiradigan yangi dunyoviy elektron madaniyati» shakllanmoqda.

Haqiqatdan ham zamonaviy madaniyatning xolisona tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ma'naviy madaniyat ko'proq ommaviylik kasb etib bormoqda. **Ommaviy madaniyatning qiyofasi quyidagicha:**

1. U millati, yoshi, joyi, ijtimoiy xususiyatlarga bog'liq bo'lman ommaviy iste'molchilarga ega bo'ladi;

2. Bu madaniyatdagi namunalarni yaratgan jarayonning o'zi ommaviy xususiyat kasb etib, industriyaning maxsus ko'rinishini o'zida namoyon qiladi, ya'ni unda yuz minglab kishilar band bo'lib, ularning «matbuot qiroli», «Buyuk shou tomoshachiları», «kino, TV, estrada yulduzları» bo'ladi.

Ommaviy madaniyat kishilarni hayotni befarq kuzatuvchi tomoshabinga aylantiradi. O'zlar ham mavjud hayotni go'yo sarob kabi tasavvur qiladilar.

Ortega i Gasset ommaviy madaniyatning ta'sir doirasini tahlil etib, omma o'ziga, shaxsga o'xshamay qolishi, kimki boshqalarga o'xshamasa, shulardek fikrlamasa, tahlikada qolishini aytib, «Omma bu yo'riq-yo'nalishsiz oqim bilan suzayotgan odamlar. Shuning uchun ular qobiliyat imkoniyatlari katta bo'lishiga qaramay, hech narsa yaratmaydi. Ommaviy odam axloqdan mahrum, chunki uning mohiyati, ongi burchiga itoatdadir», degan edi.

Ommaviy madaniyat umumiy iste'molchilik ehtiyoji bilan bog'liq. Buning asosida iste'mol talab tovar sifatida xaridorgir bo'lish ma'naviy ehtiyoji yotadi. Oqibatda, hozirgi zamon madaniyatidagi ma'naviy qadriyatlar tor doiradagi ehtiyojlarni qondirish vositasiga aylanadi. Madaniyatning chuqur ma'no-mohiyati, xotira cheksizligi «odatli», «umumiy» qimmatlar bilan, haqiqiy ijod avvaldan ma'lum, mavjud namuna asosidagi «asarlar» yaratish va ishlab chiqarish (kinoseriallar, sayoz TV va adabiy asarlar) bilan almashinadi. Shaxs o'zining ijodiy qobiliyati millatidan ayrilib, tayyor «madaniy mahsulotlar» iste'molchisiga aylanib qoladi.

Islom Karimov bu borada katta tashvish bilan ogohlantirishi bejiz emas: «Tabiiyki, "Ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuq va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik ortirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik,

ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi²⁸.

Ushbu fikrdan kelib chiqadigan xulosa shuki, ommaviy madaniyatni niqob qilib olib buzuqlik va zo‘ravonlik singari inson shaxsini ruhan yemiradigan g‘oyalarni targ‘ib etadigan asarlarning haqiqiy madaniyatga hech qanday aloqasi yo‘q. Ma’lumki, madaniyat «Elita madaniyat» xos madaniyat va ommaviy madaniyatga bo‘linadi. O‘tmishda ommaviy madaniyat xalq baxshilari kuylaydigan dostonlar, sayllarda, to‘ylarda ommaga ko‘rsatiladigan tomoshalar – dorbozlik, askiyabozlik va masxarabozlik, xalq ashulalari kabi ko‘rinishlarda mavjud bo‘lgan. Shu bois u o‘zining xalqchilligi, ezungulik va insonparvarlik ruhi bilan ajralib turgan. Lekin bugun unga ommaviy madaniyatning tarkibiy qismi emas, balki folklor yoki an‘anaviy xalq madaniyati deb qaralmoqda. G‘arbda uni kundalik hayotdan etnografik muzeylar yoki ahyon-ahyonda o‘tkaziladigan xalq sayllari va festivallari tomon siqib chiqarishga urinish kuchli. Zamona viy ommaviy madaniyat esa XX-XXI asrlar sivilizatsiyasi mahsuli o‘laroq standartlashgan iste’mol mahsulotlari va «erkin» xulq-atvor namunalari yig‘indisi sifatida tor mazmunda tushunilayotir.

XX asrda maishiy texnikaning rivojlanishi ommaviy madaniyat shakllarini boyitdi, dastlab potefon va gramplastinkalar, magnitofonlar, ixtisoslashgan estrada janrlari, ansambllari singari yangiliklar paydo bo‘ldi.

Keyinchalik turmush farovonligi o‘sishi bilan iste’molchilik psixologiyasining yanada kuchayishi adabiyotda ko‘ngilochar, mazmunan sayoz sarguzasht va detektiv asarlarning “erkin muhabbat” mavzusidagi kitoblar, kino va tvda “bemaza opera”deb atalmish seriallar, turli audio va video disklar, shou tadbirlarning, ularni ommaviy tarzda ishlab chiqaradigan industriyaning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Tabiiyki, bunday «mahsulotlar»da xalqchillik, milliylik nihoyatda zaif, ular faqat dekoratsiya va mahalliy kolorit sifatidagina qo‘llanadi. Lekin, afsuski, qattiq

²⁸ Каримов И.А. Юксак мънавият-сигнификация куч. Т., Мънавият, 2008. – Б. 117.

raqobat sharoitida ba'zi korchalonlar mo'may daromad ilinjida insonda tuban hirslarni qo'zg'aydigan mavzularni ko'paytirib, asta-sekin zamonaviy aksilmadaniyatni yaratdi.

Ommaviy madaniyatni niqob qilib olgan aksilmadaniyatga, uning didsizligi va axloqsizligiga, insonni haqoratlovchi, tubanlashtiruvchi mahsulotlarga qarshi kurashish kerak.

Ommaviy madaniyatning jozibasi nimada? Nega unga intilish kuchli? Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, hatto, bir xalqqa mansub yoshlar ham, ular har xil ijtimoiy qatlamdan bo'lishiga qaramay, ommaviy madaniyatga birday moyillik ko'rsatadi. Bu holat bиринчи navbatda urbanizatsiya va globallashuv sharoitida turli xalqlar turmush tarzining, hayotiy qarash va mezonlarining yaqinlashuvi, hordiq va iste'molning standartlashuvi oqibatidir.

Buning yana bir sababi, ommaviy madaniyat sari intilishga inson zotiga xos bo'lган azaliy ishtyoqlar, uning shuurida asrlar osha yashab kelayotgan tabiiy-ijtimoiy tenglik mayllari, shuningdek, jamoaviylik psixologiyasi bilan bog'liq arxiteplar ham sabab bo'ladi. Ular millati, tili, dini va madaniyatidan qat'iy nazar, barcha odamlarning ijobiy yoki salbiy narsalarga instinktiv intilishini ma'lum darajada belgilaydi.

Ommaviy madaniyatga shaklan va mazmunan oddiylikning xosligi go'yoki unga egalitar (tenglik, tekischilik) va demokratik tus bergenidek bo'ladi. Masalan, klassik uslubda kiyinish (kostyum va galstuk) o'rniga jinsi va futbolka yoki svitir va krasovka kiyish bamisolai kamtarlik, liberallik ifodasi bo'lib ko'rindi. Bunday holat timsolida go'yoki adolatli tenglik (egalitarizm) namoyon bo'ladi.

Bular ommaviy madaniyatning tarqalishiga ta'sir ko'rsatgan psixologik sababdir.

Ommaviy madaniyat tarqalishining asosiy ijtimoiy sababi esa G'arbdagi an'anaviy qadriyat va ma'naviyatning inqiroz sari yuz tutishidir.

XX asrda sodir bo'lган jahon urushlari g'arb qadriyatlari tizimida parokandalikni kuchaytirdi. Shu tariqa ikkiyuzlamachilikka asoslangan g'arb axloqiy me'yirlari ham

yosh avlodni qanoatlantirmay qo'ydi. Ular «seksual inqilob», turmush hamda muloqot erkinligi va shu kabi boshqa huquqlarni talab qilib chiqdi. Natijada o'tgan asrning 1960-yillari ikkinchi yarmida G'arb davlatlarida yoshlarning ommaviy noroziliklari yuz bera boshladi. G'arbda axloqiy qadriyatlar ma'lum darajada qayta baholandi. Behayolikni ochiq tasvirlaydigan san'at asarlariga nisbatan taqiqlar ancha yumshadi.

Bunday o'zgarishlar natijasida Germaniya va Italiya kabi davlatlarda yoshlarning «qizil brigadalari» deb atalnish terrorchilik to'dalari, G'arbning deyarli barcha mamlakatlarida o'zlarini "Xippi" deb ataydigan guruhlar paydo bo'ldi. Xippilar ochiqchasiga an'anaviy odob-axloq qoidalarini inkor qilib, erkin jinsiy aloqalarni yoqlab chiqdi. Ular yaxshi kiyinishni, ayniqsa, bezaklarni, shuningdek, oilaviy turmush qoidalarini shaxsnинг tabiiy intilishini cheklaydigan ikkiyuzlamachi burjua axloqining sarqitlari, deb e'lon qildi.

1970-yillarning ikkinchi yarmi va 1980-yillarda xippilar o'rnida "pank"lar harakati paydo bo'ldi. Panklar-aksilmadaniyat ruhida tarbiya ko'rgan yoshlarning lyumpen tubanlashgan qatlamidir. Ular aksilmadaniyatning asosiy tayanchi, iste'molchisi va targ'ibotchisiga aylandi. Tan olish kerakki, qisqa muddat davom etgan xippi va panklar harakati ommaviy tus olmadı. Ammo 1960-1970-yillardagi yoshlar harakati G'arb dunyosida jamiyatning madaniy hayotida sezilarli salbiy iz qoldirdi, aksilmadaniyatni qonuniylashtirdi, ommaviy madaniyatni sayozlashuviga katta hissa qo'shdi.

Ommaviy madaniyatning tarqalishi sabablari orasida ba'zi ijtimoiy qatlamlarning rivojlanmagan didiga mazmunan sayoz, siyqa va jo'n mahsulotlarning mos kelishi mavjudligini ham inkor etib bo'lmaydi.

Ommaviy madaniyatning tarqalishiga turtki bo'lgan yana bir sabab shundaki, u ba'zi jihatlari bilan kompensatorlik vazifasini bajaradi, odamlarni turmush muammolaridan, turli qiyinchiliklardan, shaxsiy nomukammallik tuyg'usidan vaqtinchalik xalos qiladi. Odamlar xayolan o'zlarini ermak

teleseriallar qahramoniga o'xshatadi, to'kis hayotga real dunyoda yetisha olmagan kishi filmlar va seriallar orqali virtual (xayolan) tarzda faroyonlikdan, go'zal turmushdan go'yoki bahramand bo'ladi. Ommaviy madaniyatning aynan shunday kompensatorlik xususiyati uni avomga jozibador qilib ko'rsatadi. Bunday asarlar oddiy odamga xush kayfiyat bag'ishlasa, uning kompyuter o'yinlari kabi eng zamonaviy shakllari kishini monitorga, aniqrog'i, undagi o'yinga ruhan tobe qilib qo'ymoqda.

O'tmishda kompensatorlik vazifasini diniy pand-nasihatlar bajargan bo'lsa, endilikda ommaviy madaniyat bajarmoqda.

"Ommaviy madaniyat" milliy g'oyaga zid holatda – axloqsizlikning targ'iboti bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'limoqda. Yangi hayot asoslari barpo etilayotgan bizning yurtimizda bu muammo alohida ahamiyatga ega. Chunki sobiq tuzum barbod bo'lishi oqibatida vujudga kelgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, mohiyatini ma'naviy va axloqiy tubanlik tashkil etgan "ommaviy madaniyat" milliy madaniyatimizga jiddiy xavf solmoqda.

Hozirgi vaqtida axloqsizlikni madaniyat deb bilish va, aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisolli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda"²⁹.

Umuman olganda, globallashuv tufayli paydo bo'lgan qulayliklar g'arazli maqsadlarni ko'zlagan kuchlar uchun ta'sirchan vosita sifatida chiqmoqda. Bunday vositalardan ular iqtisodiy salohiyat, texnika va texnologiya sohasidagi ilg'orlikdan so'ng, ma'naviy sohada ham ustunlikni qo'lga kiritish hamda o'z falsafasi, ijtimoiy taraqqiyot me'yor va mezonlarini sun'iy ravishda "jahon standarti" darajasiga ko'tarish yo'lida keng foydalanmoqda.

²⁹ Каримов И.А. Юксак маннавият – сийилмас куч. – Ташкент: Маннавият, 2008. – Б.116-117.

Albatta, bunday yo'l tutishdan masifikuraviy, siyosiy sohalarda gegemonlik ilinjida bo'lgan ayrim kuchlar manfaatdor emas. Shuning uchun ular ma'naviyatni pasaytirish, ma'naviy tanazzulga olib boradigan usullardan foydalanishni ko'zlaydilar. Bugungi kunda g'oyaviy raqiblarimiz tomonidan "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqsizlikni - "shaxs erkinligi", behayolikni - "demokratiya tantanasi", deb targ'ib etmoqdalar. O'zligini, ma'naviyati va milliy g'ururini saqlab qolishga bo'lgan tabiiy intilishlar esa eskilikka qaytish, ozodlikni bo'g'ish, demokratiya taqchilligi sifatida talqin qilinadi.

"Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. Chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak"³⁰. Demak, "ommaviy madaniyat" asosini ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlari tashkil qiladi. Masalan, bizning milliy madaniyatimizda hayo, andisha, ibo kabi yozilmagan, ammo qat'iy amal qilinadigan qonuniyatlar bor. Lekin "ommaviy madaniyat" jamoat joylarida yigit-qizning bermalol o'pishib turishini tabiiy hol deb qabul qiladi. Shu sababli P. Byukenen Amerika xalqiga qarata deydi: „1950-yillarda boshlangan „ommaviy madaniyat“ harakati 1990-yillarga kelib millatimizni naslsizlik balosiga duchor qildi“ (Smert Zapada. – M.: 2004). „Ommaviy madaniyat“ asta-sekin insonni hayvonga xos xususiyatlarini kuchaytirib boradi.

Bu ma'naviy va axloqiy illatning bir qator ko'rinishlari mavjud. Yurtimizga uning quyidagi shakl va ko'rinishlari uchramoqda:

1. Axloqiy buzuqlik. Jamoat joylarida o'pishish, shahvoniy filmlar ko'rish kabi illatlar paydo bo'limoqda.
2. Zo'ravonlik. Zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi filmlar, kompyuter o'yinlariga odatlanib qolish.
3. Individualizm. „O'zim bo'lsam bo'ldi, o'zga bilan nima ishim bor“ degan “prinsip”ning tarkib topishi.

³⁰ O'sha jojda. – B.117.

4. Egotsentrizm. Barcha narsaga shaxsiy manfaat nuqtayi nazardan yondashish va h.k.

“Ommaviy madaniyat” yoshlarning madaniy ongining to‘g‘ri shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ularni xudbin va xudkush qilib voyaga yetkazadi. Shu ma’noda „ayrim yosh ijrochi va ijodiy guruhlarning jamoatchilik e’tiboriga taqdim etayotgan „asar”lari san’atning hech qanday talab va mezonlariga javob bermaydi. Nafaqat mavzu, musiqa va iijo usullari, balki sahna harakatlarda ham ochiqdan-ochiq ajnabiy „ommaviy madaniyat” ko‘rinishlariga taqlid qilish, „yulduzlik” kasaliga chalinish holatlari tez-tez uchrab turayotgan chinakam san’at murxislarini ranjitmasdan qolmaydi”³¹

Bunday salbiy holatlar yoshlar madaniy ongining noto‘g‘ri shakllanishiga olib keladi. Yana shuni ta’kidlash lozimki, „bizning milliy mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan kliplar, turli tillardagi so‘zлarni qorishtirib yoki talaffuzni ataylab buzib aytish kabi nomunosib harakatlarni ayrim yosh ijrochilar o‘zi uchun qandaydir yangicha uslub deb bilayotgani san’atni, uning mohiyati va ahamiyatini tushunmaslikdan boshqa narsa emas”.

Zero, “ommaviy madaniyat”ning real zararli oqibatlarini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

1. Shaxs madaniy ongini noto‘g‘ri shakllantiradi.
2. Milliy madaniyatni buzadi.
3. Umuminsoniy madaniy qadriyatlarni shubha ostida qoldiradi.

Xalqaro miqyosdagi g‘oyaviy-mafkuraviy munosabat muammolarini hal etish imkoniyati, ko‘p jihatdan, u yoki bu mamlakatning globallashayotgan mafkuraviy jarayonlarga moslashuv imkoniyatlari bilan bog‘liqdir. Ta’kidlash lozimki, mustaqillik yillarda O‘zbekistonning jahon mafkuraviy jarayonlariga moslashuv imkoniyatlari kengaydi. Bu quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston jahondagi barcha mamlakatlarga ochiq davlat sifatida namoyon bo‘ldi;

³¹ O’sha joyda. – B. 142.

- mamlakatimiz o‘z siyosatida milliy manfaatlarini himoya qilishga ustuvor ahamiyat bersa-da, biroq boshqa davlatlar manfaatlarini ham himoya qilish yo‘lini tutmoqda;
- O‘zbekiston xalqaro siyosatida boshqa mamlakatlarning ichki ishlariiga aralashmaslik siyosati tamoyiliga asoslanmoqda;
- O‘zbekiston hukumati jahon mafkuraviy jarayonlarida umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni, g‘oyalarni amalga oshirishdan iborat global hamda lokal siyosatda faol ishtirok etmoqda.

Mafkuraviy poligon – odamlar va xalqlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan turli g‘oyalarni sinov maydoni. Odatta, poligon deganda, quroq-aslaha va texnikani sinash, qo‘sishlarni harbiy tayyorgarlikdan o‘tkazish yoki harbiy sohada tadqiqotlar olib borish uchun mo‘ljallangan maxsus maydon tushuniladi.

Bugungi kunda mafkura poligonlarida muayyan guruhi va davlatlar o‘zlarining g‘arazli manfaatlarini ifoda etayotgan turli tajovuzkor g‘oyalarni sinovdan o‘tkazmoqdalar. Ularning ortida kishilarni, eng avvalo, ma’naviy mafkuraviy jihatdan tobe qilish, pirovard natijada esa butkul qaram qilib olish maqsadi yotadi.

Yadro poligonlarini qayerda joylashganini, uning quvvatini, qanday maqsadga yo‘nalganligini muayyan darajada aniq bilish mumkin. Ammo yovuz, yet mafkuraviy maqsadlarni qayerdan va qanday yo‘llar bilan va qaysi insonlar qalbini egallab olayotganligini osonlikcha bilib bo‘lmaydi.

Bunday sharoitda jamiyatda olib borilayotgan mafkuraviy profilaktika ishlarini yanada takomillashtirish taqazo etiladi.

Mafkuraviy profilaktika – ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshirilayotgan turli shakllardagi g‘oyaviy-tarbiyaviy, ma’naviy-mafkuraviy ishlar majmui bo‘lib, u butun g‘oyaviy tarbiya tizimini qamrab oladi. Mafkuraviy profilaktika bo‘shliqni tugatish, mafkuraviy parokandalikni oldini olish yoki biror-bir hudud, qatlam, guruhni yet va zararli g‘oyalar ta’siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda g‘oyaviy ta’sirning turli xil usul va yo‘llaridan foydalaniladi, turli vositalar

qo'llaniladi. Mafkuraviy profilaktika tezkor va qisqa sur'atlarda yoki asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin. Birinchi holatda zudlik bilan chora-tadbirlar qo'llash lozim bo'lsa, ikkinchi holatda doimiy va sobitqadamlik bilan ish olib borish ko'proq natija beradi. Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda ham mafkuraviy profilaktikaning o'rni katta. Zero, u mohiyatan yot g'oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlarga tayanadi. Ta'lif-tarbiya va targ'ibot-tashviqot tizimi mafkuraviy profilaktikani amalga oshirishga yordam beradi. Sog'lom mafkurani xalq qalbi va ongiga singdirishga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmalar, oila, maktab, mahalla, davlat va jamoat tashkilotlari ham unda o'z o'rniga ega. Shuningdek, Vatan, xalq manfaatlarini, do'stlik va birodarlikni, o'zaro hurmat va bag'rikenglikni targ'ib-tashviq etuvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mafkuraviy profilaktikani amalga oshirish shakllaridir. Mafkuraviy profilaktika asosida fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish imkoniyati yanada oshadi.

Mafkuraviy immunitet- shaxs ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g'oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi.

Immunitet (lot. -ozod bilish, qutulish) tibbiy tushuncha bo'lib, organizmni doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o'zini turli ta'sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmui tushuniladi. Sodda qilib aytganda, immunitet – kishi organizminning turli kasalliliklardan himoya qila olish qobiliyatidir. Yuqoridagilardan farqli o'laroq, insonning umumiy immunitet tizimi tug'ma bo'lsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish zarur. U har bir avlod uchun o'ziga xos xususiyatga ega. Immunitet tizimi shakllangandagina jamiyatda mafkuraviy dahlsizlikni ta'minlash mumkin. Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi elementi – bu bilim. Ammo bilimlarning turi ko'p. Buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasi tarafdozlari ham muayyan "bilim"larga tayanadilar, albatta. Shunday ekan,

mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob'ektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatini boyitishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Ular o'z mohiyat-e'tiboriga ko'ra, Vatan va millat manfaatlari bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak. Mafkuraviy immunitetning ikkinchi asosiy elementi ilg'or bilimlar zamirida shakllanadigan baholar, qadriyatlar tizimidir. Zero, bilimlar qanchalik ob'ektiv va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va zararli g'oyalar yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi. Ammo bilimlar va qadriyatlar tizimi mavjudligining o'zi mafkuraviy immunitetning mohiyatini to'liq ifoda eta olmaydi. Zero, bu ikki element mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim elementi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy sohalardagi maqsadlar tizimi bo'lmas ekan, inson, millat yoki jamiyat goh oshkora, goh pinhona mafkuraviy tazyiqlarga duchor bo'laveradi.

Xalqimizni turli g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlardan asrash, jamiyatda mafkuraviy immuniyet hosil qilish uchun uni, avvalo, taraqqiyot qonunlarini chuqur aks ettiradigan sog'lom, insonparvar g'oya va mafkura bilan qurollantirish kerak. O'zligimizni, odob-axloqimizni, merosimiz, qadriyatlarimiz va milliy ruhimizni zararli g'oyalar va mafkuralar ta'siridan avaylab-asrash, ularga qarshi fuqarolarimiz va yoshlarimiz qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirish orqaligina millatni asrash mumkin.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. “Globallashuv”, “mafkuraviy globallashuv” tushunchalarining mazmun-mohiyati?
2. Globallashuv jarayonida turli xil mafkuralarning namoyon bo'lishini qiyosiy tahlil eting.
3. Hozirgi zamonda axborot makoni va mafkuraviy kurashning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?

8-MAVZU: MILLIY G'oyaga DAHLDORLIK HISSI – BARQAROR TARAQQIYOT OMILI

Reja:

1. “Dahldorlik hissi” tushunchasining ijtimoiy mohiyati.
2. Dahldorlik hissi – ijtimoiy birlik, tinchlik, barqarorlik, vatanparvarlikning muhim omili.
3. Milliy g’oya maqsadlarining har bir inson maqsadi bilan mushtarakligi.
4. Milliy g’oyaga dahldorlik hissini shakllantirishda oila, mahalla, ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlarining o’rni.

Milliy g’urur va dahldorlik hissi bir-biri bilan uzviy bog’liq bo’lgan kechinmalardir. O’zini va o’zgalarni hurmat qiladigan har bir insonda dahldorlik hissi shakllangan bo’lishi kerak. Dahldorlik hissi bu – insonning oilaga, mahallaga, millatga, Vatanga, muayyan bir kasbga, tashkilotga yoki Qurolli Kuchlarga bog’liq ekanligi, ularning taqdiriga befarq emasligi, yutuqlaridan quvonib, muvaffaqiyatsizliklaridan qayg’urishi demakdir. Loqaydlik dahldorlik hissiga zid bo’lgan hodisadir. Dahldorlik hissi vatanparvarlikning yaqqol ko’rinishidir.

Qurolli Kuchlarga dahldor bo’lgan inson o’zining kiyinishi, gap-so’zi, yurish-turishi va qilayotgan har bir xatti-harakatini doimo nazorat qilib yurishi lozim. Misol uchun: birgina nomaqbul ish orqali aholida butun bir tizim haqida salbiy tasavvur paydo bo’lishi mumkin.

Masalan, Qurolli Kuchlarga dahldor bo’lgan xizmatchi o’zining hayosizligi, buzuqligi, axloqsizligi tufayli bir vaqtning o’zida oilasiga, qarindoshlariga, xizmatdoshlariga, tarbiya bergen ustozlariga, qolaversa, butun millatga isnod keltiradi. Dahldorlik hissi shaxsiy tarkibni axloqsiz ishlarni qilishdan doimo qaytarib turadi.

Mamlakatimizda barcha jahhada qonun ustuvorligini ta’minlash, inson, uning hayoti, sha’ni, qadr-qimmati hamda boshqa dahlsiz huquqlarini oliy qadriyat darajasiga ko’tarib,

jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirish yuzasidan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini takomillashtirish, bu borada yaratilgan qonunchilikni amaliyotga tatbiq etish, fuqarolar faolligini oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zamirida ham, avvalo, inson manfaatlari ustuvorligini kafolatlash maqsadi mujassamlashtirilgan.

Dahldorlik hissi kishilarning tarixan qaror topgan birgalikdagi faoliyatları yig'indisi asosida tashkil topadigan fazilat bo'lib, falsafada borliqning tabiatdan ajralib chiqqan, mohiyatan va mazmunan nihoyatda murakkab qismi sifatida dahldorlik hissini tushunsa bo'ladi. Bunda jamiyat hayoti barcha tomonlarining qaror topishi, mavjud bo'lishi va rivojlanishi kishilarning tabiatini va ular orasida mavjud bo'ladigan munosabatlar bilan taqozolanganki, natijada, ijtimoiy hayat mohiyatini va uning assosiy aloqalarini kishilarning amaliy faoliyatining tahlili orqali dahldorlik hissi faoliyatini bir tizimga solish mumkin.

Insonlar, ularning ijtimoiy faoliyati turli holatlar bilan xarakterlanadi. Ya'ni u turli ijtimoiy vazifalarni (rol) bajaradiki, bular shu jamiyatda qabul qilingan me'yorlar va qadriyatlar, shuningdek, individual sifatlar: shaxsning ijtimoiy sifatlari, motivlar (dalil-sabab), qadriyatlarga o'zini moslashtirish, qiziqishlarini o'z ichiga oladi.

Dahldorlik hissi ijtimoiy hayatda nisbatan mustaqil, barqaror, funksional va rivojlanish qonuniyatlariga ega bo'lgan ijtimoiy tizimlar birligidan iboratdir.

Dahldorlik hissida ijtimoiy tizim – murakkab ichki tuzilishga ega bo'lib, tartibli, bir butun, o'ziga xos ijtimoiy aloqadorlik va turli ijtimoiy munosabatlar birligini tashkil etadi. Har qanday ijtimoiy tizim o'zining tarkibiy tuzilishiga ega bo'lib, jamiyatning ayrim tarkibiy tizimlari, masalan: iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy, ijtimoiy turmush, fan va boshqa shu kabi sohalarida, to alohida olingan insongacha bo'lgan ijtimoiy tizimlar shular jumlasidandir.

Dahldorlik hissi ham davrlar rivojlanishida tabiiy-tarixiy jarayon tarzida boradi va ular tarixiy taraqqiyot davomida doimiy rivojlanib boradi.

Bugungi jamiyatimiz hayotida dahldorlik hissini yoshlarda asta-sekin tarkib topib borishi o‘z navbatida boshqa barcha ijtimoiy munosabatlarda muayyan ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi tabiiy. Ayniqsa, bunday o‘zgarishlar shaxs va uning jamiyat hayotidagi munosabatlarida yaqqol ko‘rina boshlaydi.

Avvalo, jamiyat hayotida dahldorlik hissini shakllantirishning muhim omillaridan biri ma’naviyat bo‘lib, o‘zining insonga xos ijtimoiy hayotdagi dahldorlik hissini shakllantirishda sifatiy, tarkibiy tuzilishiga egadir. Dahldorlik hissini yoshlarda shakllantirishda ma’naviyat, madaniyat sohasining mazmuni, eng avvalo, mafkura, axloq, san’at, din va ijtimoiy hayotning boshqa nomoddiy jihatlarida namoyon bo‘ladigan xususiyatlari bilan jamiyatdagi burch va majburiyatlarini ham tushuntirish shart bo‘ladi.

Dahldorlik hissida dunyoqarash shaxs ma’naviyatining asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Dahldorlik hissi muayyan hududda yashayotgan millat va elatlarning, xilma-xil fikriy manfaatlariga mosligida, ularning dunyoviy va ilohiylik xususiyatlari mutlaqo shartli hamda nisbiydir, chunki manfaatlarni integrasiyalashtiruvchi hamda universallashtiruvchi hududning tinchligi, barqarorligi, Milliy g‘oyaga dahldorlik hissi – barqaror taraqqiyot omili ekanligi birinchi o‘rinda turadi.

Yuqoridagi fikrlarni yanada oddiyolashtirish va dahldorlik hissida milliy o‘zlikning boshqa jihatlarini ham ko‘rib chiqish va ketma-ket turli adabiyotlarda milliy o‘zlikka berilgan ayrim ta’riflar bilan keltiramiz.

Dahldorlik hissida milliy o‘z-o‘zini anglashning o‘z mezonlari quyidagilardir:

Birinichdan, o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurt yagonaligini anglash, o‘z ona tilini chuqur bilish va uni hurmat qilish, o‘z milliy madaniyatini va ma’naviy merosini saqlash;

Ikkinchilan, xalqning o'tmishi va bosib o'tgan shonli yo'li, o'ziga xos madaniyati, til birligi;

Uchinchidan, shu yurtning urf-odat va an'analarini, diniy va dunyoviy qadriyat va urf-odatlarini qadrlash;

To'rtinchidan, xalq va millat o'tmishini tushunish va tushuntirish, ajdodlari ilmiy merosini ularning jahon ilm-fani taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini tushunish va tushuntirish.

Tarix shundan dalolat beradiki, siyosiy hayotga nisbatan asosli bo'limgan fikrlar nafaqat O'zbekiston haqida haqqoniy tasavvur shakllanishiga, balki mintaqada va butun dunyoda qiyinchilik bilan barpo etilayotgan o'zaro ishonch makoniga ulkan putur yetkazadi.

Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar boshqa mamlakatlar hayotiy faoliyatiga bevosita dahldor bo'lgan global hamjihatlik jarayonida ishtirok etishdan manfaatdor ekanliklarini allaqachon bildirishgan. Bu borada G'arbiy Yevropa, Janubiy va Shimoliy Amerika, Osiyo va Tinch okeani mintaqalaridagi davlatlar siyosiy tajribasi ham mintaqaga uchun asqotishi mumkin. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, uzoq davom etgan o'zaro ishonchsizlik va, hatto, to'qnashuvlardan so'ng Afrika qit'asi ham aynan shu integratsion jarayonga o'z moyilligini bildirmoqda. Afrika Birdamligi Tashkilotini Afrika Ittifoqiga aylantirish borasida jiddiy ishlar olib borilayotganligi fikrimiz dalilidir.

Shunday ekan, ushbu umumsayyoraviy jarayondan Markaziy Osiyo va, xususan, O'zbekiston ham chetda qololmaydi. Boz ustiga, davlatimiz mustaqillikning dastlabki oylaridan e'tiboran ushbu yo'nalishni o'z tashqi siyosatining ustuvorliklaridan biri sifatida tan olganligi ham bejiz emas. Integrativ tendensiyaning keyinchalik voqelikka aylanishi uchun, xususan, Markaziy Osiyo davlatlarida har qanday boshqa turdosh siyosiy-hududiy uyushmalardan farqli o'laroq, ancha jiddiy, davr sinoviga bardosh bergen madaniy omillar mavjud.

Endigina boshlangan yangi XXI asr butun dunyo, jumladan, O'zbekiston taraqqiyotida ham misli ko'rilmagan noyob asr

bo‘lishi kutilmoqda. «Ming yillar davomida turli-tuman din, madaniyat va turmush tarziga ega bo‘lgan xalqlarning birgalikda yashashi va hamkorligi markazi bo‘lgan O‘zbekiston buning inkor etib bo‘lmaydigan tasdig‘idir. Qadim zamonlardan bu yerda musulmonchilik, nasroniylik, yahudiylik, buddiylik va boshqa dinlar nafaqat birga yashagan, balki bir-birini to‘ldirgan, boyitgan»³². Jahon tarixiy jarayonlarida bugungi O‘zbekistonning muayyan, barqarorlik va taraqqiyot baxsh etish omillaridan biri bo‘lib ishtirok etishi ham ana shu ulkan ma’naviy kuchga borib taqaladi.

Ajdodlarimiz ma'rifiy xalqlardan ancha ilgari ma'lum hududda hamjihat va hamkorlikni ta'minlash uchun davlatchilik zarurligini anglashishlariga nima sabab, degan haqli savol tug‘ilishi tabiiy. Unga turli javoblar mavjud. Afsuski, yechim ustuvor darajada “moddiy ishlab chiqarish omili”, ya’ni O‘zbekiston zaminida ilk davlatchilik negizi va sotsial sababini cho‘l yoki vohalarga markazlashgan boshqaruvga tayangan holda suv chiqarish jarayoni bilan bog‘lashgan. Lekin, Misr, Xitoy, Hindiston, O‘rta Yer mintaqasi, qolaversa, Janubiy va Markaziy Amerikada bir zamonlar vujudga kelgan tarixiy politiyalar ustuvor darajada ulkan daryolarning sohillarida bevosita shakllanganligidan xabardormiz. Shunday ekan, Markaziy Osiyo yoki O‘zbekistonga kelganda bu umumiylar qonuniyat nega o‘z yo‘nalishini keskin o‘zgartirishi kerak? Bizningcha, milliy davlatchiligidan eng bosh tamal toshlaridan biri jo‘g‘rofiy joylashish emas (u ham muhim), balki “erkin mustaqil yashashga bo‘lgan azaliy intilish va orzu, uzoq-yaqindagi dushmanlardan uni hamjihatlikda himoya qilish va so‘ngra uni bus-butun avlodlarga qoldirish g‘oyasi” bo‘lgan.

Delfadagi Appollon ibodatxonasi devoriga o‘yib yozilgan va yetti yunon donishmandlaridan biri — spartalik Xilonga tegishli deb hisoblangan “O‘zingni o‘zing angla” shiori qadimgi yunon falsafasining o‘zagi bo‘lib qoldi. Bu shior doimo yunon

³² Каримов И. А. Биз келажагимизни ўз кўлмиз билан қурамиз. 7-жилд. - Т.: «Ўзбекистон», 1999. - Б.203.

mutafakkirlarini izlanishga da'vat etgan. Eramizdan avvalgi V asrda Protagor "Inson barcha narsalarning o'lchog'idir", degan mashhur fikrni ilgari surdi. Suqrot uchun "O'zingni o'zing angla" hikmati donishmandlikning qat'iy qoidasiga aylandi va ta'limotining asosini tashkil etdi. "O'zini anglagan inson, — degan edi u, — o'zi uchun nima foydaliligi va nimalarga qodir ekanligini yaxshi tushunadi. U qo'lidan keladigan ish bilan shug'ullanish asnosida o'z ehtiyojini qondiradi va saodatga erishadi. Har qanday xato va baxtsizliklardan xoli bo'ladi. Buning natijasi o'laroq, u o'zga odamlarni qadrlay oladi va ulardan ezgulik yo'lida foydalana biladi. Oqibatda o'zini kulfatlardan asraydi".

Insonning komillik darajasi uning jamiyatdagi o'z o'mini, o'zini jamiyatning ajralmas qismi ekanligini qanchalik his etishi bilan belgilanadi. Shundagina inson o'z qadr-qimmati xalq, millat qadr-qimmati bilan nechog'liq bog'liq ekanligini, jamiyatda, yurtida sodir bo'layotgan voqealarga dahldorligini anglaydi.

Keng xalq ommasini biron-bir g'oyaning ilg'or va insonparvar ekanligiga ishontirmoq uchun, avvalo, mazkur g'oya xalq hayotiga yaqin, bevosita dahldor bo'lishi, ikkinchidan, uni odamlar ongiga yetkazishning eng qulay vosita va usullarini aniqlab olish kerak bo'ladi.

Bunda davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlari, maqsad va vazifalarini mafkuraviy jihatdan asoslash, ayniqsa, muhimdir.

Bugungi kunda farovon turmush asosi — erkinlik, tadbirkorlik, tashabbuskorlikdir. Bu haqiqatni odamlar ongiga singdirish, keng aholi qatlamlarining islohotlar mohiyatini anglab yetishiga va uning faol ishtirokchisiga aylanishiga erishmog'imiz darkor. Buning uchun esa ularning dunyoqarashini, hayotga, mehnatga, yerga munosabatini tubdan o'zgartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyot o'tgan tuzumda ayrim mutaxassislarning ishi bo'lsa, bugun umumxalq, umumjamiyatning manfaatiga dahldor masala bo'lib qoldi. Butun xalq yangi iqtisodiy tafakkur bilan qurollanmoqda. Bizning mulkka, mehnatga munosabatimiz tubdan o'zgara boshladi.

Miyamizga singib qolgan «davlat mulki» tushunchasi yoniga bugun xususiy mulk, paychilik jamiyatlari, shirkat, fermer, oila pudrati degan yangi tushunchalar qo'shildi. Mamlakatimizda istiqlol yillarida o'ta markazlashgan va yakkahokimlik assosiga qurilgan, o'zini oqlamagan tizimga barham berildi. Tadbirkorlik faoliyatining erkinligi uchun konstitutsiyaviy, huquqiy va iqtisodiy shart-sharoit va kafolatlar yaratildi. Mulkdorlar sinfini shakllantirish, ularning huquqini mustahkamlash, nufuzini oshirish va kafolatlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rag'batlantirish, odamlarda mulkka egalik hissini tarbiyalash, kichik va o'rta korxonalarni izchil rivojlantirish, aholi farovonligi va daromadlarining ortishida, ishsizlik muammosini yechishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda xalqimizda mulkka egalik hissini shakllantirish, uning xo'jalik yuritishning zamонавији usullarini o'zlashtirishiga erishish, unda o'z kuchiga ishonch tuyg'ularini kamol toptirish milliy islohotlarning eng ustuvor vazifalaridan biridir.

Tabiiy boyliklar, yer resurslari, mamlakat iqtisodiy salohiyati har bir fuqaroning ehtiyojlarini qondirish, o'zligini namoyon etish va buniyodkorlik qobiliyatini ro'yobga chiqarishning asosiy omillaridir. Dunyodagi ko'pgina atoqli kishilar qozoq oqini Abay e'tirof etgan quyidagi so'zlarga to'la-to'kis qo'shiladi: «O'zbeklar yetishtirmaydigan va mo'l hosil olmaydigan ekinning o'zi yo'q, YER yuzida o'zbek savdogarining oyog'i yetmagan joy yo'q, o'zbeklar uddalay olmaydigan ishning o'zi yo'q. O'tkir zehn, mahorat, abjirlik va tadbirkorlik — bularning hammasi o'zbeklarga xes xususiyatdir». Mehnatkash, mirishkor, ishning ko'zini biladigan O'zbekiston xalqi o'z turmushini o'z qo'li bilan farovon qilishga qodir. Har qaysi inson va oila badavlat bo'lsa, jamiyat va davlat ham kuchli va qudratli bo'ladi, degan haqiqatga asoslangan bugungi iqtisodiy islohotlarimiz yaqin kelajakda, albatta, o'z mevasini beradi.

Vatanimizda bugun qanday jamiyat barpo etilmoqda, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy asoslari nimalardan iborat

bo‘ladi? Islom Karimovning «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda» kitobida bu savollarga to‘liq javob berilgan. Bu oliyjanob maqsadlar jamiyat hayoti barcha sohalariga dahldor ko‘pdan-ko‘p siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Milliy g‘oyaning strategik maqsadlari jamiyat hayotining barcha sohalariga dahldor bo‘lgan quyidagi qator vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Siyosiy sohada.

Jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, uning izchilligi va samaradorligini ta’minlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning eng asosiy yo‘nalishidir.

Binobarin, siyosiy hayotni erkinlashtirishning asosiy shartlaridan biri xalqning siyosiy ongini o‘stirish, unga demokratik erkinliklarning ma’no-mohiyatini to‘g‘ri tushunib olish va o‘zlashtirishga imkon yaratishdan iboratdir.

Siyosiy madaniyat, bir tomondan, fuqarolarning, ikkinchi tomondan, davlat idoralari va jamoat tashkilotlari hamda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning qonunga bo‘ysunishidan boshlanadi. Demak, biz barpo etayotgan jamiyatda nafaqat aholi huquqiy bilimlarining oshishi, uning ongi yuksalishiga, balki hokimiyatning barcha mustaqil tarmoqlari, nodavlat tashkilotlari va ijtimoiy institutlari faoliyat samaradorligi ortishiga ham jiddiy e’tibor qaratiladi.

Ijtimoiy taraqqiyotga intilayotgan, siyosiy va iqtisodiy hayotni erkinlashtirish yo‘lidan borayotgan har qanday jamiyat huquqiy madaniyati yuksak, ozod va erkin shaxsnı tarbiyalashga intiladi. Zero, shundagina demokratiya, fikr va vijdon erkinligi, plyuralizm va inson huquqlarini ta’minlash, gumanizm va umuminsoniy qadriyatlarga amal qilib yashash tamoyili jamiyat hayotining asosiy mezoniga aylanadi. Chunki demokratiyaning ijodkori, amalga oshiruvchisi, rivojlantiruvchisi — insondir. Demokratiya — faqat xalq hokimiyati bo‘lib qolmay, u har bir

inson, har bir jamoa va butun xalqning o‘z mamlakati kelajagi, o‘z taqdiri oldidagi mas’uliyati hamdir.

Iqtisodiy sohada.

Iqtisodiyotnnig barcha soha va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish va olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning mustaqilligini yanada oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo‘lidagi mavjud to‘siqlarni bartaraf etish — bu sohadagi o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlaridir. Mazkur o‘zgarish va yo‘nalishlar milliy g‘oyaning iqtisodiy sohadagi xususiyat va tamoyillarini belgilaydi. Bunda bir qator vazifalar amalga oshiriladi.

Birinchidan, iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa, eng avvalo, davlatning boshqaruvchilik vazifalarini — funksiyalarini qisqartirish, uning korxonalar xo‘jalik faoliyatiga, birinchi galda, xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklash.

Bu — xususiy biznesga, umuman, iqtisodiy faoliyatning bozorga xos mexanizmlariga ko‘proq erkinlik berish, buning uchun tegishli huquqiy zamin, tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoit va kafolatlarni yaratish, institutsional o‘zgarishlar, moliya va bank tizimini isloh etishni yanada chuqurlashtirish, rivojlangan bozor infratuzilmasini barpo etish, raqobat muhitini shakllantirishga asosiy e’tibor qaratish demakdir.

Mustaqillik davrida mulkchilikning turli shakllari, jumladan, xususiy mulk rivojlanishi uchun zarur huquqiy kafolatlar va amaliy mexanizm yaratildi. Masalan, Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish qo‘mitasi, uning joylardagi tuzilmalari barpo etildi, tovar, xom-ashyo, fond birjalari, tijorat banklar tizimi, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, biznes-fond, turli konsalting, lizing va boshqa bozor infratuzilmasi tarmog‘i shakllantirildi. Mulkning aksariyat qismi davlat tasarrufidan chiqarildi. Nodavlat shaklidagi mulkchilikning aksiyadorlik jamiyatları, korporatsiyalar, kompaniyalar, firmalar, shirkatlar, qo‘shma korxonalar, xususiy korxonalar, fermer va dehqon xo‘jaliklari, o‘rta va kichik korxonalar kabi tarmog‘i vujudga

keldi. Bozor infratuzilmasini shakllantirish va takomillashtirish jarayoni bundan buyon ham davom ettiriladi va chuqurlashtiriladi.

Ikkinchidan, xususiy lashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va bu borada haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish, bu jarayonga tarmoqlar asosini tashkil qiluvchi yirik korxonalarini jalb etish.

Bu — xususiy mulkning miqyosi va ulushi uzliksiz ortib boradigan ko‘p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirish, jamiyatda mulkdorlarning ko‘pchilikni tashkil etishiga erishish orqali ijtimoiy hayotdagi barqarorlik va farovonlikni kafolatlash demakdir.

Xususiy lashtirishning asosiy maqsadi, bir tomondan, mulkchilikning turli nodavlat shakllarini rivojlantirib, ular o‘rtasida haqiqiy raqobatni vujudga keltirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mulkdorlar sonini, ayniqsa, band aholi tarkibidagi yaqin kelajakda ko‘pchilikni tashkil etadigan o‘rta sinfni qaror toptirishdan iborat.

Uchinchidan, iqtisodiyotga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo‘naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay huquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kengaytirish.

Jahon mamlakatlari bilan kafolatli aloqa, savdo-sotiqni, iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish uchun bir necha yo‘nalishlarda transport aloqa tizimi barpo etilmoqda.

Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ayniqsa, qishloqqa sanoatni olib borish, birinchi galda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga mo‘ljallangan o‘rta va kichik korxonalar tarmog‘ini rivojlantirish davlatimiz iqtisodiy siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy sohada.

Jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar amalga oshirilayotgan, bozor munosabatlari ustuvor bo‘lib borayotgan hozirgi sharoitda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish taraqqiyotimizning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Bu esa milliy g'oyaning ijtimoiy sohadagi tamoyillarini belgilaydi, ularning amalga oshishiga xizmat qiladi.

Kuchli ijtimoiy siyosat deganda, xalq to'g'risida — har bir ijtimoiy guruh, qatlama, tabaqa, har bir fuqaro, yosh-u keksa, erkak-u ayol — barcha-barcha yurtdoshlarimiz to'g'risida g'amxo'rlik qilish, islohotlarni, iqtisodiy tadbirlarni xalq manfaatlarini ko'zlagan holda o'tkazish, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, madaniyat, ilm-fan sohalariga e'tiborni susaytirmaslik tushuniladi.

Vatanimizning kelajakda jahon maydonida mustahkam va nufuzli o'rinni egallashidan, biz, bugungi va kelgusi avlod vakillari ota-bobolarimizdan meros mana shu muborak zaminda kelajagi buyuk davlat, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga qodir ekanimizdan dalolat beradi.

Ma'naviy sohada.

Ma'naviy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, o'zligimizni chuqurroq anglash, milliy g'oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishlarga yo'l qo'ymaslik — bu boradagi asosiy vazifalarimizdir. Ushbu vazifalar milliy g'oyaning ma'naviy sohada namoyon bo'lishining asosiy tamoyillarini belgilaydi.

Yangi jamiyatni barpo etishda ma'naviy sohada quyidagi vazifalarni bajarishimiz lozim:

Birinchidan, yurtdoshlarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish. Ularning kuch-salohiyatini ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ezgu maqsadlarga xizmat qildirish.

Bu — ma'naviyatning kuch-qudratidan ezgu maqsadlar yo'lida samarali foydalanish, ijtimoiy munosabatlarni insoniylik g'oyalari asosida rivojlantirish demakdir.

Ikkinchidan, turli qarash va fikrga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o'ziga xos orzu-tilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oyalar — Vatan ravnaqi, yurt

tinchligi, xalq farovonligi — barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga erishish. Bu — ko'ppartiyaviylik va plyuralizm tamoyillariga amalda rioya qilgan holda milliy hamjihatlikni yanada mustahkamlash demakdir.

Uchinchidan, ota-bobolarimiz dinining gumanistik mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish borasidagi ishlarni davom ettirish. Toki bu din xalqimizning ming yillik tarixi, bugungi ma'naviy hayotimizning ham asosi, muxtasar aytganda, Ollo doimo qalbimizda, yuragimizda ekani yurtdoshlarimiz ongiga singib borsin.

Shu ma'noda, buyuk ajdodimiz Bahouddin Naqshbandning «Diling — Ollohdha, qo'ling - mehnatda bo'lsin» degan hikmati biz uchun muhim hayotiy tamoyil bo'lib qolaveradi.

To'rtinchidan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish, ta'lim-tarbiya tizimini zamon talablari asosida muttasil takomillashtirib borish.

Bu davlatimiz qudrati, mamlakatimiz kelajagi bilimli, dono va ma'naviy barkamol kadrlarga bog'liq ekanini chuqur anglagan holda faoliyat yuritish demakdir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga tatbiq etilishi inson omilini faollashtirishga, uni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirishga imkon beradi. Shu bois mazkur dasturni bajarishni izchil davom ettirish, uni yanada takomillashtirish ta'lim jarayonini jahon xalqlari tajribasi va yutuqlarini hisobga olib boyitib borish O'zbekistonda yangi jamiyat qurishning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Beshinchidan, O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatları, tili, madaniyati, diniy e'tiqodi, urf-odat va an'analarini hurmat qilish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirishga ko'maklashish.

Bu — ko'p millatli mamlakatimiz fuqarolari orasida, ularning milliy va diniy mansubligidan qat'iy nazar, hamjihatlik va birodarlik tuyg'ularini kuchaytirish, «Shu aziz Vatan — barchamizniki» g'oyasining amalga oshishini ta'minlash demakdir.

Umumiy maqsad Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini mustahkamlash istagi umumiy taqdir va kelajak, O'zbekistonda yashaydigan barcha xalqlarni yanada hamjihat va jips bo'lishga, o'zlarini bir butun xalq O'zbekistonlik deb, O'zbekiston uchun o'zini mas'ul deb his qilishga, taraqqiyotda yanada yuksak pog'onaga ko'tarilishga da'vat etadi. Bugungi hayotiy zarurat shuni taqozo etmoqda. «Shu aziz Vatan — barchamizniki» g'oyasi amalda ana shu umummilliy g'oyaning xususiy ko'rinishlaridan biridir. U mamlakatimiz xalqlarini, millatidan, dinidan, tilidan qat'iy nazar, Vatan ravnaqi yo'lida, yangi jamiyat barpo etish yo'lida birlashtiradigan milliy konsolidatsiyani kuchaytiradigan qudratga ega omildir.

Farobiya ko'ra: "Chunonchi ular birlamchi negizlar haqida yolg'on tasavvurlarni ishlab chiqdilarki, biz vorid etgan tasavvurlarga mos kelmaydi, ular baxt-saodat borasida yolg'on tasavvurga ega bo'ldilarki, haqiqiy baxt-saodat to'g'risidagi tasavvurga umuman mos kelmaydi... Adashgan shahar ahlini yo'ldan adashtirib, o'zi baxt-saodatni tanigan bo'lsa-da, ularni baxt-saodatga erishmoqning o'miga johil shaharlar ahlining maqsad-muddaolaridan biri sari boshlagan kishi - benomus shahar ahliga tegishli bo'ladir..."³³. Farobiy bobomiz ma'naviy barkamollikni shakllantirib, uni turli zarba va hamlalardan saqlay olinsagina, chinakam baxt-saodatga erishish, ma'naviy o'zlikda bardavom bo'lish mumkinligini ta'kidlamoqda.

Shunga binoan, buzg'unchi ma'naviy-mafkuraviy oqimlarning suverenitetimizga bo'layotgan tahdidining oldini olish uchun o'z taqdiriga, atrof-muhitdag'i voqe'a-hodisalarga beparvo va loqaydlikdan xalos bo'lish hamda bu voqe'a-hodisalarga shaxsiy dahldorlik hissi bilan yashash talab etiladi. Demak, bugungi kunda G'arbdan oqib kelayotgan buzg'unchi ma'naviy-mafkuraviy oqimlarning suverenitetimizga tahdidini bartaraf etish uchun ularning poydevori — vayronkor g'oyalarni fosh etish birlamchi vazifaga aylanadi.

³³Kitaab as-Siyasa al-madaniyya. Rasail Abi Nasr al-Farabi. Mujallad 4. Al-Qaahira. 1988. S. 48,53.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. “Dahldorlik hissi” ning mazmun -mohiyatini tushuntiring.
2. Dahldorlik hissi – ijtimoiy birlik, tinchlik, barqarorlik, vatanparvarlikning muhim omili ekanligi.
3. Milliy g‘oya maqsadlarining har bir inson maqsadi bilan mushtarakligini asoslab bering.
4. Milliy g‘oyaga dahldorlik hissini shakllantirishda oila, mahalla, ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlarining o‘rnini qanday?.
5. Milliy g‘oyaga ishonch va e’tiqodni shakllantirishda nazariya va amaliyot birligining ahamiyatini tushuntiring,
6. Milliy g‘oyaning birlashtiruvchi, totuvlik va hamjihatlikni ta’minlovchi omil sifatida har bir fuqaro g‘oyasiga aylanishi.

9 -MAVZU: MILLIY G'OYA TARG'IBOTINING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Reja:

- 1.O'zbekistonda targ'ibot va tashviqotning ustuvor yo'naliishlari.
- 2.Milliy g'oya targ'ibotini jamiyat hayoti sohalari bilan bog'liqligi.
- 3.Milliy g'oya targ'ibotida: Tarbiya. Fan va ilmiy muassasalar. Madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar. Adabiyot va san'at. Din. Sport. Oila. Mahalla. Mehnat jamoalari va birlashmalari.
- 4.Targ'ibot texnologiyalaridagi yangilanishlar va axborot-psixologik xavfsizlik.

XXI asrni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish mumkin emasligi bugun hammamizga ma'lum. Davrning o'zi har birimizning oldimizga axborotdan unumli foydalanish va axborotni uzatishda innovatsion yondashuvni taqozo etmoqda. Xo'sh, bugun milliy g'oya targ'ibotchilari ushbu masalaga qanday yondashsalar yosh avlod qalbi va ongiga ezgu va bunyodkor g'oyalarimizni singdirishga muvaffaq bo'ladilar? Buning yangicha usuli sifatida biz yangi, zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni tavsiya etamiz. Buning uchun, avvalo, axborot, kommunikatsiya, texnologiya, axborot texnologiyalarini tushunchalarini anglab olishimiz maqsadga muvofiqdir.

Axborot texnologiyalaridan foydalanishning yutuqlari:

- Ko'rish, eshitish, yozish mumkin;
- Vaqtini tejash imkoniyati mavjud;
- Mavzuga oid ma'lumotlarni keng qamrovda tushuntirish mumkin;
- Turli xil ma'lumotlarni solishtirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Axborot texnologiyalarining asosiy yo‘nalishlari – media, internet, radio, televideniye.

Axborot texnologiyalaridan foydalanishda nimalarga rioya qilish kerak? Hatto, mobil telefon ham axborot almashadi, ammo texnologiyadan foydalanish usulini bilish lozim. Bunda mavzuga doir bo‘lgan axborotningina manbayi, tizimi, joyi bizga ma’lum bo‘lgan holdagini biz ta’limda yuqori saviyadagi axborotni olishimiz mumkin.

Milliy g‘oyani o‘qitish va targ‘ib qilishda birinchi navbatda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan samarali foydalanishi davrning o‘zi taqozo etmoqda. Yoshlar ongi va qalbini egallashga qaratilgan turli yot va zararli g‘oyalarni kirib kelishiga ham axborot kommunikatsion texnologiyalarining ta’siri katta bo‘lmoqda. Ularni oldini olish va yoshlarni ana shu zararli g‘oyalardan himoyalashning yangicha usuli, milliy g‘oyani targ‘ib va tashviq etishda eng yangi zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishimiz zarur. Bu borada mamlakatimizda barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi oliy o‘quv yurtlari va ularning hududlaridagi filiallari optik tolali aloqaga ega bo‘lib, ular “Ziyonet” milliy ta’lim tarmog‘i hamda yuqori tezlik bilan ishlaydigan internetga ulangan. Ishga tushirilgan yagona kutubxona tizimiga 300 mingdan ortiq darslik, qo‘llanma va boshqa o‘quv adabiyotlariga doir bibliografik ma’lumotlar kiritilgan. 2013-16-yillarda ushbu zahirani 30 mingdan ortiq elektron darslik va kitoblar bilan to‘ldirish rejalashtirilmoqda.

Zamonaviy darsning asosiy belgilaridan biri – bu axborot texnologiyalaridan o‘rinli foydalanishdir. O‘qituvchi har bir darsga dars jihozlarini tayyorlash barobarida, albatta, texnik vositalarga ham katta e’tibor berishi kerak.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” asosidagi davlatimizning turli hududlarida xalq bilan bo‘layotgan muloqotlarini o‘zida ifodalagan hujjatli filmlar, sobiq

Milliy g'oya ilmiy-amaliy markazi tomonidan so'nggi 10 yil ichidagi yaratilgan 20 dan ortiq elektron qo'llanma va multimedialardan har bir mutaxassis pedagog o'z faoliyatida o'rinali va unumli foydalansa, bu, albatta, yoshlar qalbiga milliy g'oyani singdirishda ijobiy natija beradi.

Barcha turdag'i ta'lif tizimi, jamoat tashkilotlari faoliyatida eng yangi axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalangan holda, yoshlar qalbiga milliy g'oyani hayotimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, respublikamizda erishilayotgan ulkan yutuqlar, sotsiologik tadqiqotlar orqali aniqlangan statistik ma'lumotlar, yoshlarimizni xalqaro miqyosda qo'lga kiritayotgan ulkan yutuqlari kabi ma'lumotlarning yetkazilishi bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Milliy g'oyani talabalarga o'qitish va ularning qalbiga singdirishda, shuningdek, aholi orasida targ'ibot va tashviqot ishlarni takomilida, shubhasiz, ommaviy axborot vositalari (OAV) yetakchi o'rinni egallaydi.

Birinchidan, ommaviy axborot vositalarini ma'lumotlarni tezkorlik bilan yetkazish imkoniyatiga ega.

Ikkinchidan, bugun insonlarning hayotining barcha jabhalariga kirib borishga ulgurdi va o'ziga xos tarzda ma'lumotlar manbasiga aylanib qoldi. Ommaviy axborot vositalarining asosiylari "talabgorlari" yoshlar qatlamidir. Ommaviy axborot vositalarining turli ko'rinishlari orqali milliy targ'ibotni yoshlarga mos tarzdagi ko'rsatuvalar, radioeshittirishlar tarzida yetkazib berilsa, ayni maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. O'zbekistonda targ'ibot va tashviqotning ustuvor yo'nalishlari

Milliy g'oya targ'iboti va tashviqoti tushunchasi haqida to'xtalishdan avval "targ'ibot" va "tashviqot" tushunchalarining o'zagiga e'tiborni qaratish zarur. "Targ'ibot" tushunchasining o'zagini "rag'bat" so'zi tashkil etgani bois ham, u insonni biror harakatga rag'batlantirishni nazarda tutadi. "Tashviqot" tushunchasining o'zagi esa "shavq" so'zidan olingan bo'lib, u kishida biror narsaga shavq uyg'otishga yo'naltirilgan.

Targ‘ibot insonning ongi va qalbini egallahsga qaratilgan. Targ‘ibotchilarni shuning uchun ham «inson qalbining sozlovchilari» deb ataydilar. Demak, targ‘ibot-tashviqotdan maqsad – faqat bilim orttirish emas, balki kishini biror harakatga undashdan iborat. Masalaga ana shu jihatdan qaraydigan bo‘lsak, “Milliy istiqlol g‘oyasi” haqida ma’lumot berish bilan cheklanmasdan, mafkuraviy maqsadlarni aniq vazifalar shakliga keltirishimiz, milliy istiqlol mafkurasidagi asosiy g‘oyalarning amaliy harakatlarga aylanishiga erishishimiz zarur. Chunki milliy g‘oya chuqur e’tiqodga aylangan taqdirdagina u ulkan kuch va qudratga ega bo‘ladi. Buning uchun esa xalqda mafkuradan o‘rin olgan g‘oyalarga kuchli ishonch, e’tiqod va unga amal qilish bo‘lishi lozim.

XXI asrda insoniyat o‘z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi pallasiga qadam qo‘ydi. Milliy g‘oyani singdirish usullari, texnologiyalari o‘zgardi. Dunyoda katta o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan bugungi kunda ijtimoiy makonni o‘zlashtirishning yangi usullari, jumladan, yangi texnologiyalar keng rusum bo‘ldi. Texnologiyalar asri deb atalayotgan XXI asrda ishlab chiqarishda joriy etilgan yangi texnologiyalar mehnat samaradorligini misli ko‘rilmagan darajada o‘stirib yubordi. Biroq yangi texnologiyalar faqat sanoat va qishloq xo‘jaligida qo‘llanilmayapti, balki ma’naviy, mafkuraviy jarayonlarda ham o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizdagи mafkuraviy jarayonlarga ham shu nuqtayi nazardan yondashish milliy g‘oyani targ‘ib qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zaruratini ko‘rsatadi. Milliy g‘oyani xalq qalbi va ongiga singdirish muayyan texnologiya asosida olib borilganida tadbirlarning ketma-ketligi, miqyosi va me’yori, davomiyligi va tamoyillari singari jihatlar qamrab olinadi. Ularning muhimligi shunda ko‘rinadiki, masalan, targ‘ibotda me’yorning buzilishi, milliy mafkura to‘g‘risida me'yordan ortiq gapiraverish, me'yorni bilmaslik teskari samara berishi mumkin. Targ‘ibot texnologiyasi milliy g‘oya va milliy mafkura mazmun-mohiyatiga mos bo‘lgan taqdirdagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Targ‘ibot va tashviqotni tashkil etishda quyidagi ustuvor yo‘nalishlar muhim ahamiyatga egadir:

- belgilangan tadbirlarning yuqori darajada uyushqoqlik bilan o‘tkazilishini ta’minlash;
- milliy g‘oya targ‘ibotining sifatini muntazam oshirib borish;
- davr talablaridan kelib chiqqan holda mafkuraviy ishlarni tashkil etishning yangi, samarali yo‘llarini izlash;
- eski uslublarning mutlaqlashtirilishiga, andozalashtirishga yo‘l qo‘ymaslik;
- mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda ijtimoiy muhitni hisobga olish;
- mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda uchraydigan rasmiyatçilik ko‘rinishlariga barham berish;
- mafkuraviy faoliyatning qanchalik samarali olib borilayotganini bilish maqsadida uning monitoringini tashkil etish.

Milliy g‘oya targ‘ibotini jamiyat hayoti sohalari bilan bog‘liqligi. Milliy g‘oya targ‘ibotini jamiyat hayoti sohalari bilan bog‘liqligini va uning ko‘rinishlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega “Jamiyat hayoti sohasi” deganda, uning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy jihatlari tushuniladi. Milliy g‘oya targ‘ibotida quyidagi muhim xususiyatlarni hisobga olish muhim. Ular: 1) Milliy g‘oya mavhum tushuncha emas. Unda jamiyat hayotining moddiy va ma’naviy jihatlari aks etadi; 2) Milliy g‘oya iqtisodiy o‘nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi. Milliy g‘oyaning maqsadlari iqtisodiy hayotning yutuqlari orqali ifodalananadi; 3). Ijtimoiy-siyosiy hayot sohalari ham milliy g‘oya maqsadlari bilan uzviy bog‘liq. 4) Milliy g‘oya ma’naviy-ma’rifiy hayot sohasi bilan ham bevosita aloqador. Uni jamiyat hayotining boshqa sohalaridan ajralgan holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Targ‘ibot ana shu qonuniyatlarni hisobga olishni taqozo etadi.

Miliy g‘oya har bir inson va xalqning, millatning eng ezgu orzu-niyatlari, intilishlari sifatida ularning erkin va farovon

hayotda yashash maqsadlarini o'zida mujassam etadi. Bunga erishish insonlarning ruhiy dunyosiga, maqsad va intilishlariga, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotning mazmun-mohiyatiga bog'liq holda amalga oshadi. Masalan, rejali iqtisodga tayanib, farovon hayotni qurib bo'lmaydi. Yana "ma'muriy-buyruqbozlik" tamoyillari asosida demokratik jamiyatni qurib bo'lmaydi. Boqimandalik ruhiyati saqlanib qolgan jamiyatda tadbirkorlik rivojlanmaydi. Demak, yurt tinchligi va Vatan ravnaqi mustahkam bo'lmaydi va hokazo.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning asarlarida, xususan, "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" kitobida bu masalalar chuqur ilmiy asosda, atroflicha yoritilgan.

Bizning bosh strategik maqsadimiz - bozor iqqisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Yurtimizda yashaydigan barcha insonlar uchun, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, munosib hayot sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kabi kafolatlangan turmush darajasi va erkinliklarni ta'minlash davlatimiz siyosatining mazmun-mohiyatini ifodalaydi. Bu – xalqimizning asriy an'analariga, muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatiga, milliy qadriyatlarimizga sodiq qolgan holda, rivojlangan davlatlarning tajribalaridan ko'r-ko'rona nusxa ko'chirmasdan, o'zimizga xos va o'zimizga mos rivojlanish yo'lini izchil davom ettirish demakdir.

Ushbu strategik maqsadlar jamiyat hayotining barcha sohalariga dahldor bo'lgan quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Siyosiy sohada:

Jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, uning izchilligi va samaradorligini ta'minlash — mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning eng assosiy yo'nalishidir.

Iqtisodiy sohada:

Iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish va olib borilayotgan

islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning mustaqilligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo‘lidagi mavjud to‘siqlarni bartaraf etish — bu sohadagi o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlaridir.

Ijtimoiy sohada:

Jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar amalga oshirilayotgan, bozor munosabatlari ustuvor bo‘lib borayotgan hozirgi sharoitda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish taraqqiyotimizning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Ma’naviy sohada:

Ma’naviy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, o‘zligimizni chuqurroq anglash, milliy g‘oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik — bu boradagi asosiy vazifalarimizdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqida: Yangi tahdidlar, jumladan, “ommaviy madaniyat” xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo‘layotgan, odob-axloq, qadriyatlarning yo‘qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. **Milliy g‘oya targ‘ibotining asosiy omillari.** O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasini, o‘zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolarini, milliy istiqlol mafkurasining mohiyatini keng jamoatchilikka har tomonlama tushuntirish dolzarb vazifalardan biridir.

Istiqlol mafkurasini odamlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta’lim-tarbiya, targ‘ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi. Ular:

Ta'lím va tarbiya. Milliy mafkurani yoshlar qalbi va ongiga singdirish ta'lím-tarbiyaning turli shakllari orqali amalga oshiriladi.

Bunda quyidagi vazifalar nazarda tutiladi:

ta'lím muassasalarida bolalar va talabalarning yoshiga mos ravishda milliy mafkurani singdirishning o'ziga xos pedagogik-psixologik dasturini yaratish; Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o'quvchi-talabalar ongida milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishlarini uzlusiz tarzda olib borish;

o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarda milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini teran aks ettirish;

maktab, litsey, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish;

pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish.

Fan va ilmiy muassasalar milliy mafkurani shakllantirishda muhim o'rinni tutadi. Bu borada quyidagi masalalarga asosiy e'tibor qaratiladi:

aholining ijtimoiy xususiyatlarini (ma'lumoti, yoshi, jinsi, kasbi va boshqalar) hisobga olgan holda, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishning samarali yo'llarini keng ko'lamda ilmiy tadqiq etish;

milliy istiqiol mafkurasining milliy, umumirasoniy, falsafiy, diniy, huquqiy, siyosiy, sotsiologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'nnaviy-psixologik asoslarini, urf-odatlari, an'analar va intellektual qadriyatlarning mafkurani shakllantirish va boyitishdagi o'rni va ta'siriga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini muntazara olib borish;

mafkuralar kurashining jahonshumiyl jarayonini o'rganish, uning monitoringi, bu kurashning umurabashariy va mintaqaviy muaramolarini aniqlash;

mafkuraviy tahdidlar va ularga qarshi kurashning samarali yo'llari haqida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar mafkurasini shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirishda katta imkoniyatlarga ega. Bunda kutubxona, teatr, klublar, madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog'lari, muzeylar va boshqa muassasalar faoliyatidan keng foydalanish, kishilar dunyoqarashini yuksaltiradigan, odamlarga ruhiy-ma'naviy oziq beradigan tadbirlar majmuyini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

Bu dargohlarda turli anjumanlar, davra suhbatlari, bahs-munozaralar, uchrashuvlar uyuştirish, milliy istiqlol mafkurasining mazmun-mohiyatini har bir ijtimoiy qatlamga tushunarli tarzda izohlab beradigan qo'llanma va tavsiyalar tayyorlash, ayniqsa, muhim.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar yoshlarni haqiqiy san'at, chinakam badiiy go'zallik ruhida tarbiyalash maskanlari bo'lmog'i lozim.

Madaniyat va san'at sohalari faoliyatining butunlay tijorat asosida tashkil etilishiga, g'oyaviy-badiiy jihatdan sayoz, milliy qadriyatlarimizga yot asarlarning yetakchi o'rinni egallab olishiga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyatga ega.

Adabiyot va san'at. Bu sohada ijod ahlining g'oyaviy-badiiy salohiyatini komil inson tarbiyasiga yo'naltirish ustuvor yo'nalish bo'lishi darkor.

Ijodkorlarni murakkab va shonli tariximizning yorqin sahifalarini, bugungi hayot voqeligini, olıyanob orzu-umidlarimizni aks ettiradigan adabiyot, kino, musiqa va tasviriy san'at asarlari yaratishga har tomonlama rag'batlantirish. Yoshlarga ibrat bo'ladigan barkamol insonlar, zamonaviy qahramonlar timsolini yaratish.

Milliy g'oyani tarannum etishga, istiqlol mafkurasiga zid g'oyalarning zararli mohiyatini ochib berishga, ayniqsa, e'tiborni kuchaytirish zarur. Hayot va ijoddagi mahdudlik hamda fikr qashshoqligiga qarshi kurashish, bahs-munozara, tanqid va tahilliar orqali mafkuraviy muhitning sog'lom bo'lishiga erishish.

Din. Eng nozik va murakkab bo'lgan bu sohada, avvalo, din ma'naviyat va madaniyatning ustunlaridan biri ekanini, barcha

zamonlarda milliy g'oya va mafkura diniy qarashlar bilan uyg'un rivojlanishini nazarda tutish lozim. Din o'z mohiyatiga ko'ra poklik, mehr-oqibat kabi ezgu tuyg'ular orqali milliy istiqlol mafkurasining g'oyalarini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdiradi. Muqaddas dinimizga sog'lom va mo'tadil munosabatni shakllantirish – bu boradagi eng muhim mafkuraviy vazifadir.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi insonning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy kamolotga erishishida ham ulkan omildir. Sport irodani toblaydi, odamni aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengishga o'rgatadi. Inson qalbida g'alabaga ishonch, g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Vatan, xalq shuhratini dunyoga tarannum etishda, yoshlarni **harbiy-vatanparvarlik** ruhida tarbiyalashda sportning o'rni beqiyosdir.

Sog'lom, bilimli va fidoyi farzandlari bo'lgan xalq, albatta, o'zining buyuk kelajagini barpo etadi. Shuning uchun jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini ta'minlash, uni rivojlantirish barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim shartidir.

Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan **urf-odat, marosim va bayramlar** ham milliy mafkuraning asosiy g'oyalarini singdirishda muhim omil bo'ladi. Xususan, Mustaqillik, Navro'z, O'qituvchilar va murabbiylar, Xotira va qadrlash kuni kabi yangi bayram va marosimlarimizdan jamiyat hayotiga zamonaviy mazmun baxsh etish yo'lida oqilona foydalanish zarur.

Bugungi kunda urf-odat va an'analarimizning jamiyatni birlashtiruvchi xususiyatlaridan yanada to'liqroq foydalanish lozim.

Milliy an'analarni o'rganish, targ'ib etish bilan bir qatorda, to'y-ma'rakalarni, odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu borada isrofgarchilik va dabdababozlikka yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratish darkor.

Oila. Oila—mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila —jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida

singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi.

Oiladagi sog'lom muhit, sog'lom mafkurani shakllantirish manbayidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligini, o'zaro hurmat va ahillikni ta'minlash — milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo'ladi.

Mahalla. O'zini o'zi boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlari va an'analariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Keksalarning pand-nasihatni, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida kishilar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi.

Mahalla – avvalo, sog'lom ijtimoiy muhit maskanidir. Bu yerda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlariniadolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma'noda mahallani demokratiya darsxonasi, deb ham atash mumkin.

Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida mafkuraviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlarni kamol toptirishda mahallaning o'mi beqiyos.

Mehnat jamoalari inson umrining asosiy qismi o'tadigan, uning tafakkuri, hayotga munosabati shakllanadigan ijtimoiyma'naviy muhitdir. Ular kishida jamoa ruhi, mehnatsevarlik, omilkorlik,adolat tushunchasi, mehr-oqibat tuyg'ularini tarbiyalaydigan o'ziga xos maskan bo'lib hisoblanadi.

Mehnat jamoalari turli millat va dinga mansub odamlarni do'stlik va hamjihatlik, o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishga o'rgatadi. Bu esa o'z navbatida, sog'lom ma'naviy muhitni vujulga keltirishda muhim omil vazifasini bajaradi.

Siyosiy partiyalar o‘z faoliyati bilan fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilma-xilligiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etish g‘oyasining amalga oshishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistondagi har bir partiya o‘z dasturiy qarash va maqsadlarini ro‘yobga chiqarish uchun barcha huquqiy asos va qonuniy kafolatlarga ega.

Har bir partiyaning o‘z dasturiy g‘oyalarni hayotga tatbiq etish jarayonida milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillariga amal qilishi siyosiy hayotning bosh mezonidir. Chunki xalq manfaatlari, istiqlol g‘oyalari, qaysi siyosiy va mafkuraviy kuchga mansubligidan qat’iy nazar, barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddasdir.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida faoliyat ko‘rsatayotgan **nodavlat-notijorat tashkilotlar** milliy g‘oya targ‘ibotida ishtirok etadi.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Oila ilmiy-amaliy markazi, Faylasuflar jamiyatni, Ijtimoiy fikr jamoatchilik markazi kabi tashkilotlar milliy g‘oya maqsadlarini targ‘ibot etishda muhim o‘ringa ega.

Shuningdek, milliy g‘oya va milliy istiqlol mafkurasini joriy etishga moddiy, tashkiliy va ma’rifiy jihatdan ko‘mak beradigan "Sog‘lom avlod", "O‘zbekiston yoshlar ittifoqi", "Oltin meros", "Amir Temur", "Iste’dod", "Mahalla" jamg‘armalari va boshqa jamoat tashkilotlari ham katta imkoniyatlarga ega.

Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish, milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz, avvalo, yosh avlod ongiga singdirishda alohida o‘rin tutadi. Ular ma’naviy-ma’rifiy islohotlar jarayoni, bu boradagi muammolarni, jamiyat hayotining turli qirralarini tezkorlik bilan aks ettiradigan eng samarali vositadir. "To‘rtinchı hokimiyat" hisoblangan ommaviy axborot vositalari turli xil fikrlar, rang-barang qarash va yondashuvlarga keng yo‘l ochib berishi, hayotimizda yuz berayotgan yangilanish va o‘zgarishlarga odamlarning ongli munosabatini uyg‘otishi, xolislik va haqqoniyat tamoyillariga tayanib faoliyat yuritishi lozim³⁴.

³⁴ Миллий истиқбол гоёси: асосий тушунча ва тамоилилар. Т.: Ўзбекистон, 2000. – Б.

Shunga e'tiborni qaratish lozimki, bular milliy g'oya targ'ibotini amalga oshirishda o'ziga xos alohida sub'ektlardir. Shuning uchun, ular o'z faoliyatida bevosita amalga oshirish lozim bo'lgan vazifalarni amalga oshirish bilan birga uni milliy g'oya maqsadlari bilan mushtarak ekanligini hamda har bir yo'nalishda targ'ibot texnologiyalaridan bu xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish shu sohalarning rivojlanishiga hamda milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari bilan mos kelishiga ko'maklashadi.

XXI asrni axborot asri, axborot texnologiyalari asri deb atash tobora rusum bo'lmoqda. Chunki asrimizda keng qamrovda va jadal sur'atlarda tarqalayotgan informatsiyalar insonning istaklarini, didini o'zgartirishga, fikriga ta'sir qilishi mumkin. Tan olish kerak, tomosha qilinayotgan seriallardan tortib bolakaylarga aytib beriladigan ertakgacha, boringki, o'qiyotgan kitoblarimiz ham qandaydir mafkuraviy ta'sir samarasiga ega. — Ularda muayyan g'oyalar targ'ib qilinadi. Bu holat «Eng asosiy narsani ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydi» degan fikrni yana bir karra tasdiqlaydi. Bunday ko'zga ko'rinchas qudratli targ'ibot kuchlari kishini hamma yerda va har kuni qurshab turadi. Bu kuchlarning maqsadi — insonni nimagadir ishontirish, nimagadir undash, nimagadir og'dirishdir. Tadbirkor mahsulotini reklama qilib, uni sotib olishga undaydi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning taqdiri, so'zsiz, har bir fuqaro, aniqrog'I, insonning faolligiga bog'liqdir. Bu esa islohotlarning mohiyatini tushuntirishni talab qiladi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda mafkuraning targ'iboti «hukumat siyosatining tashviqoti» ko'rinishida amalga oshiriladi.

O'zbekiston hayotidagi o'zgarishlar insonlar ongida ham katta o'zgarishlar qilishni talab etadi. O'tish davrida davlat yangi zamon kishisini tarbiyalash haqida qayg'urishi tabiiy. Demak, O'zbekistonda ham komil inson g'oyasida e'tirof etilgan erkin shaxsga mos sifatlarini fuqarolarda qaror toptirish vazifasini

amalga oshirish muhimdir. Shuning uchun ham mafkuraviy targ'ibot texnologiyalaridan foydalanishda:

Targ'ibotning xolisligi;

Sog'lom, ezgu maqsadlarni ko'zlash;

Bir tomonlama mafkuraviy maqsadlardan xoli bo'lish;

Xalqlarning milliy-madaniy qadriyatlariga hurmat bilan qarash;

Demokratik tamoyillar, inson erkinligi huquq va manfaatlarini ustuvor deb bilish;

Xalqlar o'rtaida yovuz g'oyalarni, ixtilof va ayirmachilikka undaydigan xatti-harakatlarga chorlamaslik;

G'oyaviy, mafkuraviy plyuralizmga asoslanish "plyuralizmdan" ezgulik maqsadida foydalanish;

Fikr erkinligini hurmat qilish asosida fikriy mushtaraklik, hamjihatlik g'oyalarini targ'ibot etish muhim ahamiyatga ega.

Targ'ibot texnologiyalaridagi yangilanishlar va axborot-psixologik xavfsizlik. O'zbekistonda yosh avlodni yangicha fikrlashga va tafakkurini rivojlantirishga, siyosiy faolligini yo'naltirishga, ularni mustaqillik g'oyalara sadiq qilib tarbiyalash vazifalari bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirilmoqda. Globallashuv jarayonida siyosiy va psixologik ta'sir ko'rsatishning yoshlarning axborot, psixologik xavfsizligini ta'minlashning dolzarbligini ko'rsatadi. Targ'ibot texnologiyalari axborotni uzatish imkoniyatlarini oshiradi. Axborotning hajmi va ko'lami ortadi. Yoshlarni dunyoda sodir bo'ladigan turli xil voqealarni dunyoda yangilik hamda texnologiyalardan xabardor qiladi. Ayni paytda, ularni "murakkab axborot olamiga" olib kirib, ularning onggiga, maqsad va mayllariga ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarning axborotni qabul qilish darajasi va tajribasi yetarli bo'limganligi uchun ham, undan to'g'ri xulosalar chiqarishi oson emas. Axborotlarni yoshlar onggiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ko'proq "taqlidchan yoshlar"da kuzatiladi. Bu ularda salbiy, xatti-harakatlarni shakllanishiga olib kelishi mumkin. Bunday yoshlarni "zararli g'oyalarni"ning ta'sirida ularning ruhiyati o'zgarib,

axborotlarning ta'siri ortadi. Axborot-psixologik xavfsizlik muammosi paydo bo'ladi.

Xavfni sezish va unga qarshi kurashish tuzilmalari – shaxsning o'zini o'zi anglash jarayonida shakllanadi. Yoshlarda shaxsiy fikr, mulohaza, dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tahliliy va tanqidiy fikrlash paydo bo'ladi.

Yoshlar o'zining siyosiy konsepsiyasini mustaqil ravishda to'g'ri shakllantirishda, siyosiy jarayonlarni aniq qamray olishida va tahlil qila olishida, mohiyatni tushunishi muhim.

Hozirgi vaqtida xavfsizlikni ta'mishlashni texnologik va texnokratik uslubiyot asosida tashkil etish – davr talabidir. Yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlash vazifasi, o'z navbatida, jarayonni tizimlashni, natijani avvaldan kafolatlashni, jarayonga istalgan paytda tuzatishlar kiritish imkoniyati bo'lishini taqozo etadi.

Yoshlarning axborot-psixologik immunitetini shakllantirish jarayoni zamonaviy texnologiyalar asosida tizimlashtirish, o'z navbatida, bir qancha ishlarni ixchamlashtirish, umumlashtirish va muvofiglashtirish kabi quyida keltirilgan tashkiliy ishlarni bajarishni talab qiladi:

majud siyosiy jarayonlarning mohiyatini anglash, undan mafkuraviy immunitetni shakllantirishda foydalanish;

immunitetni shakllantirishga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni qidirish, yig'ish va qayta ishslash;

axborot-psixologik immunitetni shakllantirishga tegishli ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

muammolarni sezish, aniqlash;

immunitetning rivojlanish tamoyillarini anglash, qabul qilish;

tashqi va ichki vaziyatni strategik ko'p faktorli analiz qilish;

axborot, moliyaviy, tashkiliy-texnik resurslarning chegaralanishini aniqlash, resurslarni boyitish ishlarini amalga oshirish;

xalqaro maydondagi voqealarning rivojlanishini kuzatish, tahlil va siyosiy bashorat qilish;

geopolitik manfaatga erishishning strategiya va taktikasini shakllantirish, tashqaridan kirib kelayotgan xavf-xatarlarni tavsiflash, ularni betaraflash hamda sog'lomlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, amalga oshirish;

axborot muhitini shakllantirishiig texnologiyalarini, metodlari va usullarini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish;

immunitetni ta'minlash ishlarini amalga oshirishning muqobil yechimlarini ishlab chiqish;

u yoki bu muqobil yechimlarni tatbiq etishda yuzaga keladigan holatlar hamda vaziyatlarni bashorat qilish;

amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorlik mezonlarini ishlab chiqish, bajarilayotgan har bir ishni baholash;

davlatning tashqi xavflarga qarshi kurashish qobiliyatini oshirish, axborot tahdidlari va xavf-xatarlariga qarshi kurashuvchanligini ta'minlash;

mafkuraviy immunitetni shakllantirishning eng maqbul ko'rinishlarini ishlab chiqish va joriy etish;

yoshlar onggi va tafakkurida, qaror qabul qilishga ko'rsatiladigan ta'sirni tahlil qilish;

yoshlarning o'zi qabul qilgan qarorlarini o'zi o'zgartirish ko'nikmalarini shakllantirish;

yoshlarni o'zini-o'zi nazorat va tahlil qilishlarini shakllantirish.

Shuningdek, yoshlarga ta'sir ko'rsatuvchi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik omillarni to'liq ishlab chiqish ham zarur. Bu esa yuzaga keladigan xavflarni vaqtida bartaraf etish imkonini berishi mumkin.

Hozirgi davrda inson ongi va qalbini egallash uchun kurash borayotgani hech kimga sir emas. Shuning uchun yot mafkuraviy ta'sirlarga qarshi kurashda uzilishlarga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bunday sharoitda begona mafkuralarning qo'poruvchi ta'siriga qarshi doimiy va uzlusiz targ'ibotni tashkil etish muhim sanaladi.

Milliy g'oyaning tamoyillarini inson ongi va qalbiga singdirishning barcha bosqichlari uchun umumiy bo'lib, turli

shakl va vositalardan foydalanganda ularning yoshi, kasbi, ma'lumoti kabi xususiyatlari hisobga olinadi. Targ'ibot olib borishda sanab o'tilgan tamoyillarning har bir joyning xususiyatlariga mosligini ta'minlash targ'ibot samaradorligini ta'minlaydigan eng muhim omildir.

Insoniyat evolyusiyasidagi g'oyaning o'rni va ahamiyati doimiy ravishda jamiyatning intellektual salohiyatli a'zolarining diqqat-e'tiborida bo'lgan: Buni dunyo taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariy ta'limot va mafkuralar asoschisi bo'lgan, tarixning turli davrlarida yashagan Suqrot, Konfutsiy; Alisher Navoiy, Maxatma Gandhi kabi mutafakkirlar asarlaridagi ilmiy fikrlar misolida ham ko'rish mumkin.

Targ'ib qilinayotgan g'oyalarning inson ongida axborot, ma'lumot tarzida o'mnashishi kifoya qilmaydi, ular insonning yurak-yuragiga yetib borganidagina ular inson qalbiga chuqr o'rnashadi. Buning uchun esa targ'ibotchining milliy g'oyaga chuqr ishonchi va qat'iyatini his qilishi kerak. Lekin targ'ibotda g'oyalarga e'tiborni tortish bilan ham qanoatlanish yetarli emas. Chunki e'tiborni jalb qilish – targ'ibotning birinchi bosqichi, xolos.

Targ'ibotning keyingi bosqichi g'oyani to'g'ri va atroficha tushuntirishni, mafkura bilan bog'liq barcha savollarga javob topib berishni talab qiladi. Lekin xolislik, ishonchli dalillar, e'tiroz uyg'otmaydigan hayotiy ma'lumotlarning keltirilishi g'oyalarni hayotga tatbiq qilishda muhim ahamiyatga ega.

Targ'ibot jarayoni shu yerda tugamaydi. Zero, mafkura yangi ishlarga ilhomlantiradi, harakatga undaydi. Demak, insonlar milliy mafkuradan o'rinn olgan g'oyalarga mos harakat qila boshlaganlaridagina milliy g'oya xalqning e'tiqodiga, qadriyatiga aylanganligi haqida xulosa qilish mumkin.

10-MAVZU: KONSTRUKTIV VA DESTRUKTIV G'oyalar ko'rinishlari

Reja:

1. Konstruktiv g'oyalar va ularni jamiyat taraqqiyotiga ta'siri.
2. Milliy g'oyaning konstruktiv xarakteri.
3. Destruktiv g'oya tushunchasi va uning namoyon bo'lish shakllari.
4. O'zbekistonning milliy yuksalishida konstruktiv g'oyalarning roli.

Jamiyat hayoti va rivojlanishi turli xil g'oyalar bilan uzviy bog'liq. G'oyalar – jamiyat hayotiga, insonlar orzu-umidlari, maqsad va manfaatlariga dahldor bo'lgan fikrlar, qarashlarning ijtimoiylashganlik holatidir. Shu jihatdan g'oya fikrdan farq qiladi. G'oyalar jamiyat hayotiga ta'siri darajasi, natijasi va oqibatlari bilan fikrdan farq qiladi. Uning jamiyat taraqqiyoti, insonlar hayotiga, ijtimoiy-siyosiy hayat va munosabatlarga ta'sir ko'rsatishi, g'oyaning maqsadiga, turli xil manfaatlarni ifoda etish darajasiga, mezonlari, prinsiplariga bog'liq bo'ladi. Shular orqali fikrlar fikrdan, g'oyalar g'oyadan farq qiladi. Umuman olganda, g'oyalar konstruktiv va destruktiv g'oyalarga bo'linadi.

Konstruktiv g'oyalarni bunyodkorlik g'oyalari, deb ham atash mumkin. Konstruktiv g'oyalar jamiyatda odamlarni, turli guruh va qatlamlar, millat va davlatlarni taraqqiyot sari yetaklovchi, xalqni ezgu maqsad yo'lida bирgalikda harakat qilishga undovchi, uyuştiruvchi, safarbar etuvchi g'oyalardir. Konstruktiv g'oya ta'sirida insonlar ezgulikka yetish, millatlar va davlatlar esa ozodlik va mustaqillikka intiladi,adolat va haqiqat tantanasi yo'lida kurashadi, buyuk tarixiy g'alabalarni qo'lga kiritadi. Bir so'z bilan aytganda, o'zida gumanizm talablarini aks ettiradigan, inson kamolotiga, jamiyat rivojiga, millat taraqqiyotiga, xalqning iroda va intilishlariga xizmat qiladigan, uni jipslashtirib, oliy maqsadlarga safarbar etadigan g'oyalar konstruktiv g'oyalardir.

Jamiyat hayotida konstruktiv fikr, konstruktiv g'oya va mafkuralar, konstruktiv muloqot, konstruktiv qaror va islohotlar va hokazolar ishlataladi. Bu belgilangan va qabul qilingan qarorlarning amaliy tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi.

Konstruktiv g'oyalalar yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek oliyanob maqsadlari bilan ajralib turadi. Avestoda "Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal" qo'llash ham konstruktivlik kasb etadi. Chuqur tarixiy negizi esa "O'zimni ezgu fikrga, ezgu so'zlarga, ezgu ishlar amaliga baxshida qilaman, barcha yomon fikrlardan, yomon so'z-u ishlardan yuz o'giraman", degan g'oyalardan iborat. Faylasuf Suqrot adolatga xilof bo'lgan davlat boshqaruvining barcha shakllarini tanqid qiladi, adolatli, demokratik davlat boshqaruvni yoqlab chiqadi. Xitoy mutafakkiri Konfutsiyning fanlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqeyi orqali emas, balki odamiylik, adolatparvarlik, haqgo'ylik kabi fazilatlarga erishishi tufayli kamolotga erishadi, degan g'oyalari, shuningdek, Abu Nasr Farobi, Alisher Navoiyning insonparvarlik g'oyalari konstruktiv g'oyalarga misol bo'ladi. Hind xalqining buyuk farzandi Maxatma Gandhi konstruktiv g'oyalari bilan hindlar bilan musulmonlarni, din bilan siyosatni birlashtirishga harakat qilgan. Konstruktiv g'oyalalar insonni ulug'laydigan, uning kuch-g'ayrati va salohiyatini oshirib, xalqi, Vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safarbar etadigan, o'zida taraqqiyot, ma'rifat, do'stlik, tinchlik, adolat, halollik, poklik kabi ezgu his- tuyg'ularning urug'ini mujassam etadigan g'oyalardir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mafkuraga shunday ta'rif bergan: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarash va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda, shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi, deb bilaman»³⁵. Fanda yaxshi, bunyodkorlik g'oyalalar qatorida unga qarshi bo'lgan

³⁵ И. Каримов. Жамият мафкураси халқни халқ, миллатни миллат килишга хизмат килсин. – 8 жилд. Тошкент, 2002.

buzg'unchi – destruktiv g'oyalar ham ajratiladi. Destruktiv g'oyalar inson va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g'arazli niyat va qabihlikka undaydigan, davlat va jamiyatni parokandalik va halokatga yetaklaydigan g'oyalardir. Insoniyatga tahdid solib kelgan destruktiv g'oyalar Vatansizlik g'oyasi, kosmopolitizm, hech qanday qonun- qoidalarni tan olmay, barcha narsani inkor etishga da'vat etuvchi nigilizm, biror shaxs yoki millatni boshqalardan ustun qo'yadigan shovinizm, zo'ravonlik vasvasasiga berilib, o'z ehtiyojlarini boshqa xalqlar hisobiga qondirishni maqsad qilib qo'ygan buyuk davlatchilik, tajovuzkorlik, neofashizm g'oyalari shular jumlasiga kiradi.

Aqidaparastlik, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm g'oyasi, ma'naviy tahdid, axborot urushlari, ommaviy madaniyat ko'rinishlari. Odam savdosi bilan birga agressiv millatchilik, seperatizm g'oyalari ham mohiyati bilan destruktiv g'oyalardir. Ular ezgu maqsadlarni ko'zlamaydi. Bundan tashqari, loqaydlik, befarqlik, egoizm, sotqinlik kabi salbiy holatlar ham insoniyat taraqqiyotiga, Vatan ravnaqiga xizmat qilmaydi.

Xullas, vayronkor, yot g'oyalar ko'rinishlari bo'lган kommunizm g'oyasi, kosmopolitizm g'oyasi, buyuk davlatchilik g'oyasi, irqchilik g'oyasi, agressiv millatchilik va milliy ayirmachilik g'oyalari destruktiv xarakterga ega.

Ular quyidagi xususiyatlarda namoyon bo'ladi.

- G'oyaviy yakka hokimlikka intilish;
- Demokratik qadriyatlarni tan olmaslik;
- Fikrlar plyuralizmini rad etish;
- Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy beqarorlikka moyillik;
- Mutlaq haqiqatga da'vo qilish;
- Yagona, hukmron mafkuraga urinish;
- Ijtimoiy ixtiloflarni qo'llash;
- Aqidaparastlik va siyosiy ekstremizm va h.

Diniy ekstremizm, jangarilikni targ'ib etish, soxta diniy aqidalar, aqidaparastlik, xalqaro terrorizm, narkobiznes, noqonuniy qurol savdosi esa g'ayriinsoniy, yot g'oyalarning tashkiliy asoslari hisoblanadi. Shular orqali ular o'z yovuz

niyatlarini amalga oshiradilar. G‘oyaviy ta’sir shakllari uch xil bo‘lib, ular individual, jamoaviy, ommaviy ta’sir shakllaridir. Tushuntirish, ishontirish kabi g‘oyaviy ta’sir uslublaridan foydalilanadi. Destruktiv, g‘ayriinsoniy, yot g‘oyalarning zararli oqibatlari hammasidan ham daxshatiroqdir. Bu g‘oyalar inson qalbiga zid va uni salbiy tarafga o‘zgartiradi, nosog‘lom turmush tarzini shakllantiradi, fikrlar xilma-xilligini cheklaydi, qaramlik, tobelik, mutelik muhitini yaratadi, tafakkur tarzini o‘z negizlaridan begonalashtiradi, zararli urf-odat, an’analarni targ‘ib qiladi, ularning kirib kelishiga muhit yaratadi. Mamlakatni, xalqni o‘z milliy qadriyatlaridan, oxir-oqibat mustaqil taraqqiyot yo‘liga rahna soladi, jamiyatda xalqlar va millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglikka rahna solib, ixtiloflar, parokandalikka olib keladi.

Destruktiv g‘oyalarning ta’sirini oldini olish omillari xilmashil. Bu avvalo, inson omili orqali amalga oshadi. Insonning ma’naviy dunyosi boy bo‘lishi, ularni g‘oya bilan g‘oyaning farqiga borishiga imkoniyat yaratadi. Mafkuraviy immunitetini mustahkamlaydi. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarida zararli g‘oyalarning oldini olish yo‘llari quyidagilar qilib belgilangan:

- oilada yoshlarga sog‘lom tarbiya berish;
- fuqarolarning milliy g‘oya negizlariga iymon-e’tiqodini mustahkamlash;
- milliy g‘urur va iftixor bilan yashashga urinish;
- har tomonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash;
- mafkuraviy immunitetni oshirish;
- fuqarolar ongida milliy g‘oya ishonchini shakllantirish.

Bularga erishish uchun esa, milliy g‘oya targ‘ibotiga zid, salbiy holatlar bo‘lgan befarqlik va loqaydlik, maqtanchoqlik, xushomadgo‘ylik, hasadgo‘ylik, manmanlik, haqiqatni mensimaslik, tanish-bilishlik, mahalliychilik, mansabparastlik va manfaatparastlik kabi salbiy illatlarni har birimiz o‘zimizdan soqit qilishimiz zarur. Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Menga haqiqiy Vatanparvarlar kerak”³⁶, deb uqtiradi.

³⁶ Ш.М.Мирзиёев. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига мурожаатномаси. Тошкент, 2017.

Demoktarik jamiyatda erkin fikr va fikrlar, g'oyalar xilma-xilligi, tanqid, o'zini-o'zi tanqid qilish muhitini yaratish, demokratiya va oshkoraliq muhitini yaratish sog'lom va erkin raqobat muhitini yaratish jamiyatda ilm-ma'rifatning mavqeyini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu konstruktiv g'oyalarning rivojiga amaliy, innovatsion g'oyalar, ilg'or texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashga, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Konstruktiv va destruktiv g'oyalardan bir-biriga zid g'oyalardir. Chunki ular turli xil ijtimoiy guruhlarning o'zida ifoda etadi. Konstruktiv sog'lom kuchlar manfaatini ko'zlasa, destruktiv g'oyalardan esa nosog'lom kuchlarning manfaatini, qarashlarini aks ettiradi. Bugungi global dunyoda bunday kuchlar o'rtasida o'zaro nizo va ixtiloflar saqlanib turibdi. Buni hisobga olish kerak.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar konstruktiv xarakterga ega. Ezgu maqsadlarni ko'zlaydi. Belgilangan harakatlar dasturi taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Istiqbolda fuqarolar uchun erkin va farovon hayot, ozod va obod Vatanda yashash imkoniyatlarini yaratadi va mustahkamlaydi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Konstruktiv g'oya tushunchasining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
2. Konstruktiv g'oyalardan jamiyat taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Milliy g'oyaning konstruktiv xarakteri nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Destruktiv g'oya tushunchasini mazmun-mohiyatini tushuntiring.
5. Destruktiv g'oyalardan qanday ko'rinishlarda namoyon bo'ladi?
6. O'zbekistonning milliy yuksalishida konstruktiv g'oyalarni tushuntirib bering.

11-MAVZU: KORRUPSIYANING JAMIYAT BARQARORLIGIGA TA'SIRI

Reja:

1. Korrupsiya tushunchasining ijtimoiy siyosiy mohiyati va mazmuni.
2. Korrupsiyaning murakkab jinoyat turi sifatidagi xavfli jihatlari.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashishning qonuniy – huquqiy asoslari.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashishda manaviy - mafkuraviy tarbiyaning ahamiyati.

Globallashuv jarayonlarining kengayib, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalariga jadal sur'atlar bilan kirib kelayotganligi, jamiyat hayotida kechayotgan integratsion jarayonlar rivojlanishining o'ziga xos muhim omili bo'lishi bilan birga, ayrim tahdidli ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni ham yuzaga keltirmoqda. Korrupsiya ana shunday bugungi kunda keng ko'lamli islohotlarga g'ov bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy hodisalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvar, O'RQ-419-son “Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonunining 3-moddasida korrupsiya va korruptsiyaga oid huquqbuzarlik tushunchalariga izoh berib o'tilgan. Unda keltirilishicha, **korruptsiya** — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish; **korruptsiyaga oid huquqbuzarlik** — korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish; **manfaatlar to'qashuvi** — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan

yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat³⁷. Mazkur qonunning 4-moddasida korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy prinsiplari belgilab qo'yilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qonuniylilik;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;
- tizimlilik;
- davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;
- korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;
- javobgarlikning muqarrarligi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari qonun bilan belgilanib, ular Korrupsiyaga qarshi kurash qonunining 5-moddasida ko'rsatib o'tilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash.

"Korrupsiya" termini lotinchcha "corruptio" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, etimologik ma'nosi "buzish, sotib olish"dir.

³⁷ LexUZ

Korrupsiya — bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. U demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariiga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlari faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Korrupsiya hokimiyat va boshqaruv organlarining o'rta va quyi darajalarida eng ko'p tarqalgan bo'lib, amaldorlar va fuqarolarning doimiy o'zaro munosabati, ro'yxatdan o'tish, jarimalar, litsenziya va turli ruxsatnomalar olish kabilar bilan bog'liq.

Yuqori korrupsiya hokimiyat organlarida ishlovchi siyosatchilar, oliy martabali amaldorlarni qamrab oladi hamda muhim ahamiyatga ega bo'lgan qarorlar qabul qilish (qonunlarni, davlat buyurtmalarini lobbilash va qabul qilish, mulkchilik shakllarini o'zgartirish va shu kabilar) bilan bog'liq.

Korrupsiya murakkab jinoyat turi sifatida quyidagi muhim belgilarga ega bo'ladi. Birinchidan, uning latentlik ya'ni yashirin, xufyona, ikkinchidan, esa uning predikativ xarakteri, ya'ni korruptsyaning boshqa jinoyatlar bilan bog'liqligidir. Mazkur ma'noda korrupsiya faqat vositachilik yoki poraxo'rlik emas, balki mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan g'ayriqonuniy xatti-harakatlardir.

Chunonchi, jahon bankining hozirgi dunyoda davlatning roliga bag'ishlangan hisobotida ham korrupsiyaga shu kabi ta'rif berilgan.

Shuningdek, bir qator Xalqaro tashkilotlar hujjalarda ham korrupsiyaga qarshi kurashda Xalqaro tashkilotlarning hamkorligi muhim ekanligi ta'kidlanadi.

Korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikning xavfsizlikka soladigan tahdidlari majmuasi, O'zbekiston Respublikasining Birinci Prezidenti Islom Karimovning fundamental "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va kafolatlari" nomli asarida ko'rsatib berilgan. Mazkur asarda

korrupsiyaning murakkab jinoyat turi sifatida ijtimoiy hayotga xavfi quyidagicha izohlanadi:

- amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshilik ko'rsatish;
 - davlatning konstitutsiyaviy asoslarini yemirish;
 - jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini yemirish;
 - jamiyat a'zolarining fuqarolik mavqeyini yo'qqa chiqarish, islohotlar g'oyasini obro'sizlantirish;
 - pul orqali hokimiyatni qo'lga olishga intilish;
 - nopol yo'llar bilan boylik orttirish. Bunday kimsalar adolatli jazodan qo'rqib, hamma ishni qilishga, hatto, vaziyatni beqarorlashtirishga, ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarishga shay turadilar;
 - jinoiy usullar bilan boylik orttirgan kimsalarni «demokratiya» uchun jafo chekkan kurashchilar deb ko'rsatish.
- Bunday shaxslar avvaliga o'z xalqini aldab kapital to'playdi, keyin demokratiya va adolatni ro'kach qilgan holda jamoatchilik fikrini chalg'itib, siyosiy obro' orttiradi. Sir emaski, bunday shaxslar o'z manfaatlari yo'lida respublikadagi vaziyatga ta'sir ko'rsatishga urinayotgan tashqi kuchlarga xizmat qilishga hamisha tayyor turuvchilardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev korrupsiyaga qarshi kurashga alohida e'tibor berib quyidagilarni ta'kidlaydi:

“Korrupsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar qanchalik xalaqit qilmasin, xalqimiz bu jirkanch illatga murosasiz bo'lmas ekan, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatmas ekan, bu baloga qarshi samarali kurashni tashkil eta olmaymiz”³⁸.

Korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, shuningdek, huquqbazarliklarning oldini olish masalalarini samarali yechish ustuvor vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi.

Korrupsiyaviy daromad – harom daromad bo'lib, bu daromadlardagi tengsizlikni keltirib chiqaradi va kuchaytiradi. Korrupsiyaning milliy xavfsizlikka xatari shundaki, u kishilarda

³⁸ Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари. Т., Ўзбекистон, 2019, -Б.14

norozilik uyg'otib, jamiyatdagi intizomiy muvozanatga tahdid soladi. Shuningdek, korrupsiya daromadlarning poraxo'rlar qo'lida to'planishiga olib keladi. Natijada, o'z sohibi ishlab topgan daromadning poraga aylangan qismi yashirin tarzda jamg'ariladi. Poraxo'r qo'lida jamg'arilgan pul investitsiyaga ham xizmat qilmaydi. Eng yomoni, bu aholi qo'lidagi pul qoldig'ini ko'paytiradi hamda pul muomalasiga yoxud mamlakat monetar xavfsizligiga rahna soladi.

Korrupsiyaga qarshi kurash siyosatining maqsadi – korrupsiya darajasini pasaytirish hamda fuqarolar, jamiyat va davlat huquqlari va qonuniy manfaatlarining korrupsiya bilan bog'liq tahdidlardan himoyalanishini ta'minlashdan iborat. Bu siyosat davlatning korrupsiyaga qarshi qaratilgan, qabul qilingan turli qonunlari, qarorlari, dasturlarida o'z ifodasini topadi. Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati – bu davlatlarning korrupsiyani oldini olish, u paydo bo'lganda uni tugatish va cheklash borasidagi sa'y-harakatlari va aniq chora-tadbirlar majmuyidir.

Korrupsiya amal qilish darajalariga ko'ra quyi va yuqori korrupsiyaga ajratiladi:

Quyi korrupsiya hokimiyat va boshqaruv organlarining o'rta va quyi darajalarida eng ko'p tarqalgan bo'lib, amaldorlar va fuqarolarning doimiy o'zaro munosabati bilan (ro'yxatdan o'tish, jarimlar, litsenziya va turli ruxsatnomalar olish kabilar) bilan bog'liq.

Yuqori korrupsiya hokimiyat organlarida ishlovchi siyosatchilar, oliy martabali amaldorlarni qamrab oladi hamda yuqori bahoga ega bo'lgan qarorlar qabul qilish (qonunlarni, davlat buyurtmalarini lobbilash va qabul qilish, mulkchilik shakllarini o'zgartirish va shu kabilar) bilan bog'liq.

Korrupsiya xavfli illat bo'lib, milliy huquq normalarida ham, shuningdek, xalqaro huquq normalarida ham ijtimoiy xavfli qilmish sifatida taqiqlanadi. Korrupsiya jamiyat va davlatning rivojlanishiga salbiy ta'sir etishi sababli unga qarshi kurash borasida davlatlar o'zaro hamkorlikni rivojlantirmoqdalar.

Jumladan, BMTning Bosh Assambleyasi o‘zining 2000-yil 4-dekabrdagi korrupsiyaga qarshi samarali xalqaro hujjatni ishlab chiqish uchun maxsus qo‘mitani ta’sis etish to‘g‘risidagi 55/61-son qarori hamda boshqa bir qator qarorlariga asoslanib, 2003-yil 31-oktabrda 58/4-sonli Qarori bilan Korruptsiyaga qarshi Konvensiyasini qabul qilgan. Konvensiyaning asosiy maqsadlaridan biri yanada samarali va ta’sirchan ravishda korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarni qabul qilish hamda mustahkamlashga ko‘maklashish hisoblanadi. Konvensiya korruptsiyani oldini olish, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilash, shuningdek, korruptsiyani oldini olish va unga qarshi qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik masalalariga oid qoidalarni o‘z ichiga oladi. Qayd etish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi 2008-yil 7-iyulda Korruptsiyaga qarshi Konvensiyaga qo‘shilgan hamda milliy qonunchiligidan korruptsiyani oldini olish, korruptsiyaga qarshi kurash, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik normalari o‘z ifodasini topgan.

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun og‘ir jazo turlari nazarda tutilgan. Jumladan, pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatlari uchun og‘irlashtiruvchi holatlarda o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan. Qayd etish lozimki, korruptsiyani oldini olish va unga qarshi kurashda jinoyatchilik qonunchiligidagi rag‘batlantiruvchi normalar ham o‘z ifodasini topgan. Ya’ni, basharti, shaxsga nisbatan pora so‘rab tovlamachilik qilingan bo‘lsa va ushbu shaxs jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqda o‘ttiz sutka mobaynida o‘z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergen bo‘lsa, u javobgarlikdan ozod etiladi. Mazkur norma, pora olish-berishda vositachilik qilgan shaxsga nisbatan ham qo‘llaniladi. Ya’ni pora olish-berishda vositachilik qilgan shaxs jinoiy harakatlarni sodir etganidan keyin bu haqda o‘ttiz sutka mobaynida o‘z ixtiyori bilan

arz qilsa, chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergen bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilmoqda. Jumladan, 2017-yilning 3-yanvarida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilingan qonun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlar tartibga solingen yaxlit qonun hisoblanadi.

Qonunda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish; davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsianing oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish; korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'naliishlari sifatida belgilangan.

Qonunning 4-bobi korrupsianing oldini olishga doir chora-tadbirlar deb nomlanib, mazkur bob 19-24-moddalarni o'z ichiga oladi.

Qonunning 19-moddasida davlat boshqaruvi sohasida korrupsianing oldini olishga doir chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

davlat organlari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini ta'minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining va boshqa xodimlarining o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirish;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

davlat organlarining va ular xodimlarining faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik;

davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarining bajarilishi samaradorligi mezonlarini, standartlarini va uning sifatini baholash tizimlarini joriy etish;

davlat organlari xodimlarining kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagи odob-axloqining yagona prinsiplari va qoidalarini belgilovchi odob-axloq qoidalarini samarali amalga oshirish;

davlat organlari xodimlari manfaatlarining to‘qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan monitoring o‘tkazilishini ta‘minlash;

davlat organlari xodimlarining huquqiy maqomini belgilash, xizmatni o‘tashning shaffof tartibini o‘rnatish, shaxsiy va kasbiy sifatlar, ochiqlik, beg‘arazlik, adolatlilik va xolislik prinsiplari asosida tanlov bo‘yicha saralash hamda xizmatda ko‘tarilish tizimini joriy etish;

davlat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi, murojaatlarning to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishi, ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklarini tiklash hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida choralar ko‘rilishi ustidan nazoratni ta‘minlash;

davlat organlari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan ushbu organlar tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda muntazam ravishda monitoring o‘tkazish;

normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini tashkil etish;

davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarining samarali ijtimoiy himoya qilinishini, moddiy ta‘minot olishini va rag‘batlantirilishini ta‘minlash.

Qonun hujjatlarda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

Davlat organlarining va o‘zga tashkilotlarning mansabdon shaxslari hamda boshqa xodimlari qonun hujjatlariga rioya etishi, o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg‘arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o‘zini tiyishi shart.

Qonunning 20-moddasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korruksianing oldini olishga doir chora-tadbirlar belgilangan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korruksianing oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

ma‘muriy va byurokratik to‘sqliarni bartaraf etish, ro‘yxatga olish, ruxsat etish va litsenziyaga doir tartib-taomillarni soddalashtirish hamda ularning tezkorligini oshirish;

davlat organlarining nazorat-tekshiruv vazifalarini maqbullashtirish, tadbirkorlik sub’ektlarining faoliyatini tekshirish tizimini takomillashtirish, ularning faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishga yo‘l qo‘ymaslik;

davlat organlari va tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasidagi o‘zar munosabatlarning masofaviy shakllarini keng joriy etish;

tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun teng shart-sharoitlar yaratish va insofsiz raqobatga yo‘l qo‘ymaslik;

davlat xaridlarining samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish, davlat xaridlarini joylashtirishda oshkoraliq, shaffoflikni ta’minlash hamda raqobat muhitini qo‘llab-quvvatlash;

ta’lim, sog‘lijni saqlash, ijtimoiy ta’midot, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning boshqa sohalarida aholi uchun adolatli shart-sharoitlarni hamda teng imkoniyatlarni yaratish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik;

nodavlat tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etish.

Qonun hujjatlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

Qonunning 21-moddasida manfaatlар to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar belgilangan. Qonunning 3-moddasida manfaatlар to'qnashuvi tushunchasi berilgan bo'lib, shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsnинг mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lган hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtaida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lган vaziyat manfaatlар to'qnashuvi deyiladi.

Manfaatlар to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

davlat organlarining xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida manfaatlар to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lган shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi kerak.

Manfaatlар to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, davlat organlarining xodimlari o'zining bevosita rahbarini darhol xabardor qilishi kerak. Manfaatlар to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olgan rahbar bu to'qnashuvning oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rishi shart.

Davlat organlarining maxsus bo'linmalari yoki odob komissiyalari manfaatlар to'qnashuvini hal etish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi.

Davlat organlarining manfaatlар to'qnashuvining oldini olish yoki uni bartaraf etish talablari bузilishiga yo'l qo'ygan xodimlari, shuningdek, ularning rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Qonunning 22-moddasida ma'muriy tartib-taomillar sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

qonuniylik va adolatlilik prinsiplarini ta'minlash, ma'muriy-boshqaruv jarayonining beg'arazligi kafolatlarini yaratish, ushbu jarayonning shaffofligini, tashqi va ichki nazorat uchun ochiqligini oshirish;

o'z ixtiyoricha harakat qilish vakolatlarini cheklagan holda ma'muriy tartib-taomillarni batapsil tartibga solish, byurokratik rasmiyatçılılikka yo'l qo'ymaslik;

soddalashtirilgan ma'muriy tartib-taomillarni joriy etish;

davlat organlarining qarorlari ustidan shikoyat qilishning va yetkazilgan zarar o'rmini qoplashning samarali mexanizmlarini belgilash.

Qonun hujjatlarida ma'muriy tartib-taomillar sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

Qonunning 23-moddasida davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillari to'g'risidagi axborotning shaffofligi va ochiqligini ta'minlash;

adolatli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog'ida xolisona mezonlardan foydalanilishini ta'minlash;

ichki nazoratning samarali tizimini, shuningdek, davlat xaridlarini o'tkazish natijalari yuzasidan shikoyat qilish va nizolashishning samarali tartib-taomilini yaratish;

davlat elektron savdolarining samarali ishlashini ta'minlash.

Qonun hujjatlarida davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

Qonunning 24-moddasida normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi tartibga solingan.

Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyaga sabab bo'ladigan omillarni aniqlashga;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan loyihani qabul qilish oqibatlarini umumiy baholashga; normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash jarayonida korrupsiya xususiyatiga ega xavflarning yuzaga kelish ehtimolini prognoz qilishga;

korrupsiyaga sabab bo'lgan, aniqlangan omillarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishga va choralar ko'rishga yo'naltirilgan jarayondan iborat bo'ladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan faoliyatning tegishli yo'nalishlari bo'yicha o'tkaziladi.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari sifatida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti belgilangan.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolar ham korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishlari mumkin. Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishlari, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijo etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishlari mumkin.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalari ham korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni yoritadi, korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

Ma‘lumki, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish muhim hisoblanadi. Shu sababli “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunida davlat organlari va boshqa tashkilotlarga korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘rish, shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir tushuntirish ishlarini amalga oshirish, huquqiy tarbiya va ta’limni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish, o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish yo‘li bilan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, o‘z mansabdon shaxslarining hamda boshqa xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini, shu jumladan, huquqiy bilimlari darajasini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilgan. Bundan tashqari, Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashda huquqiy ta’lim va tarbiyaning o‘rni muhimligiga e’tibor qaratilgan hamda davlat ta’limni boshqarish organlari va ta’lim muassasalarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim va tarbiyaga, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta’lim

dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldag'i "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (PQ-2752-son) bilan 2017-2018-yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi tasdiqlandi. Shuningdek, yuqoridagi Qaror bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tuzildi. Mazkur Komissiyaning asosiy vazifalaridan biri korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi. 2017-yilning 30-mart hamda 30-iyun kunlarida komissiya yig'ilishi o'tkazildi. Mazkur yig'ilishda davlat dasturida belgilangan vazifalarni ijrosi hamda kelgusidagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid huquqiy normalar tahlilidan xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha mustahkam huquqiy baza hamda uning ijrosini ta'minlashning aniq mexanizmlari yaratilgan bo'lib, korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashga nafaqat davlat organlari, balki barcha fuqarolar o'zlarini dahldor, deb hisoblashlari muhim hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari:

- 1) "Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabдор shaxslarning xulq-atvor Kodeksi" (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1979-yil 17-dekabrda qabul qilingan);
- 2) Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabдор shaxslarning xulq-atvor Kodeksini samarali amalga oshirilishi

uchun rahbariy prinsiplar (BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi rezolyusiyasi bilan 1989-yil 24-mayda qabul qilingan);

•3) Davlat mansabdor shaxslarining Xalqaro xulq-atvor kodeksi (BMT Bosh assambleyясining Rezolyusiyasi bilan 1996-yil 12-dekabrda qabul qilingan);

•4) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro tijorat operatsiyalarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash to'g'risidagi Deklaratsiyasi (BMT Bosh assambleyасining Rezolyusiyasi bilan 1996 yil 16 dekabrda tasdiqlangan);

•5) Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro konvensiya (BMT Bosh assambleyасining Rezolyusiyasi bilan 1999-yil 9-dekabrda qabul qilingan);

•6) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyасining Rezolyutsiyasi bilan 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan);

•7) Birlashgan Millatlar Tashkiloti Forumining ofshorlar bo'yicha Kommunikesi (Kayman orollari, 2000-yil 30-31 mart);

•8) Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining korrupsiyaga oid ma'ruzasi (Vena, 2001-yil 8-17-may);

•9) Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlar to'plami (2001-yil iyun);

•10) Korrupsiyaga qarshi kurash choralar. Pulni tozalashga qarshi kurash choralar. Jinoyatchilik va odil sudlov: XXI asr chorloviqa javoblar to'g'risidagi Vena deklaratsiyasini amalga oshirish harakat Rejasiga (BMT Bosh assambleyасining Rezolyusiyasi bilan 2002-yil 15-aprelda qabul qilingan)

•11) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyасining Rezolyusiyasi bilan 2003- yil 31-oktabrda qabul qilingan).

Yevropa Kengashi va Yevropa Ittifoqining korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari:

•1) Yevropa Kengashining korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1999-yil 27-yanvar);

•2) Yevropa Kengashining korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1999-yil 9-sentabr);

•3) Yevropa Kengashining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni tozalash, aniqlash, olib qo‘yish va musodara qilish to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1990- yil 8-noyabr);

•4) Korrupsiyaga qarshi kurashning yigirmata prinsipi (Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 1997-yil 6-noyabr);

•5) Davlat xizmatchilari uchun Model xulq-atvor kodeksi (Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2000-yil 11-may);

Korrupsiyaga qarshi kurashda ma’rifat va ma’naviy-mafkuraviy tarbiyaning ahamiyati quyidagicha:

Korrupsiyaga qarshi ma’rifat insonda bilim, “immunitet”, shuningdek, korrupsiyaga qarshi oliy maqsadga mos keluvchi barqaror xulq-atvor me’yorlarida o‘z aksini topgan tegishli ma’naviy-axloqiy ehtiyojlar, insof, iymon-e’tiqod, halollik kabi sifat va hissiyotlarni shakllantirishga qaratilgan maqsadli jarayondir. Shuning uchun ham Korrupsiyaga qarshi kurashda milliy qadriyatlarimizga tayangan holda har bir jamoa jiddiy kurash olib borishi davr talabidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1.Korrupsiyaga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar nimalardan iborat?

2.Ma’naviy korrupsiya deganda nimani tushunasiz?

3.Korrupsiyaga qarshi kurashda mafkura va milliy g‘oyaning rolini izohlab bering.

4.Manfaatlar to‘qnashuvi deganda nimani tushunasiz?

5.Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qanday qonun-hujjatlarini bilasiz?

6.Korrupsianing oldini olishga doir chora-tadbirlarni ayting.

ФОЙДАЛАНИЛАДИГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

Асосий адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. – Т.: 1997. – 63 б.
3. “Таълим тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Конуни. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимини қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
5. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз – Т.: Ўзбекистон, 2017.
6. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
7. Мирзиёев Ш.М. Таҳқидий таҳдил қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
 1. Мирзиёевнинг Ш.М. Олий Мажлисга мурожаати. / Халқ сўзи, Тошкент: 2017. -№ 258 (6952).
 8. Мирзиёев Ш.М. Бирлашган миллатлар ташкилоти Бош ассамблеясининг 72 сессиясида сўзлаган нутқи. /Халқ сўзи, - Тошкент: 2017. 20 сентябрь.
 9. “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови”. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг мамлакат Конституциясининг 24 йиллигига бағишланган нутқи. Т.: 2016, 7-декабрь.
 10. Каримов И.А. Асарлар тўплами. Ж. 1-23. Т.: Ўзбекистон. 1996-2016.
 11. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 176 б.

12.Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т.: Ўзбекистон, 12 ноябрь 2010.

13.Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.

14.Каримов И.А. Она юртимиз баҳту-иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. Т.: Ўзбекистон, 2015.

15.Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили: [Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Янги йил арафасида – 2016 йил 30 декабрь куни мамлакатимизнинг етакчи илм-фан намоёндалари билан учрашди] // Халқ сўзи. – 2016. – 31 дек. – Б.1. 2017.

16.Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик – халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир : [Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Республика байналмилад маданият маркази ташкил этилганлигининг 25 йиллигига бағишланган учрашувдаги нутқи] // Ma'rifat. – 2017. – 25 янв. – Б. 1-2.

17.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 9 май – Хотира ва Қадрлаш кунига бағишланган қабул маросимиидаги нутқи. Халқ сўзи. – 2017. – 10 май. – Б.1.2.

18.Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасининг “2017-2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегияси. 2017, 7-февраль.

19.Қуронов М. Миллий тарбия. Т.: Маънавият. 2007.-238 б.

20.Эргашев И. ва б. Миллий гоя тарғиботи технологиялари. Т.: 2016.

21.Отамуродов С. Ёшлар сиёсий маданиятини ривожлантириш омиллари. –Т, 2015.

- 22.Бозоров Д. ва б. Миллий гоя ва ижтимоий синергетиканинг фалсафий асослари. – Т.: “Тўрон замин зиё”. 2014.
- 23.Тулепов А. Ислом ва ақидапараст оқимлар. –Т.: “Шарқ”. 2013.
- 24.Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. – Т.: Маънавият. 2011.
- 25.Назаров Қ. Маънавий қадриятлар ва инсон қадри. Т.: Маънавият. 2011.
- 26.Комилов Н. ва б. Мустақиллик тафаккури, демократик дунёқараш ва миллий менталитет. Т.: Маънавият, 2011.
- 27.Иргашев ва б. Кучли фуқаролик жамияти қуриш йўлида. Т.: Маънавият. 2011.
- 28.Туйчиев Б. Политическая культура и демократизации общества. –Т.:НУУз, 2010.
- 29.Қаҳҳорова Ш. Глобал маънавият – глобаллашувнинг гоявий асоси. –Т.:Тафаккур, 2009.
- 30.Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. Назаров Қ. Таҳрир остида. -Т.: Маънавият, 2009.
- 31.Қуронов М. Мағкуравий таҳдид ва ёшлар тарбияси. – Т.: Академия, 2008.
- 32.2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили”да амалга оширишга оид Давлат Дастурини ўрганиш бўйича илмий услубий рисола.Т.: “Маънавият”, 2017.
- 33.Мухторов А. Миллий гоя ва миллий манфаат.- Т.:”Fan va texnologiya”, 2014.
- 34.Назаров Қ. Гоялар фалсафаси. (тажрибавий кўлланма).-Т.: Akadeiya, 2011.
- 35.Миллий гоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. Т.: Akadeiya, 2007.
- 36.Саифназаров И.Маънавий баркамоллик ва сиёсий маданият.-Т.:”Шарқ” НМАК, 2001.

37.Саифназаров И., Саифназарова Ф. Мафкуравий хурожлар нима?-Т.:”Маънавият”, 2015.

38.Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий-маърифий асослари (масъул муҳаррир А.Очилдиев). –Т.: ТИУ. 2008.

39.Эркаев А. Маънавият ва тараққиёт. – Т.: Маънавият, 2008.

40.Гафарли М.М. Касаев А.Ч. Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик – тараққиёт омили. –Т.: Ўзбекистон, 2000.

41.Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат. Хоназаров Қ. Таҳрири остида. -Т.: Шарқ, 2000.

42.Миллий истиқлол гояси (Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалавриат босқичи учун дарслик). Эргашев И. Таҳрири остида. –Т.: Академия,2005.

43.Мамашокиров С. Эркин ва фаровон хаёт курилишининг гоявий мафкуравий масалалари. Т.: Маънавият, 2007.

44.Отамуродов С. Глобаллашув ва миллий – маънавий хавфсизлик. –Т., 2013.

45.Тўраев Ш., Мухаммадиева О. Миллий гоя тарихи ва назарияси. Т., 2016.

46.Куронов М. ва б. Маънавий тарбия хрестоматияси. Т.: Маънавият, 2014.

Интернет сайтлари:

1. www.lex.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.edu.uz
4. www.ma'naviyat.uz
5. www.bilim.uz
6. www.senat.uz
7. www.nauka.uz
8. www.faylasuf.uz
9. www.mulodo

MUNDARIJA

Kirish.....	3
MILLIY G'OYA: O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING MAZMUN VA MOHIYATI	5
MILLIY G'OYANING NAZARIY KONSEPTUAL ASOSLARI....	13
JAMIyat MAFKURASIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGI.....	29
G'oyalar XILMA-XILLIGI VA MAFKURAVIY JARAYONLARNING IJTIMOIY TARAQQIYOTGA TA'SIRI.....	47
MILLIY G'OYA – O'ZBEKISTON DEMOKRATIK TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLI.....	62
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISHNING HARAKATLAR STRATEGIYASI – MILLIY TARAQQIYOT ASOSI.....	84
GLOBALASHUV DAVRIDA AXBOROT MAKONI VA G'oyaviy MAFKURAVIY KURASHLAR.....	102
MILLIY G'oyaga DAHDORLIK HISSI BARQAROR TARAAQQIYOT OMILI.....	123
MILLIY G'oya TARG'IBOTINING INNOVATION TEXNOLOGIYALARI.....	137
KONSTRUKTIV VA DESTRUKTIV G'oyalar KO'RINISHLARI.....	154
KORRUPSIYANING JAMIyat BARQARORLIGIGA TA'SIRI	159
FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:.....	175

**B.T.To'ychiyev, I.Ergashev,
O.M.Muxammadiyeva, M.I.Xo'jayev**

MILLIY G'OYA: O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

O'quv qo'llanma

Toshkent - "Innovatsiya-Ziyo" - 2020

Muharrir: Xolsaidov F. B.

*Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.
Bosishga 30.11.2020. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.
"Times New Roman" garniturasi.
Offset bosma usulida bosildi.*

*Shartli bosma tabog'i 12. Nashr bosma tabog'i 11,4.
Adadi 200 nusxa.*

*"Innovatsiya-Ziyo" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko'chasi, 6-uy.*

34480

44.04

ISBN 978-9943-6431-2-3

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-6431-2-3.

9 789943 643123